

O'ZBEKISTON YOZUVCHILAR
UYUSHMASI

Mirzo KENJABEK

YOSHLARGA DIL SO'ZLARIM

*Yosh ijodkorlarga samimiy
tavsiyalar*

TOSHKENT
«ADABIYOT»
2022

821.512.133-32

84(50)7

K 37

K 37

Kenjabek, Mirzo.

Yoshlarga dil so'zlarim [Matn]: *Yosh ijodkorlarga samimiy tavsiyalar* / Mirzo Kenjabek. – T.: «Adabiyot» 2022. – 224 b.

ISBN 978-9943-6483-2-3

Loyiha rahbari:

Sirojiddin Sayyid – O'zbekiston xalq shoiri

Mas'ul muharrir:

G'ayrat Majid

Shoir, tarjimon va publitsist, islomiy asarlar musannifi va tarjimoni, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi, Xalqaro Bobur mukofoti sohibi Mirzo Kenjabekning «Yoshlarga dil so'zlarim» risolasida Shaxs va Ijod, subut va vijdon, qalb va iymon-e'tiqod tamoyillari bilan bog'liq fikrlari samimiy bayon etilgan.

Risola barcha yosh qalamkashlar, ayniqsa, ijod maktablarining talabalari uchun sevimli va dasturil-amal asar bo'lib qoladi, deb umid qilamiz.

*Kitob O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi
homiyligida chop etildi.*

ISBN 978-9943-6483-2-3

© Mirzo Kenjabek, 2022

© «Adabiyot», 2022

SO‘ZBOSHI O‘RNIDA

Aziz kitobxon!

Davlatimiz rahbari Oliy Majlisga Murojaatnomasi-da: **«Biz o‘z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug‘ maqsadlarni qo‘ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug‘beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak»** degan so‘zlari bilan xalqimizni nurli kelajak sari olib boradigan yo‘limizni belgilab berdilar. So‘z mulkingning sultoni Alisher Navoiy bobomiz tavalludining 580 yilligini, shuningdek, zamonaviy madaniyatimiz va adabiyotimizning ulug‘ namoyandalari Abdulla Oripov, O‘tkir Hoshimov va Botir Zokirov tavalludining qutlug‘ sanalarini keng nishonlash to‘g‘risidagi Prezident qarorlari mohiyatida ham yoshlarni buyuk ajdodlarimizga munosib avlod qilib tarbiyalash nazarda tutilgan. Shuning uchun ham 2021-yil nomi **«Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili»** deya ataldi va **«Yangi O‘zbekiston – maktab ostonasidan, ta’lim-tarbiya tizimidan boshlanadi»** degan g‘oya asosida keng ko‘lamli islohotlarni amalga oshirishga kirishildi.

Ushbu ulug‘vor vazifalarni amalga oshirishda ijodkor-adiblarimiz zimmasiga ham mas’uliyatli vazifalar yuklanadi. Badiiy adabiyot – yoshlarning yuragiga kirib borish, ularning didi, fahm-farosatini go‘zallashtirish, bilim va saviyalarini oshirishning eng samarali vosita-

sidir. Jonli va hayotiy misollarga boy asarlar mutolaa-si orqali o'quvchi-yoshlar Vatanimizning ulug' tarixi-ni, buyuk ajdodlarimizning ibratli hayoti va faoliyatini o'rganadi va ulardan o'rnak olishga intiladi.

Yoshlarimizga mutolaa uchun tavsiya etiladigan ush-bu kitob Prezidentimiz Murojaatnomasiga labbay deya javob bergan faol adibimizning ayni shu yo'ldagi ijodiy mehnati samarasidir.

Ushbu kitobni o'qir ekanmiz, milliy adabiyotimizning atoqli namoyandalari Abdulla Qahhorning «Yoshlar bi-lan suhbat», Asqad Muxtorning «Yosh do'stlarimga» singari risolalari esga tushishi tabiiy hol. O'tgan asr-ning 60–70-yillarida yaratilgan bu kitoblar o'z davrida Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Shukur Xolmirzayev, O'tkir Hoshimov singari ulug' adiblar hamda bugungi kunda ustoz maqomiga ega bo'lgan necha-necha adabiy avlodlar ilhomiga qanot bag'ishlagan, desak mubolag'a bo'lmas.

Bugun Yangi O'zbekiston yoshlari sevib o'qiydigan, ularni ta'sirlantiradigan, ulug' maqsadlar sari boshlay-digan asarlar kerak.

Kitobda atoqli ustoz adiblarimizning hayoti va faoli-yati, ijodiy tajribaxonasi, so'z ustida ishlash intizomi, asarlari tahlili ta'sirchan va qiziqarli misollar bilan ba-yon qilingan.

Mirzo Kenjabekning ushbu kitobi ijod va ilm tolibi bo'lgan yoshlarga adabiy-ma'naviy, ijtimoiy-ma'rifiy saboq beruvchi kitoblardan biri sifatida keng o'quvchi-lar ommasi yuragidan munosib o'rin oladi, degan umid-damiz.

Tahrir hay'ati

QISQA MUQADDIMA

Bismillahir Rohmanir Rohim.

Aziz va muhtaram yosh ijodkorlar! Sevikli do‘stlarim, o‘g‘illarim va qizlarim!

Balki, bu kitob sizning taqdiringizda biror narsani o‘zgartira olmas. Lekin insonning zamirida ko‘plab yaxshiliklar va ko‘plab yomonliklar yashiringandir. O‘sha yaxshiliklarni ro‘yobga chiqarish va o‘sha yomonliklardan saqlanish uchun bashar zoti bir eslatmaga, bir ma‘naviy maktabga muhtojdir.

Inson toza fitratda tug‘iladi, keyin muhiti uni yo yaxshi tomonga, yo yomon tomonga buradi. Inson nafsida jamlangan ko‘plab go‘zal xislatlarni yuzaga chiqarish uchun odamzodga ta‘lim zarur, go‘zal eslatma zarur. Kamina sizlarga dil so‘zlarimni ana shu yaxshi niyatda bayon qilmoqdaman.

Ustoz Abdulla Oripov yozadi:

*«Ravon yo‘llar qarshingizda turibdi mushtoq, –
Derdi bizga harf o‘rgatgan yosh bir muallim».*

Men «Sizning qarshingizda ravon yo‘llar turibdi», demayman. Aksincha, sizni kelajakning sinovlaridan, hayot suvlarining to‘lqinlari va girdoblaridan ogohlantiraman. Chunki ustoz yana aytganlar:

*«Xayollarning girdobida qolganda ammo
Alam bilan xotirlayman muallimimni».*

DIL SO‘ZLARIMNI AYTISHGA SABAB NIMA?

O‘tgan ulug‘ adiblarning ba‘zilari o‘zlaridan keyin kelayotgan yosh ijodkorlarning kelajagini o‘ylab, ularning istiqboliga qayg‘urib, o‘z hayotiy tajribalariga tayangan holda nodir so‘zlarni yozib qoldirganlar. Ulug‘ yozuvchi Abdulla Qahhorning adabiyot haqidagi fikrlari, atoqli adib va shoir Asqad Muxtorning adabiy o‘ylari, buyuk shoir Erkin Vohidovning ibratli naql va hikoyatlari shular jumlasidandir.

Kaminangiz o‘zimni yoshlarga nasihat qiladigan bir maqomga erishgan shaxs deb hisoblamayman, lekin asl adabiyotning do‘sti va fikrli kitobxon sifatida yosh ijodkorlarga ba‘zi zarur so‘zlarimni aytmoqchiman. Bu so‘zlar jahon adabiyotini kuzatgan bir kamtarin do‘stingizning Shaxs va Ijod, subut va vijdon, qalb va iymon-e‘tiqod tamoyillari bilan bog‘liq dil so‘zlaridir. Toki adabiyot maydoniga kirib kelayotgan har bir iste‘dodli yosh ijodkor bu so‘zlarni aql va tafakkur elagidan o‘tkazib, o‘z hayot va ijod yo‘lini to‘g‘ri belgilasin, ijod jarayonida zarur ma‘naviy tamoyillarni o‘ziga dasturilamal qilib, kamolot cho‘qqilariga yuksalsin, bir umr havaskor qalamkash bo‘lib qolmasin, davrlar o‘zgarishi bilan yozgan narsalari behuda ketib, beobro‘y va beizzat bo‘lmasin, Xudo bergan iste‘dodidan to‘g‘ri va unumli foydalansin.

Ushbu risolada yuksak badiiy so‘zlarni tizishim, yuksak tashbihli ifodalar bilan so‘zlashim mumkin edi. Yo‘q, men oddiy, sodda, lekin zaruriy so‘zlarni lozim ko‘rdim.

ADABIYOT ADAB DEMAKDIR

Adabiyot «adab» so‘zidan olingan, go‘zal axloq va chiroyli adab manbayidir.

Adabiyot – millat ruhiy hayotining bir qismi, xalqning ma’naviy hayotini aks ettiruvchi, ayni vaqtda, xalqning ruhiy-ma’naviy hayotiga ta’sir o‘tkazuvchi so‘z san’atidir. Adabiyotning mohiyati adabdan iboratdir. Adabiyot inson qalbini, vijdonini, iymonini, axloqini, ma’naviyatini, adolati va haqiqatini hamda boshqa insoniy xislatlarini tarbiyat qilib boruvchi hikmat manbayidir.

Bir hadisi sharifda: «Albatta, she’rda hikmat, bayonda sehr bordir», deyiladi. Hazrat Alisher Navoiy bu so‘zni nazmiy va nasriy adabiyotga taalluqli, deb ajoyib hukm bildirganlar.

Shoirilar haqida kelgan Ilohiy oyatlarning sharhida aytiladiki: «Sahobalardan bo‘lgan bir shoir kelib Payg‘ambar alayhissalomga: «Alloh taolo shoirilar haqida aytgan bu tanqidiy so‘zlardan keyin bizlarning holimiz ne kechadi?» – deganlarida, ul Hazrat bunday javob berganlar: «Mo‘min kishi ham tig‘i bilan, ham tili (ya’ni, qalami) bilan Alloh yo‘lida jiddu jahd qiladi. Yaratgan Egamning nomiga qasamki, sizlar otadigan o‘qning tig‘i o‘tkirroqdir».

Abdulla Qahhorning «Adabiyot atomdan kuchli. Lekin uning kuchini o‘tin yorishga sarflamaslik kerak», degan so‘zining ma’nosi mana shu hadis bilan ochiladi.

Shoir Hasson ibn Sobit degan sahoba-shoir haqida hazrati Payg‘ambarimiz: «Agar u iymon-e’tiqod muho-

Mirzo KENJABEK

fazasida bardavom bo'lsa, Haq taolo unga Ruhul-quds, ya'ni farishta Jabroil alayhissalom orqali yordam qiladi», degan ma'noda hadis aytganlar.

Demak, poklikni, ezgulikni, haqiqat va adolatni kuylaydigan asl iste'dod sohiblariga Yaratgan Zotdan ma'naviy yordam yetib turishi shubhasiz ekan. Bejiz emas, Alisher Navoiyning «Ruhul-quds» degan she'riy asari ham bor.

Shundoq ekan, adabiyotning o'tkinchi voqelikka, soxta mafkuralarga, istibdod va zulmga xizmat qilishga haqqi yo'q. «Davri ovozi» deganda o'z davrida, kerak vaqtda ovozi chiqib, keyingi davrlarda ovozi o'chadigan adabiyotni emas, balki ovozi uzoq zamonlarga boradigan asl adabiyotni tushunmog'imiz lozim.

IJOD AHLINING O'Z AXLOQIY MEZONI BO'LISHI KERAK

Ijod ahli xalqning peshqadam vakillari, millat ziyolilaridir. Peshqadam va ziyoli bo'lgan, ayniqsa, xalqqa yaxshilik va ezgulikni o'rgatadigan kishida ustun bir axloq, o'rnak bo'larli fe'l-atvor, yuksak ma'naviyat bo'lishi zarur.

Albatta, shoirning o'sib-ulg'aygan muhiti, keyingi izlanish davri shart-sharoitlari uning ijodiga va axloqiga ta'sir qiladi.

Xojagon-Naqshbandiya silsilasining ulug' murshidi Xoja Ahrori Valiy hazratlari «Volidiyya» risolasida koinotning ulug'i bo'lgan zotga ergashish ma'naviy martaba boisi ekanini bunday ifoda qiladilar:

«Tobe bo‘lish – ergashish ulug‘ martabaning hosil bo‘lish sababi ekani ma‘lum bo‘ldimi, demak, kishi bunday bog‘lovchi saodat o‘ziga tez yor bo‘lishini istasa, suhbatdoshlikni shunday toifa bilan qilmog‘i kerakki, ularning zohirlari muborak shariatga muvofiq bo‘lishi va botinlari tobelik (ergashish) sababli aytilgan martabalarda kamolga erishgan bo‘lishi lozim. Chunki Haq taolo ko‘ngilni shunday yaratganki, odam kim bilan suhbatdosh bo‘lsa, o‘sha odamning suhbatidan ta‘sir oladi».

«Volidiyya» asarini she‘riy yo‘l bilan tarjima qilgan Zahiruddin Muhammad Bobur ba‘zi matnlarni bunday ifoda etadilar:

*Bu kishi sohibi holot o‘lg‘ay,
Mazhari ushbu kamolot o‘lg‘ay.*

Ya‘ni: «Sen suhbatdosh bo‘lgan u kishi ma‘naviy hollarga sohib bo‘lsin, ushbu zikr qilingan kamolotga mazhar bo‘lgan – erishgan bo‘lsin».

*Tengri ko‘ngulni yaratti andoq,
Bu sifatni anga qotti andoq;
Hamnishin har kim ila bo‘lsa ko‘ngul,
Suhbatidin mutaassir o‘lur ul.*

«Zotan, Alloh taolo ko‘ngilni shunday holda yaratgan va shu sifatni unga qo‘shib qo‘yganki, kishi kim bilan hamnishin, suhbatdosh bo‘lsa, ko‘ngli uning suhbatidan ta‘sir oladi».

Yana Xoja Ubaydulloh Ahror hazratlari «**Motamda qayg‘u, shodlikda quvonch ta‘siri bor**» ekanini bayon qiladilar: «Shu narsa hamma odamga ma‘lumki, agar

Mirzo KENJABEK

kishi motamzada odamning oldida o'tirsa, unda ham g'amginlik paydo bo'ladi. Agar shodligi g'olib odamning oldida o'tirsa, unda ham shodlikning g'olib sifati yuz ko'rsatadi».

MUHITNING IJODGA TA'SIRI

Qalamkash qanday doirada hayot qursa, o'sha doiraning axloqiy-ma'naviy ta'sirida bo'ladi. Shoirning do'stlari qanday kishilar bo'lsa, o'zi ham o'shanday bo'ladi. Adibning suhbatdosh ulfatlari qanday xulqdagi insonlar bo'lsa, u o'sha ulfatlar maqomidan chiqib keta olmaydi. Shoir Hamid Olimjon yozadi:

*Bolalik kunlarimda,
Uyqusiz tunlarimda
Ko'p ertak eshitgandim,
So'zlab berardi Buvim.
«Tohir-Zuhra», «Yoriltosh»,
Oyni uyaltirgan qosh...*

Ulug' rus shoiri Aleksandr Sergeyevich Pushkin «Yevgeniy Onegin» she'riy romanida yozadi:

*Bir payt Litsey bog'lari aro
Men barq urib gullaganda tinch,
Apuleyni xushlardim, ammo
Sitseronni o'qimasdim hech;
U kun sirli vodiy qo'ynida,
Sokin, shaffof suvlar bo'yida
Yangraganda oqqushlar sasi,
Yuz ko'rsatdi ilhom parisi.*

*Talabalik hujram nogahon
Nurga to‘ldi: pari-la kirdik,
Yoshlik o‘ylar bazmini qurdik,
Bolalikni kuyladik shodon,
O‘tmishning shon, kamolini ham,
Dilning titroq xayolini ham.*

Apuley – eramizdan avvalgi 125-yillar atrofida tug‘ilgan Rim yozuvchisi. «Oltin eshak» degan asari mashhur bo‘lib, Pushkin uni farang tilida o‘qigan. Sitseron esa – mashhur Rim notig‘i, yozuvchisi va siyosiy arbobi.

Lekin Pushkindek daho shoir ham litsey bog‘lariga kelgunicha, bolalikda o‘z enagasi Arina Rodionovnaning yalla va laparlarini eshitib ulg‘aygan. Hamma shoirlar qatori Pushkin, Hamid Olimjon, Oybek, Erkin Vohidov qalbga va ruhga yaxshi ta‘sir qiladigan narsalarni – ertak, qo‘shiq va yallalarni tinglab ulg‘ayganlar.

Lekin o‘sha shoir va adiblar hozirgi beo‘xshov ashulalarni, shahvat va behayolik ufurgan estradalarni eshitib ulg‘aysalar edi, ahvol qanday bo‘lar edi? Bu savolga ulug‘ rus shoiri Yevgeniy Yevtushenko so‘zi bilan javob beramiz.

Yevgeniy Yevtushenko: **«Agar Pushkin bolaligidan enagasi Arina Rodionovnaning yallalarini emas, hozirgi estrada qo‘shiqlarini eshitib ulg‘aysa edi, undan Pushkin chiqmas, balki undan Pushkinning qotili bo‘lgan Dantes chiqqan bo‘lar edi»**, deb yozgan edi.

Bu gap, shubhasiz, hozirgi zamon o‘zbek estradasiga ham tegishlidir. Shoir aytmoqchiki, shahvat va buzuqlik estradasi insonlarni o‘z-o‘zining ma‘naviy qotili qilib tarbiya qiladi. Darhaqiqat, go‘ng ustida boychechak unmaydi.

Ba'zi qalamkashlarning yozgan xotira yoki kechinmalarini o'qisangiz, go'yo unga boshqa odamlardan farqli bir imtiyoz berilgandek katta ketayotganini sezasiz.

Insofdan gapiradigan odamning o'zi insofli bo'lishi kerak. Tarbiya qiladigan insonning o'zida tarbiya bo'lishi shart. Yuksak insoniy fazilatlarni tavsiflaydigan qalamkashning o'zida yuksak insoniy fazilatlar bo'lishi lozim. Rahmatli Asqad Muxtorning bir she'ri bor, so'ngi satrlari:

*Yoshligidan boshlang bola tarbiyasini,
Tug'ilmasdan boshlasangiz, yana ham yaxshi.*

Ya'ni, bolani tarbiya qiluvchi kishi hali bolasi tug'ilmasidan o'zi tarbiyali bo'lishi zarur.

Qisqasi, ijodkor odam har jihatdan go'zal axloq va madaniyatga, yuksak insoniy xislatlarga, boy ma'naviyatga, pok, ibratli hayot tarziga ega bo'lishi kerak. Toki uning siymosidan ham, asaridan ham olamga ma'naviyat nurlari taralsin.

Shoir va yozuvchining axloqiy holatini belgilab bergan biror asar yoki biror qoida yo'q. Lekin qalam ne'matiga ega ekanligi, xalqning ma'naviy muallimi ekanligi unga yetarli qoida, yetarli ibrat maktabidir.

Vafo, sadoqat, to'g'rilik, poklik, oilaga, yor-do'stlarga, farzandlarga mehr-muhabbatli bo'lish, har qanday vaziyatda o'zini yuksak maqomda tutish, kamtarlik, xokisorlik va tavozu'korlik ijod ahlining doimiy axloq o'lchovlari bo'lishi lozim.

ADABIYOT O‘TKINCHI TASHVIQOT VOSITASI EMAS

Ulug‘ ustoz Abdulla Oripov:

*Men ham yashayapman o‘z zamonimda,
Davrimdan qayga ham tushardim yiroq? –*

deganlar. Har bir ijodkor o‘z zamonasining dard-u tashvishi bilan yelkadosh yashaydi. Albatta, adib o‘z davri bilan hamnafas yashashi kerak. Lekin bu hamnafaslik adabiyotni o‘tkinchi narsalarga qurbon qilish degani emas. Adabiyot nog‘ora, ijodkor esa nog‘orachi bo‘lib qolmasligi darkor. Sodda qilib aytganda, vaqtli matbuotning, ommaviy axborot vositalarining vazifasini adabiyotga, she‘riyatga yuklamaslik lozim. Ijodkor ijtimoiy hayot bilan birga yashaydi, lekin bu birgalik badiiy ijoddan tashqari insoniy-ijtimoiy faoliyatdir. Deylik, bu faoliyat adibning maqolalari, suhbat va musohabalari, nutqlari bo‘lishi mumkin. Adabiyotda davr ruhi aks etadi, lekin bu ruh adabiyotni o‘ldiradigan o‘tkinchi nafas emas, balki adabiyotga hayot beradigan abadiy ruh bo‘lmog‘i kerak.

Ulug‘ rus shoiri Sergey Yesenin she‘riyatini butun olam o‘qiydi, lekin oradan necha yillar o‘tib, Demyan Bedniyning tashviqiy bitiklari qaysi puchmoqda qolib ketganini hech kim bilmaydi. Holbuki, ikkalasi zamondosh, o‘z davrida, siyosat olamida Demyan Bedniy obro‘yi Yeseninning obro‘yidan baland bo‘lgan. Endi-chi, Bedniy degan shoir o‘tganini insonlar bilmaydi ham. Shuning uchun vaqtida Sergey Yesenin piching va kesatiq bilan yozgan:

*Mana, ko'ring qishloq yigitchalarin,
Bular yosh firqalar – marsh bilan kelar.
Garmonni yangratib baralla ular,
Kuylar Bedniy Demyan agitkalarin¹.*

Ular, ya'ni yosh firqalar, «ura-ura»chilar Bedniy Demyanning, ya'ni baxtsiz, sho'rlik Demyanning tashviqiy she'rlarini baqirib kuylab kelayotir.

Bu satrlarda ikki nozik nuqta bor: birinchisi, muallif Demyanning «agitka»lari, ya'ni «tashviqcha»lari o'tkinchi va soxta ekaniga ishorat qilmoqda; ikkinchisi, shoirning «Demyan Bedniy» degan ism va nasabini «Bednogo Demyana» degan ibora bilan qo'llab, uni «baxtsiz, sho'rlik, baxtiqaro Demyan» deb atamoqda. Ya'ni, o'tkinchi va soxta mafkurani surnay va «tashviqcha» bilan olqishlayotgan shoirni baxtsizlikka hukm qilmoqda. Adabiyot nog'ora, ijodkor nog'orachi bo'lmasligi kerak, degan so'zimizning ma'nosi ana shudir.

Sergey Yesenin yana yozadi:

*Shoirlar ko'p Rusda otashin,
Mayakovskiy ham zo'r shoir.
Masselprom qopqoqchalarin
She'rga solib yurgandir hozir...*

Shubhasiz, Vladimir Mayakovskiy buyuk shoir, nodir iste'dod sohibi edi. Lekin yog' zavodining qopqoq-tiqinlari she'riyatga yarashadigan narsa emas. Bu satrlarda Sergey Yesenin Mayakovskiydek buyuk shoir o'z nodir iste'dodini o'tkinchi siyosiy ma'rakalarga qurbon qilayotganini tanqid etayotir.

¹ *Erkin Vohidov tarjimalari.*

Albatta, hayot ijodkorni mashg‘ul qiladigan va ba‘zan chalg‘itadigan dolzarb masalalardan xoli emas. Davr talab qilib turgan mavzulardan saqlanish qiyin. Lekin asl iste’dod sohibi har qanday mavzudan yaxshi asar chiqarishi mumkin. Masalan, shubhasizki, san’atkor yozuvchi Toshkent–Termiz temiryo‘li qurilishi tarixidan o‘lmas asar yozishi mumkin. Axir, bu ishning ortida qancha taqdirilar, qancha fidoliklar, qancha qahramonliklar bor, shu bilan birga o‘g‘rilik, nohaqlik, talonchilik va ziddiyatlar ham yo‘q emas.

Xullas, gap faqat mavzuda emas, gap iste’dodda, gap san’atdadir.

HAR BIR QALAMKASHNING QAT’IY IJODIY INTIZOMI BO‘LISHI ZARUR

Har bir ijodkorning xizmat tasarruflari, uy-ro‘zg‘or tashvishlari, do‘st-u yor ziyoratlari kabi hayotiy mashg‘uloti orasida juda qat’iy ijodiy intizomi, uzluksiz mehnat tamoyili bo‘lishi zarur.

Qalamkashning, xoh shoir, xoh yozuvchi bo‘lsin, ijodsiz, izlanishsiz o‘tadigan biror kuni, biror kechasi bo‘lmasligi kerak. Hazrat Navoiy har jihatdan ijod ahlining peshvosi, ustози, o‘rnak-namunasidirlar. Tasavvur qiling, u zot Xuroson davlati idorasida deyarli bosh vazir maqomida xizmat qilganlar, podshoh Husayn Boyqaro safarlarda yurgan chog‘larida davlatni boshqarganlar, tinimsiz, buyuk ixlos va muhabbat bilan xalqning xizmatida bo‘lganlar. Shunga qaramay, to‘xtovsiz ijod qilganlar. Ana shu uzluksiz mehnatlari tufayli jahon adabiyotida misli va naziri yo‘q buyuk

Mirzo KENJABEK

mutafakkir ijodkor bo'lib yetishganlar. Ustoz Abdulla Oripov bekorga yozganmi:

Jahon mehrobida paydo Alisher...

Yoki yana:

*Temur tig'i yetmagan joyni
Qalam bilan oldi Alisher...*

«Ruhning ozuqasi ma'naviyat bozorlaridadir» degan suhbat-maqolamda aytgan ba'zi so'zlarimni shu o'rinda iqtibos qilib keltiraman:

«Shoir Miraziz A'zam: «Ko'p ulug' shoirlar faqat qat'iy intizom bilangina ulug'lik darajasiga yetganlar», deb ta'kidlar edi...

«O'zbekiston adabiyoti va san'ati» tahririyatida xizmat qilganimda obuna ishlari bilan Nukus shahriga safar qilgandim. To'lepbergan Qaipberganovning uyida uning ish intizomidan hayratda qolganman: ertadan kechgacha, o'tirib ham, yotib ham yozaverar edi. Tafakkur qilar edi.

Shukur Xolmirzayevni yozishdan xoli holda topish qiyin edi. U kishi o'zini adabiyot uchun qurbon qilgan shaxs edi. Ma'lum bo'ladiki, so'z san'atining talabi tinimsiz mehnatdir».

*Ko'tarmaydi hargiz she'riyat
Bahonangni, nayranglingni,
Qurbon qilgin to'rt devor ichra
Sen ham go'zal bayramlaringni...*

Ijodkor buyuk kamolot uchun shanba va yakshanbalarini, ya'ni dam olish kunlarini, bayram va ta'tillarini, ko'z nuri va quvvatini qurbon qilishga majbur. Yo'qsa, hech qachon kamolot cho'qqisiga erisha olmaydi.

BUYUK YOZUVCHI LEV TOLSTOYNING HAYOTIY TARTIB-QOIDALARI

Lev Tolstoy 22 yoshida o‘zi uchun hayotiy tartib-qoidalar tuzadi va unga butun umr amal qiladi. Iroda-sabot, faollik, xotira va aqliy qobiliyatni rivojlantiradigan bu yo‘riqlar hammaga, jumladan, yosh ijodkorlarga ulkan foyda berishi aniq.

1. Har qanday jismoniy mashaqqatga chida, qiynalganingni boshqalarga bildirma.

2. Har kun zaifroq biladigan tilingda she‘r yodla.

3. Qo‘lingdagi mulkning o‘ndan birini ehson qil.

4. O‘n barobar boyib ketsang-da, hayot tarzingni o‘zgartirma.

5. Har qanday narsaga har tomonlama nazar sol – foydasini ham, zararini ham ko‘r.

6. O‘zing bilmagan yoki yoqtirmaydigan odamlarning maqtovini olishga urinma.

7. Har tong kunlik reja tuz va uni albatta bajar.

8. Boshqalarning fikrini o‘ylab o‘tirgandan ko‘ra o‘z ustingda ko‘proq ishla.

9. Shuhrat uchun sarf-xarajat qilma.

10. O‘zing uchun iloji boricha ko‘p mashg‘ulot o‘ylab top.

11. Bir o‘zing tugallashing mumkin bo‘lgan ishga yordamchi talab qilma.

12. Hech qachon hissiyotlaringni oshkor qilma.

13. Yaqin kishingni o‘zingday yaxshi ko‘r, ikki yaqin kishingni (ota-onangni) esa o‘zingdan ham ko‘proq yaxshi ko‘r.

14. Iloji boricha kam uxla.

15. Har tun kunduzi o‘rganganlaringni takrorla.

16. Ortiqcha narsangni o'zing uchun emas, jamiyat uchun ishlat.

17. Yaxshilik qilishga imkon izla.

18. Yaxshi bo'l va sening yaxshi ekaningni hech kim bilmasligiga intil.

19. Hammani birday yaxshi ko'r, bu muhabbatdan o'zing ham chetda qolma.

20. Elning muhabbati uchun mayda tuyg'ulardan voz kech.

21. Shart-sharoit qancha yomon bo'lsa, harakatni shuncha kuchaytir.

22. Bor narsalarga qanoat qil.

23. Biror ishni boshlasang, oxiriga yetkazmay tashlab ketma.

24. Yaqinlaringning hayoti shirin bo'lishiga hissa qo'sh. «Xotiralar kitobidan «Mehrob.uz» o'zani.)

Har bir ijodkor o'z vijdonida o'ylab ko'rsin, shu yoshda qaysi birimizda shunday mazmunli va mustahkam ish intizomi bor?

MENDEK MEHNAT QILSA EDI...»

O'tmishda Charlz Darvin degan bir beqadr shaxs «Odam maymundan paydo bo'lgan» degan botil va manfur fikrni aytgan. Holbuki, insoniyat kechmishida Ilohiy jazo o'laroq ba'zi insonlarning maymunga aylangani haqida tarixiy haqiqatlar bor, lekin maymunning insonga aylangani haqida tuban bashariy gumondan o'zga hech qanday asos yo'q. G'afur G'ulom «Sharaf qo'l-yozmasi» she'rida oqilona ishorat bilan bu botil g'oyani rad etadi:

*Qadim o'zbek xalqisan,
Asl Odam avlodi,*

*Misr ehromlaridan
Tarixing qariroqdir.
Xorazmning har g‘ishtida –
Bobolarning ijodi,
Anglo-saksonlardan
Ancha yuqoriroqdir...*

G‘afur G‘ulom bu tagdor so‘zi bilan insoniyatning Odam alayhissalomdan tarqalganiga ishorat qilgan. Sharafli va mukarram zot bo‘lmish odam haqida «maymundan paydo bo‘lgan» degan gapni gapirish naqadar tubanlikdir. Shunga qaramay, o‘tmish siyosiy arboblari-dan biri «Maymunning odamga aylanishida mehnatning o‘rni» degan kitob yozgan. Yozuvchi Abdulla Qahhor ana shu gapga piching bilan ishora qilib: «Mendek mehnat qilsa edi, maymun ham yozuvchi bo‘lib ketar edi!» – degan ekan. Ya‘ni, bu so‘z bilan o‘zining qat‘iy ijodiy intizomini, tinimsiz va beshafqat mehnatini nazarda tutgan.

HASAD-XUSUMATDAN POK BO‘LISH

Hasad bu – ko‘rolmaslik, rashk, qizg‘anish, suq. Ya‘ni, birovga nasib etgan iste‘dodni, yutuqni, ma‘naviy yoki moddiy davlatni, obro‘-e‘tibor yoki izzatni ko‘rolmaslik, o‘sha insonda o‘sha yaxshi ne‘matlarning yo‘q bo‘lishini istash hasaddir.

Qalamkash nurli ijodi – pok va halol mehnati bilan adabiy muhitga kirib kela boshlar ekan, u turli munosabatlarga, qarama-qarshilik, hasad va guruhbozlik kabi holatlarga duch keladi.

Ijodkorning asosiy vazifasi ijodiy yutuqlari yoki iste‘dodi tufayli katta ketmasdan, har qanday sharoitda o‘zini mudom kamtar tutib, go‘zal axloq va odobini

namoyon etmoqdir. Hasadchilarning hasadiga duch kel-
sa yoki o'zida ham boshqa iste'dodli va pokdil ijodkor-
ga nisbatan hasad tuyg'usi paydo bo'lsa, matonat bilan
bu manfur holatdan o'zini qutqarishga harakat qilmog'i
lozim. Hasad ko'p yomonliklar, yo'qotishlar, xiyonatlar
va mahrumliklarning manbayidir.

Hadisi sharifda aytiladi: **«Olov o'tinni yeb tugatga-
nidek, hasad – hasadchining yaxshiliklarini yeb tu-
gatadi»**. Demak, hasad o'z egasini yeb tugatadi. Hasad-
dan ijod ham, san'at ham, ilm-fan ham zarar ko'radi. Le-
kin eng ulkan zararni hasadchining o'zi ko'radi. Chunki
hasadi uning o'zini yeb tugatadi. XX asrning 30-yillar-
idagi qatag'on davrida ba'zi iste'dodli shoir va adiblar
hasad tufayli tuhmatga uchrab, behuda halok bo'lib ket-
ganlar. Afsus! Abdulla Oripov yozadilar:

*Qaylardadir fisq-u fasod, hasad, xusumat,
Insoniyat farzandlarin tortmoqda dorga.*

Ya'ni, qalamkashlarning bir-birlarini «sotish»lariga
hasad ham sabab bo'lgan. Bu so'zni anglash uchun rah-
matli adabiyotshunos olim Sherali Turdiyevning «Tan-
qid dushman izlaganda» turkum maqolalarini topib
o'qish zarur.

BUYUK SHOIRLAR HASADDAN OZOR CHEKKANLAR

Hazrat Alisher Navoiy aytadilar:

*Johilki, hasad bo'lg'ay aning jahlig'a zam,
Nur el ko'zidin anglasa o'z ko'zida kam,
Ko'zlarni olishmoqqa chekib tiyg'i sitam,
El ko'zini ham o'yg'ayu o'z ko'zini ham.*

Ya'ni: «Johilligi va nodonligiga hasad qo'shiladigan johil va nodon kishi o'zining ko'zida odamlarning ko'zidagi nurdan ko'ra kam nur bor, deb bilsa, u ko'zlarini almashtirish uchun jabr va sitam tig'ini ishga soladi. Natijada, odamlarning ko'zini ham o'yadi, o'zining ko'zini ham o'yib, ko'zsiz qoladi».

Ulug' ustozimiz Abdulla Oripov yozadi:

*Idrokim boricha yashadim faqat,
Fahm etdim dunyoni baimkon, qat-qat.
Yolg'iz bir jumboqqa aqlim yetmadi:
Qaydan tug'iladi, bilmadim, hasad.*

Yana ustoz «Tun manzaralari» degan she'rida: «Qushlar uxlaydi, cheksiz koinot mudraydi, «yozuvchilar» uxlaydi, shabnam uxlaydi, hukmdorlar, kapalaklar, shikoyatlar, arzlar, qotillar, chaqaloqlar, raketalar, yiroq dunyolar uxlaydi. Faqat bir narsa uxlamaydi – birgina hasad uxlamaydi», deydi:

*Faqat bitta tuyg'u uxlamas, biroq,
Uning to'shagida mix bor toabad.
Uni qiynab yotar omonsiz so'roq,
Faqat uxlamaydi birgina hasad.*

Yana «Hikmat sadolari» turkumida aytadi:

*Hasadgo'y kimsalar – iblisga hamkor,
Momiqqa cho'zdilar faqat qo'llarin.
Egasin kafanga ayladilar zor,
Do'zaxga burmoqchi bo'ldi yo'llarin...*

Ustoz Abdulla Oripov «Tanlangan asarlar»iga yozgan hasbi holida ham aytadi: «Hasad degan baloning hujumiga juda erta duch keldim. Bularning barchasi satrlarimda qandaydir shaklda aks etgan bo'lsa, ajab emas. Chunonchi, hajviy ruhdagi she'rlar ham qandaydir sun'iy ravishda yaratilgan emas. Ko'p qatori meni ham laqillatgan, aldagan odamlarning son-sanog'i yo'q. Haligiday achchiqroq she'rlarning yozilishiga, albatta, o'shalar sabab bo'lgan».

Sirojiddin Sayyid aytadi:

*Kimlar rasadxona,
Kimlar hasadxona qurmishdir...*

Hazrat Alisher Navoiy aytadilar:

*Riyovu ujbu hasad daf'in et fano bilakim,
Ketar bu doru ila muncha muxtalif amroz.*

Ya'ni: «Riyoni, xo'jako'rsin uchun biror ish qilishni, ujb – manmanlik va xudbinlikni hamda hasadni fano maqomiga erishish bilan, o'zingni dunyoda yo'q sanash bilan daf et. Ko'plab xilma-xil dardlar, xastaliklar ana shu fano dorisi bilan ketadi». Fano maqomiga yetmoq o'z nafsidagi barcha yomon sifatlarni tark etmoqdir.

HASADCHINING NASIBASI

Hamma dushmanliklar, ig‘vo-yu bo‘htonlar avvalo hasaddan tug‘iladi. Yuqorida bu mavzuga to‘xtaldik. Abul-Futuh Ahmad G‘azzoliy hazratlari «Bahrul-mahabba» («Muhabbat dengizi») kitobining «Hasad haqidagi fasl»ida yozadilar:

Hazrati Nabiy sollallohu alayhi va sallam aytdilar: **«Olov o‘tinni yeb bitirgani kabi hasad ham mo‘minning hasanotini yeb bitiradi».**

Hasadchi Allohning rahmatidan uzoqdir. U yaxshiliklardan mahrum holda tong ottiradi va kun bottiradi.

Hasadchi ulug‘ zot bo‘lolmaydi.

Hasadchi inkor qiluvchidir, chunki u yakka Allohning qazoyi qadariga rozi bo‘lmayotir.

Hasadchi mushrikdir, unga mushriklarning gunohi bor, chunki u o‘z Yaratgan Egasining berganiga munkir bo‘layotir.

Hasadchi g‘amgin bo‘lib yashaydi va g‘amgin holda o‘ladi. Hasadchi faqirdir va Allohning nazdida haqirdir – xordir.

Hasadchining alomati ikki narsadir: agar uning oldida bo‘lsang, seni o‘zingga maqtaydi, agar yo‘q bo‘lsang, seni g‘iybat qiladi.

Hasadchi jannatning hidini ham hidlamaydi.

Hasadchi kufroni ne‘mat qiluvchidir va qiyomat kuni kechirilmaydigan shaxsdir.

GURUHBOZLIK VA MAHALLIYCHILIKDAN UZOQ BO'LISH

Guruhbozlik va mahalliychilik insonni nohaqlik va adolatsizlikka sudrashi mumkin. Guruhbozlik aslida «olomonchilik»ning bir ko'rinishidir. To'g'ri, har bir ijodkorning o'z samimiy suhbatdoshlari, davrasi, ko'ngil tortar do'stlari bo'ladi. Bu tabiiy hol. Lekin insonlar yomonlikda va nohaqlikda birlashsalar, gunoh, adolatsizlik, tubanlik va egri ishlarda hamkorlik qilsalar, bundan adabiyotga, jamiyatga, xalq va millatga ulkan zarar yetadi.

Undan ko'ra xayrli ishlarda musobaqa qilmoq kerak! Yaxshi va savob ishlarda hamkorlik qilgan avlodir! Nurli va haq so'z, kuchli ijtimoy faoliyat bilan xalq, millat va insoniyat manfaati yo'lida xizmat qilmoq lozim! Biror-bir qavmni, jamoani yoki shaxsni yomon ko'rishi insonni adolatsizlik qilishga tortmasin!

Hayotda ba'zan biror narsa xususida guruh-guruhlariga bo'linib, talashib-tortishish yoki kurashish bor. Teran tafakkur qiling-chi, kurashayotgan narsangiz haqiqat va adolat yo'limi? O'sha narsa vaqtni va kuchni sarflashga arziydimi? Aks holda, guruhlariga, tafriqalariga bo'linish xalqni, jamiyatni, insoniyatni hech qachon yaxshilikka olib kelmaydi.

Ijod olamida har bir iste'dodli shaxs mustaqil Shaxsdir. Iste'dod esa xalqning mulkidir. Bas, ijodkor o'z shaxsini mayda, tuban va behuda narsalarga qurbon qilmasin!

SHON-SHUHRAT VA TAMAGA BERILMASLIK

Adabiyot, ayniqsa, she’riyat shunday narsaki, xohlasangiz ham, xohlamasangiz ham, shuhrat qozonishga sabab bo’laveradi. Lekin ijodkor shuhratning ketidan quvib, yengil-yelpi mavzularga berilsa, xalqqa, adabiyotga, xususan, o’z-o’ziga katta zarar yetkazadi. «Shuhrat – ofat» degan so’z bekorga aytilmagan. Bu so’zni Shoh Bahouddin Naqshband hazratlari aytganlar. Eng muhimi, ijodkor asl iste’dod va asl ijoddan kelgan shuhratga kibr qilmasligi kerak. Haqiqiy asarga faqat ijodkor yashayotgan davr emas, balki kelajak davrlar haqqoniy bahoni beradi. Shunday qalamkashlar borki, o’zi o’lmay turib, so’zi o’ladi. Adabiy muhitda va xalq orasida borligi yoki yo’qligi ma’lum bo’lmay qoladi.

Ijodkor ba’zi dolzarb zamonaviy mavzularga berilsa, beixtiyor tamaga beriladi, tamaga berilsa, o’tkinchi dolzarb mavzularga beriladi. Dolzarb mavzu deganda xalq, millat, vatan taqdiriga oid muhim va abadiy mavzularni emas, balki soxta mafkurani olqishlaydigan, o’tkinchi va arzimas voqelikni ulug’laydigan, mavqeli shaxslarni ko’pirib maqtaydigan mavzularni nazarda tutyapman.

Tamaga berilgan ijodkorning ma’naviy muvozanati buziladi, vijdonida ixtilof paydo bo’ladi. Vijdonga, haqiqatga, umuminsoniy tamoyillarga xilof narsalarni yoza boshlaydi. Shunday qilib, adabiyotning va qalamkashning obro’yini tushiradi, so’z san’atining saviyasiga putur yetkazadi. Haqiqiy ijodkor faqat nimani yozishni emas, balki nimani yozmaslikni ham bilishi kerak.

Haqiqiy qalamkash faqat qanday yozishni emas, balki qanday yozmaslikni ham bilishi kerak.

UMRINI IG'VOGARLIK VA TUHMATCHILIK BILAN O'TKAZAYOTGANLAR

Poytaxt adabiy muhitida shunday kishilarni uchratdimki, ular umrini ig'vogarlik va tuhmatchilik bilan o'tkazishni odat qilganlar. Buzuq ayol ilk qilmishidan xijolat chekib, keyin o'z buzuvchiligiga ko'nikib qolganidek, bu ig'vogar shaxslar ham o'z fe'llariga ko'nikib ketishgan. Or yo'q, uyat yo'q. Ularga Yaratganning O'zi kifoya qilmasa, oqil odam aslo ular bilan tenglashmaydi. Ular mudhish qatag'on yillarini eslatib, siyosiy ayb qo'yishga ham usta!

Faqih Abul-Lays Samarqandiy hazratlarining ko'plab so'zlari hikmat tusini olgan. Chunonchi, «Bo'ston ul-orifiyn» asarining 31-bobida ushbu quyma hikmatlar tortiq qilingan:

«Yaxshilikdan oldin yaxshilik qilish – fazilat.

Yaxshilikdan keyin yaxshilik qilish – mukofotlash.

Yomonlikdan keyin yaxshilik qilish – oliyjanoblik.

Yomonlikdan oldin yomonlik qilish – jabr-zulm, nohaqlik.

Yomonlikdan keyin yomonlik qilish – tenglashish.

Yaxshilikdan keyin yomonlik qilish tubanlik va badbaxtlikdir».

VATAN TARIXINI O‘RGANISH

Ijodkor uchun faqat bolalik xotiralari yoki mahdud tuyg‘ulari yetarli mavzu bera olmaydi. Ijodkor asl vatan farzandi bo‘lishi, xalqini buyuk g‘oyalar bilan ta‘minlashi, insonlarga yuksak fazilatlardan saboq berishi uchun o‘z vatani, o‘z xalqi tarixini o‘rganishi zarur. Tarix cheksiz mavzular manbayidir. Tarix abadiy ibrat maktabidir. Lekin unutmash kerakki, qalamkash har qanday tarixiy asari bilan zamon ahliga o‘z dolzarb-zamonaviy so‘zini aytadi. Tarixiy asar – bu muzey jihozlari emas. Muzeyda ko‘pincha bugungi davrda iste’moldan qolgan ashyolar jamlanadi. Lekin o‘sha tarixiy ashyolar zamon ahliga nimalarnidir so‘zlaydi, nimalarnidir gapiradi.

Tarixiy asar esa, xoh nasr, xoh doston, xoh she‘r bo‘lsin, u davr aholisiga ijodkorning aytayotgan yangi so‘zi, zamonaviy xitobi, dolzarb dardidir.

Ana shunday keng imkoniyatga ega bo‘lishi, keng mavzularni qamrashi, xalqqa haqqoniyat so‘zini aytishi uchun ijod ahli o‘z xalqi, o‘z vatani tarixini bilishi shart.

O‘z vatanining sharaflari va sharafsiz davrlarini bilish va anglash shoir va yozuvchiga ulkan g‘oya va keng mavzular beradi.

Ulug‘ muarrix olim – marhum Hamid Ziyoyevning 14 jildlik Vatan tarixi asarlarini o‘qimay turib, buyuk Vatan tarixi, mehri va g‘oyasini qalbga joylashtirish imkonsizdir. «Turkiston Rossiya va Chin oralig‘ida» degan asar bor. Undan Sharqiy Turkiston, G‘arbiy Turkiston tarixini bilish, ko‘hna Xuroson tarixini o‘rganish orqali Janubiy Turkiston tarixini bilib olish mumkin bo‘ladi. Bo‘riboy Ahmedovning tarixiy asarlarini o‘qimay

turib, vatanparvarlik g'oyasiga ega bo'lish maholdir. Alixonto'ra Sog'uniyning «Turkiston qayg'usi» asarini o'qimasdan turib, ijodkor sog'lom tarixiy haqiqatlarga sohib bo'la olmaydi. Muhammad Solihxo'janing «Ta'rixii jadidai Toshkand» («Toshkentning yangi tarixi») asarini o'qimay turib, yangi bosqinchilik davrining mudhish yovuzliklaridan xabardor bo'la olmaysiz.

*So'ylasin Afrosiyobu
So'ylasin O'rxun xati,
Ko'hna tarix shodasida
Bitta marjon, o'zbekim.
Qaysari Rum nayzasidan
Bag'rida dog' uzra dog',
Chingiz-u Botu tig'iga
Ko'ksi qalqon, o'zbekim.
Tuzdi-yu Mirzo Ulug'bek
Ko'ragoniy jadvalin,
Sirli osmon toqiga ilk –
Qo'ydi narvon o'zbekim.*

Bu satrlarni bitish uchun qancha tarixiy haqiqatlardan xabardor bo'lish kerak!

Sarbast she'riyatning ilk asl namunalari «Oltin yoruq», «Dulbarjin», «Xo'bi bitik», «O'rxun-Enasoy bitig'larida mavjud edi.

Mirkarim Osim va Oybekning tarixiy asarlari, Odil Yoqubovning «Ulug'bek xazinasi», «Ko'hna dunyo» asarlari, Pirimqul Qodirovning Bobur va Boburiylar haqidagi turkum kitoblari faqatgina vatan tarixini bilishning mahsuli emas, balki vatanni sevishning, millat muhabbatining mahsuli hamdir.

IJODKORNING SO‘Z BOYLIGI

Asl iste’dod egasi o‘z asarlarida har bir qalamkash ishlatishi mumkin bo‘lgan so‘zlarni aylantirib yuravermasligi kerak. Bunday so‘zlarni «navbatchi» so‘zlar dey-miz. Ya’ni, bular navbati bilan har bir qalamkashning ijodida kezib yuradigan so‘zlardir. Ijodkor so‘z boyligi-ga juda diqqat qilishi lozim. Shoir har bir she’rida, nosir har bir hikoya, qissa yoki romanida boshqalar ishlatma-gan ko‘plab so‘zlarni ishlatishni bilishi darkor. Buning uchun qalamkash tarixni bilishi, xalq og‘zaki ijodi na-munalaridan unumli foydalanishi, ma’rifiy adabiyot va mumtoz she’riyat so‘z xazinalaridan zarur miqdorda istifoda etishi lozim. Mumtoz she’riyatni, jahon adabi-yotini, tasavvuf manbalarini o‘qimaydigan yoki kam o‘qiydigan ijodkorning so‘z g‘aznasi g‘arib bo‘ladi. Ada-biyot so‘zga jon bag‘ishlamoqdir.

Har bir qalam sohibining o‘z ovozi – o‘zi, so‘zlar-dan foydalanish uslubi, muxtasar aytganda ijodiy tili belgilaydi. Deylik, biror shoir yoki nosirning asaridan parcha o‘qiganimizda asar sohibini bilmasak ham, uning bizga tanish ovozi, qalami allaqachon ochgan yo‘lini taniymiz va muallifning kimligini bilib olamiz. Bunday muvaffaqiyatga erishgan ijodkorning o‘zi ham, so‘zi ham o‘ziga xos va o‘lmas bo‘ladi. Zero, o‘zbek tilidagi hamma ishlatgan so‘zlarni ishlatganda ham asl ijodkor o‘z ovozi yarata oladi.

«YIG'LAMOQ»NING YETTI XIL SHAKLI...

Hazrat Navoiy «Muhokamat ul-lug'atayn» («Ikki til muhokamasi») asarida: «She'rning binosi – imorati va madori, ya'ni tayanchi ishqqa (ishqi Ilohiyga) bog'lanadi, oshiqlikda esa yig'lamoqdan ko'ra umumiyroq va doimiyroq ish yo'qdir va unda tanavvu' – xilma-xillik, navlarga bo'linish bor», deydilar va «yig'lamoq»ning yetti xil shaklini tizib keltiradilar:

1. «Yig'lamoq» – umumiy, qamrovchi ifoda.
2. «Yig'lamsinmoq» – ko'zga yosh kelmay yig'lamoq.
3. «Ingramoq» – dard bilan yashirin, ohista yig'lamoq.
4. «Singramoq» – bu ham dard-alam bilan yashirin yig'lamoqdir, ikkisining orasida tafovut ozdir.
5. «Siqtamoq» – yig'lashda mubolag'a qilmoqdir.
6. «O'kurmoq» – baland tovush bilan, e'tidolsiz, ya'ni haddan ortiq yig'lash.
7. «Inchkirmak» – «o'kurmoq»ning muqobilidagi bir yig'i bo'lib, inja tovush bilan yig'lamoqdir.

Alisher Navoiy bu so'zlarning har biriga turkiy baytlarni misol keltiradilar. Bugungi kunda bu so'zlarning qaysi biridan voqifmiz?

Qiziq bir ma'lumot. Ko'pgina adabiy so'z va atamalar qatori «Abu» so'zi o'zbek adabiy tilida IX–X asrlardan boshlab turkiy so'z va atamalar bilan yonma-yon, gohu ularning o'rnida qo'llanila boshlagan. Masalan, hazrati Alisher Navoiy quyidagi she'riy baytida «bobo» so'zi o'rnida arabcha «jadd» so'zini va «ota» so'zi o'rnida «ab» so'zini qo'llaganlar hamda ajib bir so'z o'yini, favqulodda bir so'z san'atini vujudga keltirganlar:

*Degach abjad, boshig‘a uyrulurlar –
Qamar birla quyosh, ya‘ni jadu ab.*

Qarangki, buyuk shoir «abjad» so‘zini ikkiga bo‘lib, undan «jad» va «ab», ya‘ni «bobo» va «ota» so‘zlarini chiqarganlar.

NAVOIYNING SO‘Z XAZINASI

Hazrat Navoiyning o‘n besh jildlik asarlar to‘plamiga ilova sifatida nashr etilgan «Navoiy asarlari lug‘ati»dan o‘n ikki ming besh yuzga yaqin so‘z va sakkiz mingdan ortiq iboralar o‘rin olgan. Demak, lug‘atda jami yigirma ming besh yuzdan ortiq so‘z va iboralar jamlangan. Mazkur qomus ham to‘rt jildlik «Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati»da yig‘ilgan so‘z va iboralar har kim ham tushuna olmaydigan, xususan, xalq ommasi anglashi qiyin bo‘lgan so‘z va iboralardan iboratdir. Lekin eng ajib ma‘lumot shuki, 1939-yilda Moskva shahrida Navoiy taval-ludining 500 yillik anjumaniga hozirlik ishlari boshlangan va Toshkentda Til va adabiyot instituti Navoiy asarlarining mukammal lug‘atini tuzish uchun maxsus hay‘at tashkil etgan. Ikkinchi jahon urushi yillarida (ya‘ni, shu bahona bilan) jamoa tarqatib yuborilib, ish to‘xtab qolgan. Lekin bu hay‘at Navoiy asarlaridan 200 000 (ikkni yuz ming)ga yaqin so‘z va shu so‘zlar ishlatilgan matnlarni yig‘ib chiqqan.

Alisher Navoiy so‘z xazinalarini yig‘ishda Toli‘ Imoniy Hiraviyning XV asr oxirlarida tuzilgan «Ba-

doi'ul-lug'ati, XVI asrda Turkiyada tuzilgan «**Abushqa**» asari, XVIII asrda Mirzo Mehdixon tomonidan tuzilgan «**Sanglox**» lug'atlaridan istifoda etilgan. Lug'at – davr ko'zgusi, qalb boyligi, millatning javohirlar xazinasidir. Mumtoz shoirlar asarlarining lug'ati hozirgi zamon lug'atlarimizga kirsam, ijod ahlining imkonlari yanada kengayadi.

INSONIYAT TARIXINI O'RGANISH ZARUR

Mening yosh, sevimli do'stlarim bilsinlarki, «ijodkor» deganda kamina asl iste'dod sohiblarini nazarda tutmoqdaman. Haqiqiy iste'dod egasi tafakkur va tushunchada mahdud shaxs bo'lmashligi kerak. Haqiqiy ijodkor koinotning yaralishi va Abul-bashar, ya'ni bashariyatning otasi bo'lmish Odam alayhissalomning yaralishidan boshlab, insoniyat tarixini, madaniyatlar, adabiyotlar, dinlar va tillar tarixini yaxshi o'rganishi zarur. Bu bilimi qalamkashni keng tafakkur yuritishga, mavzu qamrovining keng bo'lishiga imkon paydo qiladi.

Tasavvur qiling, agar buyuk olmon shoiri va adibi Yohan Volfgang Gyote Qur'onni, hazrati Payg'ambarimiz alayhissalom hayotlarini va sharq madaniyatini o'rganmaganda edi, necha-necha ma'rifiy turkumlarini, xususan, «G'arb-u Sharq devoni»ni yoza olmagan bo'lar edi. Holbuki, bu asari Gyoteni jahon minbariga olib chiqqan o'lmas asardir. Agar buyuk rus shoiri Aleksandr Pushkin farang tilida bo'lsa ham Qur'oni karim ma'nolari tarjimasini o'qimaganda edi, «Подражания Корану»

(«Qur’on ilhomlari») turkumini yozmagan bo’lar edi. Holbuki, bu turkum Pushkin ijodining gultojidir.

Hazrat Navoiy «Tarixi anbiyo va hukamo» («Payg’ambarlar va hakim zotlar tarixi») asarida turkiy xalqlarning Nuh alayhissalomning o’g’li Yofas payg’ambar alayhissalomdan tarqaganini aytadilar va u zotni Abuturk (Turkiy xalqlarning otasi) deb ataydilar.

Bu so’zimning qisqa izohi shuki, insoniyat tarixi payg’ambarlar va dinlar tarixi bilan chambarchas bog’liqdir. Takror aytaman, dunyodagi biror qavmni yomon ko’rishi insonni, ijodkorni adolatsizlik qilishga undamasligi kerak. Qalb adolati, keng bilimi, bag’rikengligi, insonsevarligi, shubhasiz, ijodkorni juda yuksak cho’qqilarga olib chiqadi.

Tarix boshdan-oxir ibratdir. Lekin undan haqqoniy ibrat oluvchi bormi?

JAHON SIYOSATINI BILISH ZARUR

Jahon siyosatini bilmagan ijodkor do’st kim, dushman kim – bila olmaydi. O’z vatani, o’z xalqi, o’z millatining haqiqiy do’sti kim, ashaddiy dushmani kim – buni bilish uchun dunyo siyosatini bilish zarur. Dunyo siyosiy xaritalari qanday chizilgan, unda insonparvar, tinchliksevar mamlakatlarni bir-biriga bog’lab turadigan quruqlik yo’llari ko’rsatilganmi? – Buni anglamagan ijodkorning qalb ko’zi bog’liqdir.

Har bir jabhada sizga o’rgatilmaydigan, har bir tafakkurli qalamkash o’z farosati, o’z zakovati bilan bilib olishi zarur bo’lgan haqiqatlar bor. Qalamning qog’oz usti-

da to'g'ri yurishi, ijodkor o'z vijdoniga muvofiq yashashi uchun jahon siyosatini asl haqiqatlari bilan bilish zarur. Zero, ushbu mudom harakatda bo'lgan jahon siyosati ummonida qalam tutgan har bir zot ziyrak kemachidek sergak bo'lishi lozimdir.

MUMTOZ ADABIYOTNI KO'P O'QISH VA ANGLASH ZARUR

Mumtoz adabiyotni o'qib o'rganishda qalam ahli uchun ulkan foyda va istiqbollar bor. Mumtoz she'riyat ikki qismdan: majoz va haqiqat tariqidan iborat. Majoz tariqida so'z, istiloh va iboralar ko'chma ma'noda ishlatiladi. Haqiqat tariqida esa hamma narsa o'z haqiqiy nomi bilan yuritiladi.

Yaqin-yaqingacha Navoiyning besh dostonidan iborat «Xamsa» asarini o'qimagan kishi tasavvuf arboblarning davrasida o'tira olgan emas. Hazrati Muhammad Fuzuliy, hazrati Maxtumlili, u zotning otalari Davlat Muhammad Ozodiy, Muhammad Rizo Ogahiy, Boborahim Mashrab – hammalari Navoiyning ijod dengizidan bahramand bo'lgan zotlardir. Ogahiy yozadilar:

*Ogahiy, kim topg'ay erdi sozu nazmingdin navo,
Bahra gar yo'qtur Navoiyning navosidin sango!*

Bugungi kunga kelib, Navoiydan, Fuzuliydan, Hofiz Xorazmiydan, Mashrabdan, Ogahiydan uzoqlashgan bir qavm paydo bo'ldi.

Mumtoz adabiyotni ko‘p o‘qish va ko‘p bilishda quyi-dagi foydalar mavjud:

1. Mumtoz she‘riyatni o‘qigan kishi, shubhasiz, ma‘rifat hosil qiladi, dunyoqarashi, tushunchasi keng va sog‘lom bo‘ladi. Tasavvuf sirlaridan xabardor bo‘ladi.

2. So‘z boyligi ortadi, lug‘at xazinasini kengayadi, ijodining teran ma‘nolar kasb etishiga zamin hozirlanadi.

3. She‘riy san‘at turlaridan, xususan, aruz ohanglaridan bahramand va ogoh bo‘ladi. Haqqoniy so‘z san‘atini his etib yashaydi.

4. O‘tkinchi narsalardan, soxta mafkuralardan uzoq bo‘ladi. Abadiy mavzularda qalam tebratish imkonini qo‘lga kiritadi.

5. Insonlarga eslatma bo‘ladigan hikmatli so‘z aytish san‘atini o‘rganadi.

6. Qalbi haqiqat nuri bilan jilolanadi, haq so‘zni go‘zal uslub bilan aytish qobiliyati tarbiyat topadi.

7. Ruhida o‘xshashi yo‘q ko‘tarinkilik paydo bo‘ladi. Ruhlanadi va qo‘liga qalam oladi.

Bir vaqtlar kitob chiqarish degani har bir ijodkor uchun eng ulkan orzu, eng sharaflı ne‘mat hisoblanar edi. Endi maktabda o‘qiydigan yigit-qizlarning ham kitobi nashr etiladigan, she‘rlari gazetalarda bemalol chop qilinadigan bo‘lib qoldi. Bu hol ularni yuzaki tafakkur va yuzaki mavzularga o‘rgatyapti. Eng yomoni, ba‘zi yoshlar yosh paytidan tamaga giriftor bo‘lyapti. Holbuki, kitobi chop bo‘lgani bilan bir inson shoir yoki yozuvchi bo‘lib qolmaydi. Haqiqiy qalamkash yillar chig‘irig‘idan salomat o‘tgan qalamkashdir. Bu kabi ko‘ngilsiz holatlarning oldini vaqtida olmoq uchun ham mumtoz adabiyot mutolaasining ahamiyati beqiyosdir.

JAHON ADABIYOTINI KO'P O'QISH VA O'RGANISH ZARUR

Bu gapni ijodga aloqasi bo'lgan har kim aytishi mumkin: «Jahon adabiyotini o'qing!» «Jahon adabiyotini ko'p o'qing!» – juda jo'n va oddiy gap bu. Lekin hayotimizda bu jo'n gapning tatbiqoti qanday? Bu gapga amal qilyapmizmi yoki o'z mahdud hayotimiz bilan masrur bo'lib yuribmizmi? Tilla baliqchaga o'xshab, dunyoni bir ko'lmak hovuzdan iborat deb bilyapmizmi? Ustoz Abdulla Oripov yozgan edi:

*Dunyoda ko'rgani shu tor hovuzcha
Va gavjum tollarning achchiq xazoni.
Menga alam qilar, tilla baliqcha
Bir ko'lmak hovuz deb bilar dunyoni!..*

Qarang, o'zi tilla baliqcha bo'lsa-yu, dunyoni bir ko'lmak hovuz deb bilsa! Iste'dodi tilladek qimmatli bo'la turib, dunyoqarashi mahdud bo'lgan shaxs o'sha tilla baliqchaga o'xshashdir.

Jahon adabiyotidan xabardor kishi o'z maskanida turib, butun dunyoni kezib yurgan kishi kabidir.

Jahon adabiyotini o'qiydigan qalamkash o'z ijod mezonini yuksak tarzda belgilaydi, kuy pardasini yuqori oladi, darajani baland tutadi; majozan aytganda, osil-sa – baland dorga osiladi! Natijada, mahdud narsalarni yozishdan tiyiladi.

«XALQNI O‘Z O‘LCHOVING BILAN O‘LCHAMA...»

Adabiyotning mistoqi (obyekti) insondir! Yer yuzida qancha insonlar, qancha xalqlar, qancha millatlar, el va elatlar bor! Har bir millatning o‘z yashash tarzi, o‘z tafakkur ravishi, o‘z zohir va botin olami bor! Adabiyot insoniyat qalbining xazinasi, bashariyat ruhining manzarasidir. Adabiyot tanishuv va do‘stlashuv manbayidir!

Lekin o‘qishda ham o‘qish bor. Tanlab o‘qishni bilish kerak. Tarjima qilganda ham o‘z milliy ruhiga tayanib, tanlab tarjima qilish kerak. Inson axloqini buzadigan, shahvatga, buzuqlikka, behayolikka asoslangan adabiyot aslo adabiyot emas!

Agar kishi asl nusxa tilini yaxshi bilsa, o‘sha tilda, deylik, ingliz, rus, nemis, yapon, xitoy tilida o‘qigani yaxshi. Agar til bilmasa, o‘z ona tilimizga tarjima qilingan mumtoz asarlarni tanlab o‘qiganimiz yaxshi.

Fariduddin Attor «Tazkirat ul-avliyo» nomli benazir asarida Shayx Abu Ali Daqqoq rahmatullohi alayhning ushbu so‘zlarini keltiradilar: «Xalqni o‘z o‘lchoving bilan o‘lchama, ammo o‘zingni eranlar – ulug‘ avliyolar o‘lchovi bilan o‘lchab, tekshir; toki ularning fazli-yu o‘zingning tubanligingni bilgaysan!»

«LAHVAL-HADIS»NING ZAMONAVIY TA’VILI

O’rni kelganda, maqsadni ochiqlash uchun oyati karimalar va hadisi shariflarning ma’nolaridan ham foydalanamiz. Qur’oni karimda bevosita adabiyotga tegishli ulug’ bir oyati karima bor. Unda «lahval-hadis»ni, ya’ni behuda, puch so’zni sotib oluvchilarning oqibati bildiriladi.

Luqmon surasi, 6-oyat ma’nosi: **«Shunday insonlar ham borki, (din haqida) biror bilimi bo’lmay turib (odamlarni) Allohning yo’lidan ozdirish va uni (u yo’lni) masxara qilish uchun behuda so’zlarni sotib olur (va o’qir yoki eshitib, tomosha qilur). Ana o’shalar uchun xorlovchi azob bordir».**

«Fayzul-Furqon» kitobida bu o’rindagi **«lahval-hadis»**, ya’ni **«behuda so’z»** – «iymon va diyonatga zid bo’lgan, shahvatga undaydigan tarzda yozilgan yoki o’qiladigan roman, qissa, hikoya, qo’shiq, she’r, doston kabi narsalardir» deb ta’vil qilingan.

Biz – Imom Moturidiy, Imom Buxoriy, Shoh Bahouddin Naqshband, Abul-Lays Samarqandiy kabi ulug’ zotlarning ma’naviy vorislari va avlodlari bo’lgan insonlar adabiyotda, so’z san’atida behuda so’zdan saqlansak, bu ishimiz o’z buyuk ajdodlarimizga bo’lgan hurmat va muhabbatimiz ifodasi bo’ladi. Asarlarimiz ham uzoq umrli asarlar bo’ladi.

NOMUS VA IFFAT FOJIASI

Nomus masalasi bizning milliy masalamizdir. Nomus masalasi qadimiy sharq xalqlarida jon masalasi kabi muhim sanalgan. Bizning xalqimizda nomusni boy berish o‘lim bilan barobar bo‘lgan.

«O‘tgan kunlar», «Kecha va kunduz» romanlari yozilganiga qariyb bir asr bo‘lyapti. Ikki asarda ham nomus, hayo, ibo, vafo kabi olamshumul va milliy tuyg‘ular ta‘limini topish mumkin. Lekin salkam yuz yillik «zamonaviy» o‘zbek adabiyotida qiz bolaning nomusi masalasi alohida mavzu qilib ko‘tarilgan emas.

Hayot va o‘lim kabi muhim hisoblangan bu mavzu kolumbiyalik ulug‘ adib Gabriel Garsia Markesning «Oshkora qotillik qissasi» asarida qalamga olingan. Bu qadimiy mavzu o‘z zamonaviyligi bilan adabiyotni boyitdi.

Bir dengiz o‘z ichki to‘lqinlari, o‘z maxluqot olami, o‘z shafqat va vahshiyliklariga ega bo‘lganidek, bu mo‘jaz qissa ham nomus masalasidan boshqa ma‘naviy-fojiaviy mavzularga ega. Yepiskopga bo‘lgan munosabatlarda tagidan yemirilib, xarob bo‘lgan nasroniylikning musibatları yashirilgan. Ammo bosh mavzu – **qiz chiqmay, to‘yning birinchi kechasidayoq onasining uyiga qaytarib eltib tashlangan kelin** va oriyat tufayli juvonning egizak akalari sodir qilgan qotillik masalasidir. Sharmandayi sharmisor bo‘lgan kelinning onasi – hayot va o‘lim orasida iztirobli umr kechirgan bir sho‘rlik.

Mahkamada qayd etilgan umidvorlik so‘zlari: **«Qotillik inson sha’nini himoya qilish uchun ro‘y bergan».**

«Bu iffat-u nomus masalasi, unga aloqasi yo‘qlarning aralashuvi nojoiz»...

Ikki qassob yigitning ko‘nglida o‘z qotilliklari biror zarra pushaymonlik va nadomat uyg‘otmaydi: «Javobgar aka-ukalar mahkamadagi so‘nggi so‘zlarida, agarda nomuslari toptalib, yana ming marta shunday vaziyat tug‘ilsa, yana ming marta shu ishlarini (qotillikni) takror qilajaklarini» aytishadi.

Hibsxonada ham... **«hech kim ularning pushaymon chekkanini yo tavba qilganini sezmedi».**

DENGIZLAR ORTIDA YASHAGAN ADIB...

Gabriel Garsia Markes – dengizlar ortida yashagan bir adib. Nomus mavzuyi, ayniqsa, bizning sharq va o‘zbek adabiyotimiz mavzuyi edi-ku! Nomus masalasi aslida fitrati buzilmagan holatdagi butun dunyo xalqlariga xos masaladir. Ammo ko‘p ellar bu insoniy xislatga loqayd bo‘lib ketayotgani hammaga ma‘lum. Menimcha, yozuvchi nomus mavzuyini asarda zikr qilingan arablar va yuz yillar davomida ularning ta‘sirida yashagan ispanlar hayotidan o‘rgangan.

Dunyoning har yerida fahsh va razolat oddiy ishga aylanib qolgan, fohishalar bozori poytaxt markazlarigacha ishg‘ol etgan, pinhona «nomus yamoqchiligi» bilan shug‘ullanadigan «pardoz va go‘zallik salon»lari yashab turgan, «Nochnoy bar»lar niqobidagi islovotxonalar tobora ko‘payib borayotgan, kollejlarda nomus buzilishi me‘yordan oshgan, millat axloqini buzish, xalqning ma‘naviyatini xarob qilish, odamlarni din-u diyonatdan

ayirish «uchinchi qo‘llar» tarafidan rejali sur‘atda olib borilayotgan bugungi kunda nomus masalasi eng dolzarb hayotiy masaladir.

Ko‘p takrorlaydigan so‘zimiz: **«Insonni buzuqlikka, yomonlikka, shahvatga, razolatga, yovuzlikka undaydigan adabiyot aslo adabiyot emas»**. Bu uslub insonlarga ermak uchun, ularni chalgitish yoki e’tiborini jalb etish uchun yoxud odamlarning tuyg‘ularini buzish uchun qo‘llanib kelingan. Menimcha, Mopassan asarlari har qancha «burjua axloqini fosh etgan» deb talqin qilinmasin, dunyodagi odamlar undan buzuqlikdan boshqa narsani o‘rganmaydi. G‘afur G‘ulom:

*«Javonda Mopassan tomi yo‘qolsa,
Bilib bilmaslikka olishim mumkin...»*

– deya bekorga yozmagan.

«Oshkora qotillik qissasi»ni shoir Tohir Qahhor mahorat bilan tilimizga tarjima qilgan. Kamina bu qissani bir vaqtlar «Латинская Америка» jurnalida («История одной смерти, о которой знали за ранее» degan uzunroq nom bilan) va yana mashhur «Новый мир» yoki «Дружба народов» jurnalida («История объявленной смерти» degan qisqaroq nom bilan) o‘qiganman. Agar Gabriel Garsia Markes mazkur asarni o‘zbek tilida yozsa edi, bundan ortiq qilib yoza olmas edi.

TARJIMA SAN'ATINING GO'ZAL SIRLARI

Tarjima – har bir mutarjim uchun mustaqil ijod turidir. U begona bir shoirning fikr va tuyg'ularini o'zinikidek o'z xalqiga taqdim etadi. She'riy tarjimada asl nusxa mazmunini saqlagan holda asarning ruhini berish muhim bo'lsa, nasriy tarjimada asarning mazmunini ham, ruhini ham saqlash zarurdir.

Hadisshunoslik ilmida bir qoida bor: jahon olimlari tomonidan hadisning ma'nosini saqlash muhimligi qabul qilingan. Bunga sabab shuki, bir muborak hadisni bir nechta roviy bayon qilgan bo'lishi mumkin. Ba'zan roviylar bayonidagi so'zlarda farqlar uchrab qoladi. Shuning uchun olimlar: «So'zni saqlash muhimmi yoki ma'nonimi?» – degan savolga javoban: «Bayonda ma'noni saqlash muhim», degan to'xtamga kelganlar.

Ana shu qoida adabiy tarjimaga ham tegishlidir.

UCH ULUG' ZOTNING TARJIMA MAKTABI

Turkiy-o'zbek adabiyotida chinakam tarjima maktabini barpo qilgan uch ulug' zot bor: Muhammad Rizo Ogahiy, Usmon Nosir, Erkin Vohidov.

Ayniqsa, hazrati Ogahiy asl san'atkor tarjimonlarning sardori, ulug' ma'rifat karvonining sarbonidirlar! O'z zamonasining Malikul-kalomi – So'z sultoni bo'lgan Mavlono Lutfiy atoqli muarrix Sharafiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma» asarini forsiydan turkiyga o'n ming

bayt bilan nazmiy tarjima qilganlar. Lekin hazrat Navoiy aytganlaridek, «Bayoz»ga, ya’ni oqqa ko‘chirib kitob qilmaganlari uchun xalqning e’tiboriga tushmay qolgan. Bu haqda hazrat Navoiy «Majolis un-nafois» asarida xabar berganlar.

Hazrati Muhammad Rizo Ogahiy – Sharq olami-ning yigirmadan ortiq she’riy va nasriy asarlarini, jumladan, Mavlono Abdurahmon Jomiyning «Bahoriston», «Yusuf va Zulayho», «Salomon va Absol», Zaynuddin Vosifiyning «Badoe’ ul-vaqoe’» asarlarini turkiy-o‘zbek tiliga o‘girib, tengsiz tarjima maktabini barpo etdilar. U zot hazrat Navoiydan keyin eng ko‘p va xo‘b ma’naviy meros qoldirgan adib sifatida tarixda qoldilar.

Usmon Nosir – Aleksandr Pushkinning «Bog‘chasaroy fontani», Yuriy Lermontovning «Demon» asarlari tarjimasi bilan o‘z benazir maktabini barpo qildi.

Erkin Vohidov esa – Gyotening «Faust» asari, Sergey Yesenin, Aleksandr Blok, Mixail Svetlov she’riyatidan qilgan nodir tarjimalari bilan, shubhasiz, yangi tarjima maktabini bunyod etdi.

Bas, mazkur zotlarning, jumladan, Usmon Nosirning mutarjimlik san’ati ham adabiyot olamida ochib berilmog‘i kerak. Chunki Usmon Nosirning tarjimonlik san’ati mutaxassislar tomonidan yetarli baholangan emas. Bu alohida o‘rganiladigan mavzudir. U yangi davr o‘zbek she’riyatida benazir tarjima maktabini barpo qilgan zotdir. Usmon Nosir – Pushkin va Lermontovdek buyuk shoirlarni o‘zbekcha kuylatgan shoir! Agar ular «Bog‘chasaroy fontani» bilan «Demon»ni o‘zbekcha yozsalar edi, ana shu tarjimadagidek yozar edilar. Pushkinning «Bog‘chasaroy fontani»dan:

*Qovoq solib o'ltirar Garoy,
Lablarida qahrabo chilim.
Dahshatli xon atrofida jim
Bosh egib, tek turardi saroy.*

Lermontovning «Demon» dostonidan:

*Quvg'indi ruh, qayg'uli Demon
Gunohkor yer uzra uchardi.
Mas'ud kunlar xayoli shu on
Ko'z oldidan bir-bir o'tardi...*

Usmon Nosirning tarjima san'ati eshiklarini birinchilardan bo'lib mutafakkir alloma Ibrohim G'afurov ochdi. Uning tarjimada «asl nusxadagi ruh va shirani saqlashga uringan»ini, she'rda «aynan tarjima»ning mohirlaridan ekanini u kishi ovoza qildi.

Bas, juvonmarg shoirning mutarjimlik san'ati adabiyot olamida yanada teranroq ochib berilmog'i kerak. Bu yangi tarjimonlar avlodi uchun ibrat maktabi bo'la-jakdir.

TILLARNI BILUVCHI KO'PAYDI, AMMO...

Bir xalqning tilini bilgan kishi o'sha qavmning fitnasidan saqlanadi.

Hozirgi davrda ingliz, xitoy, koreys, turk va boshqa tillarni biluvchilar ko'paydi. Natijada, tarjima bilan shug'ullanuvchi shaxslar ham ko'paymoqda. Bu bir jihatdan yaxshi. Lekin ularning tarjimasini o'qisangiz, ular o'zbek tilini yaxshi bilmasliklarini anglab qolasiz. Albatta, ular o'zbek xonadonida tug'ilib o'sgan, maktab

va boshqa o‘quv yurtlarida o‘zbekcha o‘qigan. Lekin o‘zbek tilining ifoda qoidalarini, uslubiy xususiyatlarini, lug‘at boyliklarini yaxshi o‘rgangan emas. Tarjimada begona tilning uslublarini qo‘llayotganlari seziladi.

TASAVVUF ADABIYOTINI, NAQSHBANDIYA TA’LIMOTINI O‘RGANISH ZARUR

Tasavvuf adabiyoti bashariyat ma’naviy kamolotining oliy nuqtalarini o‘zida aks ettirgan yuksak adabiyotdir. Tasavvuf adabiyoti insonga ma’naviy hayot baxsh etadigan, uni ruhiy yuksakliklarga chorlaydigan, qalbni boyitadigan, aqlni nurlantiradigan, shuurni uyg‘otadigan, zamirni hikmatga to‘ldiradigan hayot-baxsh adabiyotdir.

Aslida hazrat Navoiyning besh dostonidan iborat «Xamsa» asari tasavvufiy adabiyot namunasidir. Yaqin-yaqingacha, aniqrog‘i, XX asrning 80-yillarigacha «Xamsa»ni, hech bo‘lmasa, «Hayrat ul-abror» dostonini o‘qimagan kishi tasavvuf arboblarning davrasidan o‘rin ololgan emas. Ya’ni, ma’naviyat darg‘alari suhbatida o‘tirishga ularning ma’naviy haqqi bo‘lmagan. Demak, mustamlaka davri ma’rifiy she’riyati vakillarining saviyasi shu qadar yuksak, talabi shu qadar kuchli bo‘lgan.

Mustamlaka davri tasavvuf shoirlaridan bo‘lgan Faqiriy Shahrizabziy to‘qqiz yoshlarida Navoiy asarlarini o‘qiydigan bo‘ladilar. Holbuki, Navoiyni tushunish uchun turkiy-o‘zbek tilini puxta bilish bilan birga, arab va fors lug‘atlaridan ham xabardor bo‘lmoq zarur. So‘ngroq Navoiy va Fuzuliy she’riyatini teran o‘rgan-ganlar, hazrat Navoiyning «Xamsa» dostonlaridan bah-

ra olganlar. Shoir Yo'ldoshxoja Dog'iyning Namangan shahridagi kutubxonasidan vafotlaridan so'ng Alisher Navoiyning «Xamsa» asari topilgan.

Eshon Qutbuddinxon ibn Muhyiddinxon (marhum shoir Abduvali Qutbiddinning bobolari) naqshbandiya sulukining murshidi bo'lish bilan birga, buyuk lug'at-shunos olim ham bo'lganlar, sho'ro istibdodi davrida ilmiy ishni yoqlab, fan nomzodi bo'lib, to'rt jildlik «Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati»ni tuzishda fidoyilik ko'rsatganlar. «Xamsa» («Besh doston») asari lug'atini tuzib, yana «Majolisun-nafois», «Lisonut-tayr» asarlarining lug'atlarini tuzishda ishtirok etganlar, forsiy, arabiy, turkiy so'z, ibora va baytlarning izohi va talqinini berganlar. Holbuki, muhtasham va benazir «Xamsa» asari lug'atini tuzish uchun til bilishning o'zi kifoya qilmaydi, balki Qur'on ma'rifati va hadis olamidan ham xabardor bo'lish shartdir.

GO'ZAL MANBALAR

Hazrati Fariduddin Attorning yagona nasriy asari – «Tazkirat ul-avliyo» va qator dostonlari, Abul-Futuh Ahmad G'azzoliyning Yusuf qissasi asosidagi «Bahrul-mahabba» («Muhabbat dengizi») asari, Xoja Muhammad Porsoning «Faslul-xitob» asari, Abul-Muhsin Muhammad Boqirning «Maqomoti Xoja Naqshband» kitobi, Xoja Hofiz Sheroziy devoni, Shayx Sa'diy «Guliston» va «Bo'ston»i, Xoja Ahmad Yassaviy hikmatlari, Abdurahmon Jomiyning «Nafahotul-uns» asari, Sulton Husayn Boyqaroga bag'ishlangan «Iskandar Xiradnomasi» hamda «Yusuf va Zulayho» dostonlari,

Alisher Navoiyning «Nasoyimul-muhabbat» asari, «Lisonut-tayr», «Ruhul-quds» dostonlari, Sayyid Qosimiyning Ilohiy ishq darj etilgan manzumalari, Ibrohim Haqqiyning turk tilidagi «Ma’rifatnoma» nazmiy asari, Bedil, Mashrab, Ogahiy ijod olami, Gyotening «Sharq-u G’arb devon»i, Aleksandr Pushkinning «Подражания Копану» («Qur’onga ergashuv») turkumi – bu asarlarni o’qimay va anglamay turib yuksak maqomdagi ijodkor bo’lish imkonsizdir.

Yosh qalamkash do’stlarim meni kechirsinlar, kamina mazkur manbalardan, tasavvuf adabiyotidan bebahra insonlarni, hatto shijoat bilan adabiyotga kirib kelayotgan eng iste’dodli shoirlarni ham ma’naviy qashshoq holda ko’raman...

«MA’RIFATNOMA» MANZUMASIDAN BAYTLAR

*Ne davlatdirki, dildorim Sen o’lding,
Anisu mu’nisu yorim Sen o’lding.
Dili purdariming darmoni Sensan,
Shifoyi joni bemorim Sen o’lding.
Menga xasm o’lsa olam xalqi, g’am yo’q,
Ne qo’rquv! Chun nigohdorim Sen o’lding!
Safolar, gar jafolar topsa jonim,
Rafiqi jumla atvorim Sen o’lding.
Sanga dil bermisham, ey joni olam!
Azaldan chunki dildorim Sen o’lding.
Desam ismi sharifing yo demasman,
Dilimda jumla guftorim Sen o’lding.
Senga ta’zim etar dillarda Haqqiy,
Der: inkorim yo’q, iqrorim Sen o’lding!..*

MAJOZ VA HAQIQAT

Ba'zi turkiy mamlakatlarda devon san'atiga asoslangan mumtoz adabiyot «Devon adabiyoti» deb yuritiladi. Devon adabiyoti degani, ba'zilar o'ylagandek, saroy adabiyoti yoki saroy she'riyati degan ma'noda emas, balki, bizning tushunchamizdagi mumtoz adabiyot degan ma'nodadir. Devon adabiyoti XI asrda Movarounnahrda (bugungi O'zbekiston zaminida) Qoraxoniylar saltanati davrida boshlangan, islomiy madaniyatdan bahra olgan, Qur'oni Karim va hadisi sharif ma'nolarini o'ziga singdirgan ma'rifiy adabiyotdir. Bu mumtoz adabiyot «Majoz haqiqatning ko'prigidir» degan hikmatga asoslanadi; ya'ni majoz yo'li bilan haqiqatni kuylaydi, majoziy muhabbatni bahona qilib, ilohiy ishqni tarannum etadi.

Tasavvuf adabiyoti shoirlari ikki yo'nalishda – majoz va haqiqat tariqida ijod qilganlar. Majoz tariqi vakillari so'z va istilohlarni ko'chma ma'noda qo'llaydilar. Lekin majoz san'atida so'zning haqiqiy ma'nosi tark etilgan bo'lishi mumkin emas, balki majozning ortida so'zning o'z haqiqiy ma'nosi turishi shart qilingan («G'iyosul-lug'ot»). Shuning uchun hazrat Navoiy aytadilar:

*Gar Navoiy yig'lasa, ishqing majoziydur dema –
Kim, nazar pok aylagach, ayni haqiqatdur majoz.*

Mavlono Lutfiy, Shayxzoda Atoiy, Alisher Navoiy, Muhammad Fuzuliy, Muhammad Rizo Ogahiy – to XX asrning 80-yillarigacha yetishgan tasavvuf shoirlari majoz tariqida ijod qilganlar.

Xoja Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg‘oniy, So‘fi Allohoyor, Boborahim Mashrab, Maxtumquli, Haziniy, Huvaydo singari mumtoz shoirlar haqiqat tariqida ijod qilganlar. Lekin Mashrab she‘riyatida majoz tariqidagi g‘azallar ham juda ko‘p.

Haqiqat tariqi so‘z san’atkorlari mavzulari oshkor, dunyo va oxiratni o‘z nomi bilan atab, she‘riyat orqali jo‘shqin ishq va shavqlarini, da‘vat va chaqiriqlarini ochiq izhor etadilar.

Majoz tariqi so‘z san’atkorlari esa o‘z maqsudlarini boshqa so‘z va istilohlar bilan izhor etadilar. Lekin moyatan ikki tariqning ham maqsudi birdir.

Majoz zamiridagi haqiqatni anglash uchun esa tasavvuf ta‘limoti, tasavvuf adabiyoti va lug‘atini o‘rganish shart.

«Masalani murakkablashtirishning nima keragi bor?» deyishingiz mumkin. Adabiyotni hayotim deb, taqdirim, qismatim deb, baxt-u saodatim deb bilgan iste’dodli qalamkash uchun bu masalaning hech qanday qiyin va murakkab joyi yo‘q. Tasavvuf adabiyotidan bebahra inson hikmat va ma‘no olamidan yiroq bo‘ladi.

MAJOZDAN MAQSAD – ISHQI HAQIQIYDIR

Hazrat Navoiy yozadilar:

*Majozdin manga maqsud erur haqiqiy ishq,
Nedinki, ahli haqiqatqa bu tariqat erur.
Majozdin chu haqiqatqa yo'l topar oshiq,
Qilur majozni nafa ulki, behaqiqat erur.*

Ya'ni: «Menga majozdan murod bashariy-insoniy muhabbat emas, balki haqiqiy ishq, ya'ni ishq i lohiydir. Chunki haqiqat ahliga yo'l ana shudir. Modomiki, oshiq majoz orqali haqiqatga yo'l topar ekan, demak, majozni faqat haqiqatsiz kishigina rad etadi».

Yana yozadilar:

*Ko'rmasa husni majozni ichra juz Haq sun'ini,
Oshiqekim, bo'lsa ishq atvori ichra pokboz,
Zohido, bu ishqdin man' aylama oshiqnikim,
Gar sen idrok aylasang, ayni haqiqatdur majoz.*

«Bir oshiq majoz go'zalligi ichida Haq taoloning sun'i – san'atidan boshqa narsani ko'rmaydigan bo'lsa, agar u ishq atvorida – ishq i lohiy yo'li-ravishida pokboz bo'lsa, ya'ni haqiqiy oshiq bo'lsa, chin-halol oshiq bo'lsa, ey zohid, ey hamma narsaning faqat tashqi tomonini ko'ruvchi zohirbin shaxs, u holda oshiqni bunday ishqdan aslo man' etma, aslo qaytarma. Chunki agar sen idrok aylasang, tushunsang, majoz bu ayni haqiqatdir!»

Muhammad Fuzuliy yozadilar:

*Tutsam talabi haqiqata rohi majoz,
Afsona bahonasi-la arz etsam roz;
Layli sababi-la vasfin etsam og‘oz,
Majnun tili ila etsam izhori niyoz.*

ISHQ HAYOTBAXSH O‘LIMDIR

Yana hazrat Navoiy yozadilar:

*Ey Navoiy, ko‘p majoziy ishq ila mash‘ufsen,
O‘tkin andin, dog‘i yon ishq haqiqiy sori bot.
Ikkisidin garchi oshiq o‘lmaki lozim kelur,
Bari ul o‘lmakki, bo‘lg‘ay zimnida yuz ming hayot.*

«Ey Navoiy! Majoziy ishq bilan ko‘p oshuftasan, juda oshiqi shaydosan. Bas, endi u majoziy ishqdan voz kech va tezda ishq haqiqiy sari qayt. Garchi bu ikkisi – majoziy va Ilohiy ishqdan oshiq o‘lishi lozim kelsa-da, lekin bu shunday o‘limki, u o‘limning zimnida – zamirida yuz ming hayot bordir! Ya’ni, ishq yo‘lidagi o‘lim oshiqqa yuz ming hayot baxsh etadigan o‘limdir!»

Yosh do‘stlarimizga majoz va haqiqat tariqining ma’nosini anglashda shu go‘zal va teran dalillar kifoya qilsa kerak.

MAJOZ ADABIYOTINING HIKMATI

Majoz adabiyotining oshkor hikmatlaridan biri shundaki, agar Navoiy, Lutfiy, Atoiy, Fuzuliy, Ogahiydek zotlar ham majoz tariqida ijod qilmasdan, haqiqat

tariqida ijod qilsalar edi, og'ir mustamlaka va istibdod zamonlarida ularning ijodi ham hazrati Yassaviy, Sulaymon Boqirg'oni, So'fi Allohoyor ijodi kabi «diniy-mistik» degan ayblovlar bilan taqiqlangan va avlodlar bunday buyuklarning ijod olamidani bebahra va bexabar qolgan bo'lar edi. Zolimlar saltanati ularning devonidagi haqiqatlarni anglamagani uchun ham ijodlarini o'qitishga, maktab va oliy o'quv yurtlari darsliklariga kiritishga ruxsat berganlar.

INSONNING YANGI BIR HAYOTI

«Muso alayhissalom ulul-azm (buyuk shijoat va matonat sohibi bo'lgan) payg'ambar bo'la turib, Xizr alayhissalomdan bir narsalarni o'rganmoqni istadilar».

«Mavlono Jaloliddin Rumi to Shamsi Tabriziyni topgunlaricha boshqa bir umrni yashadilar, undan keyin yana boshqa bir umrni yashadilar» (*«Tasavvuf va go'zallik»*).

Bular – ulug' tasavvuf arbobining so'zlaridir. Bu so'zlar ma'nosini anglash uchun «Majma'ul-bahrayn» («Ikki dengiz birlashgan joy») degan iborani anglash lozim. Bu – Qur'on ifodasi. Hazrati Xizr alayhissalom bilan hazrati Muso alayhissalom ko'rishgan manzil «Majma'ul-bahrayn» deyiladi. Alloma Qozi Bayzoviy bu oyat sharhida: «Aytiladiki, ikki dengiz aslida Xizr alayhissalom bilan Muso alayhissalomning o'zlaridir. Xizr alayhissalom – botin (tariqat) ilmlari dengizi, Muso alayhissalom – zohir (shariat) ilmlari dengizi», deganlar. Ko'nyo shahridagi Mavlono Jaloliddin Rumi bilan Shams Tabriziy ko'rishgan joyda ham «Ikki dengiz birlashgan joy» deya yodgorlik o'rnatilgan.

«Imom G‘azzoliy, yillar bo‘yi zarrin jubbalari, muhtasham sallalari bilan madrasalarga borar ekanlar, dillari qoniqmadi. Yo‘llarga tushdilar. Tartib-intizomlarga chaqirildilar. Ibodatlarga mashg‘ul bo‘ldilar... Maqom sohibi, mavqe sohibi, mulk sohibi, borliq sohibi, bilim sohibi, rutba sohibi bo‘lmoq muammo emas!.. Muhim narsa Alloh taoloning sevgan quli bo‘lmoqdir! Inson Allohning sevgan quli bo‘la olsa, qanday baxtlidir!» («*Tasavvuf va go‘zallik*»).

Bu so‘zlardan tasavvuf ta‘limoti insonning yangi – boshqacha, ma‘naviy bir hayotini boshlab beradigan ta‘limot ekani anglashiladi. Tasavvuf adabiyotini, Naqshbandiya ta‘limotini o‘rganish zarur, degan so‘zimizning ma‘nosi ana shu jumlalarda ochilmoqda.

NOQISDAN KOMIL ISH CHIQMAYDI

Nima uchun ma‘naviyat rahnamolari tasavvuf yo‘lini insonning yangi bir hayoti deb ataganlar? Chunki bu ruhiy tarbiya yo‘lidir. Chunki bu yo‘l komillik yo‘lidir. Komil ish komil insonlardan chiqadi. Noqis insondan komil ish chiqmaydi.

«Tasavvuf bo‘lmaguncha ma‘naviy yuksalish bo‘lmaydi, noqisdan komil ish chiqmaydi.

Go‘zal axloqqa qarab kelayotir insonlar. Demakki, yumshoq qalblilikka, muhabbatga qarab kelayotir. Mana, tasavvuf ahlining usuli ana shudir.

Zafar qozonmoq uchun ikki shart ilgari qo‘yiladi: birinchisi – sabr, ikkinchisi – taqvo. Taqvo – islomiy tasavvufning g‘oyasi. Muhabbat – islomiy tasavvufning g‘oyasi. Go‘zal axloq – islomiy tasavvufning g‘oyasi. Tasavvuf bo‘lmaguncha, ma‘naviy yuksalish bo‘lmaydi,

aziz birodarlarim! Mumkin emas. Ruhiy tarbiya bo'lmassa, inson inson bo'la olmaydi, insoni komil bo'la olmaydi. Komil bo'lmagan insonlardan esa komil ish chiqmaydi, hamisha noqis ish chiqadi...» («*Tasavvuf va go'zallik*»).

IJODDA NUR BO'LMOG'I LOZIM

So'z san'ati, ijod shavqi inson qalbidan nur talab qiladi. Ijodda nur bo'lmog'i lozim. Ijodkorning qalbida nur bo'lsa, u nur uning asarlariga, undan kitobxonning qalbiga o'tadi.

Chingiz Aytmatov asarlarida nur bor – qalb nuri, go'zal axloq nuri bor.

Lev Tolstoy asarlarida nur bor – adolat, haqqoniyat nuri bor.

Abdulla Qodiriy, Cho'lpon asarlarida nur bor – ma'rifat nuri bor.

Abdulla Oripov she'riyatida nur bor – haqiqat nuri bor.

Erkin Vohidov ijodida nur bor – zarofat va latofat nuri bor.

Ibrohim G'afurov ijodida nur bor – tafakkur nuri bor.

Rauf Parfi she'riyatida nur bor – san'at nuri bor.

Erkin A'zam ijodida nur bor – to'g'rilik nuri bor.

Usmon Azim she'riyatida nur bor – rostgo'ylik nuri bor.

Abduvali Qutbiddin ijodida nur bor – ruhiyat nuri bor.

Barcha mumtoz shoirlar she'riyatida nur bor – muhabbat nuri bor...

Ruhsiz va nursiz adabiyot – adabiyot bo'lmaydi.

*Asl g'avvos bo'lsang, durni ko'rgaysan,
Sof bo'lsang, ketar chog' hurni ko'rgaysan.*

*Hamma yoq zulmat deb shikoyat qilma,
O‘zingda nur bo‘lsa, nurni ko‘rgaysan...*

IJODKOR YAXSHI NIYAT QILISHI KERAK

Inson umrining qiymati qancha yashagani bilan emas, balki qanday yashagani bilan belgilanadi. Demak, hayotning mazmuni muhimdir.

Xalqimizda «Nafasingni issiq qil» degan gap bor. Ba’zi shoirlar o’lim haqida, ochiqroq aytganda, o’zining o’limi, yaqinda o’lishi yoki tezda o’lishi haqida yozadi. To’g’ri, o’limni eslash tasavvuf ta’limotida shayxlar tomonidan muridlariga buyuriladigan tafakkur tarzidir. O’lim – noxush, yoqimsiz narsa. Lekin insonning nafs faqat o’lim qo’rquvi bilan tuzaladi, nafsning o’limdan boshqa narsa bilan tuzalishi qiyin. Shuning uchun murshidi komillar shogirdlariga o’limni tafakkur qilishni vazifa qilib beradilar. Nafsni tarbiyalab yaxshi yo’lga solishda, insonning kamolot kasb etishida o’limni eslash muhim o’rin tutadi. Lekin o’limni eslash degani o’limni orzu qilish, uni chaqirish degani emas.

O’limni chaqiradigan yosh ijodkorlarning hayoti mohiyatiga diqqat qilsangiz, ularning o’z hayotidagi nima narsadandir norozi ekanini kuzatasiz. Masalan, sevgilisining bevafoigidan yoki oilasining nojoiz harakati va qadr bilmasligidan yoxud shunchaki, o’z qadrini anglatish uchun erkanlab o’limni chaqirgan bo’ladi.

Yoshlar jamoasi sevgilisini yoki oilasini yoxud o’quvchilarini «O’laman» deb qo’rqitavermasin. O’limga shoshilmasin. O’lim hammani topadi, hammaga yo’liqa-

di. Qasas surasida bildirilganidek, Yagona Parvardigorning Zotidan boshqa hamma narsa halok bo'lguvchidir. Shundoq ekan, yoshlar jamoasi hayot ne'mati uchun Yaratganga shukr qilsin va uzoq, barakatli umr ko'rib, buyuk xayrli ishlar qilishni niyat etsin! Ijodkor tetik qalb, tetik ruh bo'lsin, hayotda g'ayratli, ijodda pahlavon bo'lsin!

O'LIMNI ISTAGAN QALAMKASHLAR

O'limni istagan va unga yo'liqqan qalamkashlar anchagina.

Marhum Chori Avaz: *«O'lsam, hayron bo'lmang, uzoq yashash uchun tug'ilganim yo'q»*, deb yozadi. Marhum do'stimiz qancha muddat yashash uchun tug'ilganini qayerdan bilardi?

Ulug' ustoz Abdulla Oripov «O'lim haq. Ne ham derdik! Iste'dodli shogirdim xotirasiga bo'zlab baytlar aytaman, xolos. Chori Avaz xotirasiga...

Alloh rahmat qilgan bo'lsin!» – deb yozgan edilar. «Chorijon marsiyasi» degan she'rda esa ushbu armonli satrlarni bitganlar:

*...Shoir xoh yoshdir, xoh qaridir,
Ijodi ajaldan naridir.
Alamdir, baribir alamdir,
Hech kimning shogirdi o'lmasin!*

She'rning «...She'riyat, hamrohsan biz ila,
Uyingda ro'y berdi zilzila, Bu ne hol, bahorda zilzila, Hech kimning shogirdi o'lmasin», degan satrlari ham bor.

Marhum Nazar Shukur: «Mening ilk kitobim – qabrim toshidir» degan ma’noda ushbu satrlarni bitgan:

*«Ilk kitob – shu edi mendagi maqsad,
Bu yo’lda har toshga urdim boshimni.
«Birodar, sen nega qilasan hasad,
O’zimga yaratsam qabr toshimni...»*

Darvoqe, ilk kitobi shoirning qabr toshi bo’ldi, ikkinchi kitobi nashr etilmay, halokatli vafot topdi. Axir, ilk kitobi shoirning buyuk kelajak yo’lidagi ilk pillapoyasi bo’lsa bo’lmasmidi? Shoir yana: *«Bilmadim, abadga nogoh qay kungi Rohatlar to’xtatar hayotim yo’ldan», «o’lim ham jim kezar, qo’rqqandan go’yo...»* kabi satrlarni bitgan. Taqdirga shak yo’q. Taqdirni o’zgartirib bo’lmaydi. Lekin shoir issiq nafas qilib, niyatni yaxshi qilsa bo’lmasmidi?

Rahmatli Muhammad Yusuf o’lim haqida ko’p yozgan. *«Mendan nima qolar, ...bir hovuch tuproq...», «Men o’lsam, qizlarim yosh, yig’lashni bilmaydi»,* kabi so’zlarni bitgan edi.

Yana yozadi:

*«Tuzalmaydi dardim mening, o’lsam kerak.
Tuproq bilan men og’ayni bo’lsam kerak.
O’lim nima? Bu ham bitta sayr, Ona,
O’g’ling qaro yerga ketdi, xayr, ona...»*

«...Qani menga atalgan joy, ketdik, do’stim!» degan satri ham bor. Onaga farzand dog’idan og’irroq musibat bo’lmaydi. Farzandning o’z onasiga «O’laman» deyishi onaning qalbiga xanjar urishdan yomonroq. «Shoir

do'stim, nega o'lding, nega bunday orzu qilding?!» – degim keladi.

Shoirning o'limi adabiyotning motami bo'ldi. Uning vafotidan, millat dushmanlaridan boshqa, hech kim quvongani yo'q. Zotan, ijodkorning o'limidan hech kim manfaatdor emas.

Yana boshqa shoirlarning she'rlaridan ham misollar keltirish mumkin.

Bu she'rlar o'z qismatidan xabar berish emas. Uzoq yashash, qisqa yashash, qachon, qayerda o'lish Yaratgan Zotning O'zidan boshqa hech kim bilmaydigan g'ayb sir-laridir. O'zining o'limi, uzoq yoki qisqa yashashini da'vo qilishi ham g'aybni da'vo qilishga o'xshagan og'ir gunohdir, e'tiqod ilmida bu aslo joiz emas. Bu o'rindagi xabardek tuyulgan o'lim so'zi shoirning zamiridagi – ni-yatidagi narsa. Birovga o'lim tilash naqadar yoqimsiz bo'lsa, o'ziga o'lim tilash ham shunchalik yoqimsizdir. Bu ish Yaratgan Zotga xush kelmaydi.

Aytilgan so'z ba'zan qismat bo'lib insonning boshiga tushishi mumkin.

Farishta «Omin» dedimi, niyatidagi narsa bo'ldimi, o'limni istagan shoirlarning ko'plari yosh vafot etib ketishdi.

O'lim va hayot borasida ma'naviyat olamida ruxsat berilgan bir yo'l bor. U yo'l quyidagi duo so'zida o'z ifo-dasini topgan:

«Allohim! Sen ilming ila g'ayblarni bilursan. Qudra-ting ila butun yaratganlaringga hokimsan. Yashash men uchun xayrli bo'lsa, menga yashashni bardavom qil, o'limim men uchun xayrli bo'lsa, meni vafot ettir!..»

Inson yashagisi kelmay qolganda faqatgina ana shu duoni qilishga ruxsat bor. *(Bu duo matni hazrati Imom*

Nasoiy, hazrati Imom Ahmad ibn Hanbal kitoblarida qayd etilgan.)

Shoir yosh ketmasin. She’riyat uyida zilzila bo’lmasin. Bahorda yer muzlamasin.

«O‘LIMNI ORZU QILMANGLAR»

Sevikli Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi va sallam: **«O‘limni orzu qilmanglar»** deganlar. Bu muborak so‘z ma’nosini Sirojiddin Sayyid nazmda ifoda etgan:

*Ig‘vo, bo‘htondan saqlaning mudom,
Mehr-u saxovatdan yiroq bo‘lmanglar.
Umrni g‘animat bilinglar har dam,
O‘limni hech qachon orzu qilmanglar.*

Bu muborak so‘zning dalili Imom Buxoriyning «Al-Jomi’ as-sahih» kitoblarida kelgan 7233-hadisdur: Hazrati Anas ibn Molik (roziyallohu anhu): «Agar Rasululloh sollallohu alayhi va sallam: «O‘limni orzu qilmanglar!» – deb aytmaganlarida edi, o‘limni orzu qilgan bo‘lar edim!» – dedilar.

Izoh. Rovi sahobalar orasida juda uzoq umr ko‘rgan zotlardandir.

TONGI OTMAGAN SHOIR

Ibratli kitoblardan birida shoirlar haqida qiziq rivoyatlar kelgan. Bir shoirning yoshlikdagi sevgilisi ot yoki tuya minib, uning ko‘chasidan o‘tadigan bo‘libdi. Shoir oh chekib: «Seni ko‘rgandan ko‘ra ko‘zim ko‘r bo‘lgani yaxshi!» – deya she’r bitib, oxiri uyquga ketib-

di. O'sha kecha hech tong otmas emish. Shoir uyquga to'yib, qachon ko'zini ochsa, hamon qop-qorong'u ekan! Kechaning buncha uzoq cho'zilganidan ajablangan shoir oxiri g'ala-g'ovurdan uyg'onib, uy ahliga: «Tong otmadimi?» – deb nido qilibdi. Uydagilari hayron bo'lib: «Axir, tong otganiga necha soatlar bo'lib ketdi-yu, siz hamon joyingizdan turmaysiz!» – deyishibdi. Shoir: «Axir, hammayoq qop-qorong'u-ku!» – debdi. Uydagilari: «Vo ajab! Axir, quyosh yoyilib ketgan, hamma yoq yoppa-yorug'-ku!» – desa, shoir ko'zi ko'r bo'lib qolganini shunda anglagan ekan.

Bu so'zdan ijodda niyatni va tilakni yaxshi qilish zarurligi anglashiladi.

Hayotimiz, ijodimizda nimaiki noxush narsalar, gunohlar o'tgan bo'lsa, hammasi uchun Yaratgan Zotdan mag'firat tilaymiz!

YANGI ASRNING O'N OLT YILL...

Bir vaqtlar, 1983-yilda «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» gazetasi uchun ustozimiz Erkin Vohidov bilan suhbat qilgan edim. Unda shunday savol bor edi: *«Erkin aka! Bir muxbir atoqli shoir Andrey Voznesenskiydan: «Siz ikki minginchi yil she'riyatini qanday tasavvur qilasiz?» – deb so'raganida, shoir qaltis umumjahoniy vaziyatni nazarda tutib: «Bu ketishda, balki ikki minginchi yil bo'lmas», degan ma'noda javob beribdi. Siz bu savolga nima deb javob berar edingiz?»*

Erkin Vohidov bu savolga javoban aytganlar: «Men shoirning bunday deb javob berishiga juda qarshiman. To'g'ri, umumjahoniy vaziyat juda ham qaltis. Lekin

odam baribir ezgu niyat bilan, umid bilan yashagani yaxshi-da. Bilasizmi, ulug‘ shoirlarda ma’lum darajada bashorat xislatidan juz’iy namunalar bo‘ladi. Pushkin «Yevgeniy Onegin» asarida shoir Lenskiy siymosida o‘z o‘limi manzarasini chizib bergan: o‘sha otishma, o‘sha qor... Hozir ham o‘z o‘limini bayon qilgan. Mashrab esa o‘z ajalini bir necha g‘azalda tasvir etgan.

O‘zbeklarda «Farishta omin deydi» degan gap bor. Buni diniy aqidalar bilan bog‘lashning hojati yo‘q. Bu – kishi yaxshi niyat bilan yashamog‘i kerak, degani. Ikki minginchi yil, shubhasiz, bo‘ladi. Unda inson badiiy tafakkuri yanada yuksaladi. Jahon she’riyati gullar ochib, mevalar tugadi. Bizning sharqiy qirg‘oqda ham she’riyat mash’allari porlab turaveradi... o‘chmaydi... Men bunga ishonaman».

Ustoz aytganlaridek, ikki minginchi yil ham voqe‘ bo‘ldi. Ustoz yangi asrda 16 yil yashadilar. Toki iymon ahli bor ekan, dunyoning umri tugamaydi...

Ustoz Abdulla Oripov «Umr o‘rtasi» degan she’rni roppa-rosa 36 yoshda yozganlar. 76 yil umr ko‘rdilar. Ajabki, bu shoir yashagan umrning qoq o‘rtasidir.

O'LIMNI CHAQIRMANG, SHOIR DO'STLARIM!..

O'limni chaqirmang, shoir do'stlarim,
Farishta «Omin» der har bir niyatga.
O'ping Navoiyning oyoq izlarin,
Shoirlar nomzoddir abadiyatga.

Nekbinlik, matonat – shoirga shior,
So'zdan hayot topsin o'lik xaloyiq.
O'limga peshrav ne a'molimiz bor?
Ne buyuk ish qildik o'lmoqqa loyiq?!

She'riyat – adolat, haqiqat jangi,
Nurdan sovut kiyib kiring bu jangga.
Kimki hayot bersa qalblarga mangu,
O'lim yarashadi faqat o'shanga!

O'lim – mo'min uchun tuhfa va tortiq,
O'limdan boshlanar Haqning visoli.
Biz o'lsak, bir fazl bo'larmi ortiq,
Dunyo donolardan qolarmi xoli?

Biz o'lsak, quyosh, oy tutilarmidi?
Motam tutarmidi mazlum koinot?
Jahon razolatdan qutularmidi,
Olam toparmidi zulmdan najot!

Haq so'z – dor ostida mardning qasdidir,
Mardning marg chohida yangrar xandasi.
Bizning har lahzamiz – dorning ostidir,
Bizning har onimiz – jallod kundasi.

O‘limni fikrlang, qo‘rqmang ajaldan,
Lekin «o‘laman» deb hayqiravermang.
O‘lim har kimni ham topar azaldan,
Bas, tezlab o‘limni chaqiravermang.

Issiq nafas qilsin farzandi Odam,
Shunday ulug‘ qiling maqsad, niyatni.
O‘lim changalida turganda olam,
Hayotga qaytaring bashariyatni!

Garchi qo‘lingizda emas, lek ruhan
O‘limga hech taslim bo‘lmang, do‘stlarim!
Yashang shunday buyuk shijoat bilan,
O‘lgandan keyin ham o‘lmang, do‘stlarim!

O‘limni chorlamang, tuting qo‘limni,
Nur to‘lsin nomai a‘molingizga.
Do‘stlar, o‘z holiga qo‘ying o‘limni,
U ham sizni qo‘ysin o‘z holingizga!..

Hijriy 1441, milodiy 2020.

CHARLI CHAPLINNING SO‘ZSIZ SAN‘ATI

Adabiyot so‘z san‘atidir. Adabiyotga tayangan boshqa ko‘plab san‘atlar ham so‘z san‘atiga asoslanadi: qo‘shiq, kino, teatr. Lekin bir so‘zsiz san‘at bor: bu – Charli Chaplinning so‘zsiz san‘ati, filmlari.

U so‘zli filmlarni yoqtirmagan. Uning so‘zli filmlar ustida kulib: «Odamlar buncha ko‘p gapiradi-ya!» – deb g‘azablangani tarjimaiy holida aytiladi.

Marhum shoir Muhammad Rahmonning «Gung muhabbati» («Pontamimo uchun mazmun») degan mashhur she'ri bor. She'rda gapira olmaydigan gung insonning muhabbati g'oyat san'atkorona ifodalangan: «Mana bunday uning ko'zlari... Mana bunday uning qoshlari» – bularni gung faqat ishoralar bilan bildiradi.

«Charli Chaplinning so'zsiz san'atini, gung muhabbatini eslashning nima zaruriyati bor?» deyishingiz mumkin. Bundan qanday o'rnak topamiz, nima xulosa chiqaramiz? Nechuk hikmat izlaymiz bundan?

She'riyatda ishorat degan san'at bor. Bu aytmasdan turib aytish san'atidir. Abdulla Oripov, Rauf Parfi bu san'atni kamol nuqtasiga yetkazdilar... Ular zulmni, mustamlakani ishoratlar bilan fosh etdilar, millat ozodligini ishoratlar bilan kuyladilar.

Birinchi xulosa, bundan ishorat san'atini, aytmasdan turib aytish yo'lini o'rganishdir.

Ikkinchi xulosa, kamgaplikni, oz so'z bilan ko'p ma'noni ifodalash mahoratini o'rganishdir.

Uchinchi xulosa, hayotda gapiradigan bo'lsak, yaxshi gapni gapirishni, yo'qsa, sukut qilishni o'rganishdir.

TAQLID

Taqlid – aslning soyasidir. Ijod nur bo'lsa, taqlid – nur sababli paydo bo'lgan soya. Afsus, she'riyatimizning soyalari bor. Adabiyotda, she'riyatda taqlid ko'p uchraydi. Ba'zi taqlidchilar taqlid qilayotganini o'zi bilmay yoki bilmaganga olib umr o'tkazyapti.

Ba'zi san'atkor shoirlarga taqlid qilib bo'lmaydi.

Abdulla Oripovga taqlid qilgan kishi uyatga qoladi, uning har tarafidan ulug‘ shoirning kiyimlari ko‘rinib turadi.

Rauf Parfiga taqlid qilgan kishi tez fosh bo‘ladi, yasma shoirga o‘xshab qoladi. O‘zini o‘zi xijolatga qo‘yadi.

Abduvali Qutbiddinga taqlid qiladigan kishining o‘zi ni rasvo qilishdan boshqa chorasi yo‘q. Abduvali she‘riyati ruh jilvalaridir. Ulug‘ Naqshbandiylar ma‘rifatining nurlaridir. Abduvalining she‘rlari «Bir she‘riy san‘at qilayin» deb yoki «Birovni qoyil qoldirayin» deb yoki «shuhrat topayin» deb bitilgan misralar emas.

Soya nurdan paydo bo‘ladi. Soya bo‘lmaylik, nur bo‘laylik. Taqlidchining «Asl nusxaman» deb da‘vo qilishi adabiyotning qaro kunidir. Ustoz Abdulla Oripov yozadilar:

*Taqlid qila bergin yetsa bardoshing,
Modomiki senda bor ekan havas.
Faqat bir qaro kun ko‘tarib boshing,
Asl nusxaman deb dod solmasang bas.*

IJOD BU HIKMATDIR, HIKMAT ESA POKLIK MAHSULIDIR

Lug‘atimizda «hikmat» degan go‘zal so‘z bor. Olamdagi payg‘ambarlar Parvardigordan o‘zlariga hikmat ato etishini so‘raganlar, ulug‘ so‘z sultonlari – qalam ahllari hikmatni orzu qilganlar. Sevikli Payg‘ambarimiz alayhissalom «She‘rda hikmat bor, bayonda sehr bor», deganlar. U holda, «hikmat» nima ekan o‘zi?

«Hikmat» so‘zining yigirmadan ortiq tavsif va ta‘riflari bor. Shulardan eng muhimlari:

«Hikmat soʻzda va feʻlda haq hukmni saqlamoqdir» (*Ibni Nujayh hazrati Mujohiddan (roziyallohu anhu) rivoyat qilganlar*).

«Hikmat ilm va fiqh demakdir» (hazrati Mujohid roziyallohu anhu).

«Hikmat mavjudotning mohiyatidagi maʼnolarni anglamoqdir» (*Ibrohim Naxoiy*).

«Hikmat ijod demakdir. Hikmat sabab va illatlarga asoslangan va ular bilan aloqadordir, illatning haqiqati ham yaratmoq va ijod etmoqdir, shu sabablarga koʻra, asl hikmat ijod demakdir» (*Sayyid Sharif Jurjoni, «Al-Taʼrifot» kitobi, 63-sahifa*).

Modomiki, hikmat shunday bebaho neʼmat ekan, u holda hikmat qanday hosil qilinadi?

«Tasavvuf va goʻzallik» kitobida goʻzal hadisi sharif keltirilgan. Sevikli Paygʻambarimiz alayhissalom: «Roʻsul-hikmati maxofatullohi», deganlar. Yaʼni: **«Hikmatning boshi Allohdan qoʻrquvdir»**. Allohdan qoʻrquv degani insonning «Yaratgan Zot har bir ishimni koʻrib turibdi, har bir niyat va harakatimni bilib turibdi, har soʻzimni eshitib turibdi, har bir ish-amal uchun hisob-kitob bor», deb hamisha Haq taoloning yodi bilan yashamogʻidir.

Boshqa bir hadisi sharifda esa: «Kimki ixlos bilan qirq tong (yaʼni qirq kun va tun) Allohga ibodat qilsa, uning dilidan tiliga hikmat buloqlari oqib chiqa boshlaydi», deyiladi (*hazrati Ahmad ibn Hanbal, «Musnad» kitobi, «Zuhd» boʻlimi; «Jomiʼ ul-usul», «Ruhul bayon»*).

«Yaʼni, odam qirq kun ibodat, zikr, tasbeh, roʻza bilan mashgʻul boʻladi. Natijada uning dilidan tiliga hikmat buloqlari toshib chiqa boshlaydi. Nega? Chunki inson maʼnaviyatida bir narsalar yuz berdi, bir oʻzgarish sodir boʻldi. Qulflogʻlik eshiklar ochildi, voridot – fayz-u futuh,

aqliy tushunchalar, kashflar kela boshladi. Dilidan tiliga hikmat ana shu yo‘sin ko‘chdi. So‘zlaydigan so‘zlarining hammasi yoqimli, go‘zal bir holga keldi... Bas, xavfulloh – Allohdan qo‘rquv bo‘lgach, inson ana shunday holatga keladi» («*Tasavvuf va go‘zallik*»).

BULOQLAR YERDA BO‘LADI

«Ruhul-bayon» kitobida hikmat borasida g‘oyat purhikmat sharhlar bor: «Buloqlar faqat yerda bo‘ladi. Yer yuzi suvlar toshib chiqadigan makondir. Bu bayondan anglashiladiki, inkor ahllari (Ilohiy haqiqatlarni inkor etuvchilar) ubudiyat, ya’ni bandalik va tavozu’korlik rutbasiga erishmaydilar, Ilohiy ogohlantirishlarni yaxshi bir niyat bilan qabul etmaydilar, shuning uchun ular hamisha totli suv buloqlaridan mahrum bo‘lib kelganlar».

Demak, poklik ila bandalik qilishda yer bilan – tuproq bilan tenglashish, birlashish bor, tavozu’ bor, o‘zini xor va xokisor tutish bor. Bu xislatlar qalbni, basiratni, idrok buloqlari ko‘zini ochadi. Hazrati Sulaymon Boqirg‘oniy aytganlaridek:

*Otang yerdur, senam yerday qiliq qil:
Yomonlik aylaganga yaxshiliq qil...*

JAHON ADABIYOTIDA ISLOMIY MA‘RIFAT BAHRALARI

Biz buyuk ma‘rifat manbalarining egasi, vorisi bo‘la turib, o‘z ma‘naviy manbalarimizni yetarli qadrlayapmizmi? Bu pok va abadiy manbalardan hayot va ijodi-

Mirzo KENJABEK

mizda to'g'ri foydalanayapmizmi? Dunyo adabiyotiga nazar solaylik-chi, nima gaplar bor ekan?

Jahon adabiyotida islomiy ma'rifatdan bahra olgan ko'plab asarlarni uchratish mumkin. Buyuk olmon (nemis) shoiri Yohan Volfgang Gyotening «G'arb-u Sharq» devoni va boshqa ko'plab she'rlarida, hazrati Payg'ambarimiz alayhissalom haqlaridagi maqolasida, benazir rus shoiri Aleksandr Pushkin nazmida, buyuk rus adibi Lev Tolstoy asarlarida, faqat Fransiyaga emas, balki haqparastlar qalbiga hijrat qilgan rus muhojir shoiri Ivan Bunin she'riyatida islomiy ilm-u ma'rifat nurlarini kuzatish mumkin.

Lev Tolstoy qudsiy hadis ma'nolarini ruschaga tarjima qilib, nashr ettirgan. Adibning «Iqrorнома» risolasini o'qigan har bir kitobxon uning islomiy ma'rifatdan naqadar ko'p bahra olganini angelaydi.

GYOTE IJODI – MA'RIFAT BO'STONI

(1749–1832)

Gyote yozadi:

*Mashriqni ham yaratgan – Alloh,
Mag'ribni ham bor etgan – Alloh.
Unga xalal – kulfat yo'q juda,
Shimol, Janub – Uning hukmida!*

Bu satrlarga muqaddas Qur'oni Karimning Baqara surasi, 115, 142-oyatlari asos bo'lgan. 115-oyat ma'nosi: **«Mashriq ham, mag'rib ham (hamma taraf) Allohni-kidir.** (Ibodat qilish uchun qiblani axtargandan keyin)

qaysi tomonga yuzlansangiz, Allohning yuzi (rizosi) o’sha tarafdadir. Albatta, Alloh rahmati va ne’mati keng Zotdir va U (hamma narsani) bilguvchidir».

142-oyat (ma’nosi): «(Ey Rasulim!) **Ayting: «Mashriq ham, mag’rib ham Allohniki**dir. U (bandalarining yaxshi niyatlari va amallariga qarab) **O’zi xohlagan har kishini to’g’ri yo’lga boshlar».**

Buyuk adib Qur’oni Karimni olmoncha tarjimada o’qigan va bu oyatlar ma’nosi unga kuchli ta’sir qilgan. Gyote bu Ilohiy so’z mohiyati va Yaratgan Zotning cheksiz qudratini teran anglagan shoirdir. Yana yozadi:

*Sahobalar o’qisa Qur’on,
Alloh nomin atardi, bebok;
Hurmat saqlab har bir musulmon,
Iymonini tutar edi pok.*

Bu satrlar – muqaddas Kalomni o’qiganda «is-ti’oza»dan, ya’ni «A’uvzu billohi minash-shaytonir-rojiym» so’zidan keyin «Bismillahir-Rohmanir-Rohiym»ni aytish haqidadir. Boshqa she’rda esa shoir har narsani o’z aqlicha ta’vil qilib sharhlaydigan nodon kimsalarni so’z tig’iga iladi:

*Nodon har bir kalomni sharhlashga serjur’atdur,
Avom aytar: «Har so’zning ta’vilin bilajakmiz!»
Holbuki, «Islom» so’zi – Allohga itoatdur,
Baski, Islomda yashab, Islomda o’lajakmiz!..*

Shubhasiz, bu satrlar Qur’oni Karim oyatlariga asoslangan. A’rof surasining 126-oyatida: – **«...Ey Rabbi-miz! Ustimizga (mo’l) sabr yog’dir, bizni musulmon**

holimizda vafot ettir!» degan ma'nodagi duo so'zi keladi. Yana Oli Imron surasining 7-oyatida Qur'onning bir qismi muhkam, ya'ni ochiq va aniq oyatlar bo'lib, ular Ilohiy Kitobning onasi, ya'ni asli va tamali ekani, bir qismi esa mutashobih, ya'ni ma'nosi maxfiy oyatlar ekani bildiriladi. So'ng qalblarida egrilik bo'lgan kimsalar fitna chiqarishni va o'z havoyi nafslariga ko'ra ta'vil qilishni istab, undagi mutashobih oyatlarga ergashishi bildirilib, uning ta'vilini faqat Allohning O'zi bilishi uqtiriladi. Gyotening ushbu satrlari aynan mazkur oyat ma'nosiga muvofiqdir:

*Hozir yangi telbalar vaysab,
Tilda etar haq so'zni vayron.
Adashtirar bandalarni zab,
Najot sensan, muqaddas Qur'on!*

Avvalda haqqoniy Ilohiy Kitob bo'lib, keyin qo'l bilan o'zgartirilib, asl ilohiy mohiyati yo'qolgan Kitoblar haqida Gyote she'riy tilda so'z yuritadi va insonlarni tafakkurga undaydi. Xotirasi xilma-xil bo'lgan insonlarning qo'li bilan qayta bitilib, bir necha nusxaga ega bo'lgan kitob Ilohiy manba bo'la olmasligini ta'kidlaydi:

*Bayon aylab Tangri so'zini,
Lyso ko'kka ayladi parvoz.
Shogirdlar-chi, eshitganini
O'zlaricha etdi yoza-yoz.*

*Xotirasi alarning har xil,
Haq Kalomin har xil bitarlar.
Nasroniylar qiyomatgacha
Aniq so'zni bilmay o'tarlar.*

Bunday olamshumul xulosani Gyote, shubhasiz, Qur’ondan olgan.

EGRI QOVURG‘A TAVSIFI

Gyote go‘zal islom mohiyatini faqat Qur’oni Karim orqali emas, balki hadisi shariflar orqali ham yaxshigina o‘rgangan, bu muqaddas dinga hurmat ko‘rsatib, hazrati Rasululloh alayhissalomga ko‘ngil bog‘lagan. Quyidagi she’rdan shoirning hazrati Imom Buxoriyning «Al-Jomi’ as-sahih» kitobida bayon qilingan mashhur hadis ma’nosidan ham xabardor ekani anglashiladi:

*Ayollarga bo‘lgin mehribon, inoq,
Egri qovurg‘adan yaralmish ayol.
Uni egri qilib yaratmish Xalloq,
Tiklamoq istasang – singaydir, alhol!*

*Tegmasang – u balki qolar egilib,
Bu Odam Atodan bizga saboq – dars:
Ayolga xushfe‘l bo‘l, tuzataman deb,
Egri qovurg‘ani sindirmagil, bas!*

Bu satrlarning tayangan manbayi quyidagi hadisi sharifdir; hazrati Abu Hurayra roziyallohu anhu bayon qiladilar: **«Rasululloh sollallohu alayhi va sal-lam bunday dedilar: «Kimki Alloh taologa va qiyomat kuniga imon keltirgan bo‘lsa, qo‘shnisiga ozor bermasin! Shuningdek, ayollar bilan doimo yaxshi muomalada bo‘linglar. Chunki, ular qovurg‘adan yaratilgan bo‘lib, qovurg‘aning eng qiyshiq yeri – uning do‘ng joyidir. Agar uni to‘g‘rilashga harakat qilsang – sindirib qo‘yasan, agar qo‘yib yuborsang –**

egriligicha qoladi. Bas, shunday ekan, ayollar bilan doimo yaxshi muomalada bo'linglar!» («*Sahihi Buxoriy*», 5185–5186-hadislar).

Gyote ijodidan yana ko'plab irfoniy misollar keltirish mumkin.

«SADOQATLI TO'RT AYOL BOR...»

Gyote «Jannatiy ayollar» degan she'rida hazrati Yusuf alayhissalomga ko'ngil bog'lagan Zulayho, hazrati lyso alayhissalomning pokiza va siddiqa onalari Bibi Maryam, hazrati Payg'ambarimiz alayhissalomning jufti halollari Xadichai Kubro, qizlari Fotimai Zahro jannatiy bo'lishlarini bayon qiladi. Bu ma'lumotni shoir Qur'on sharhlari va hadislardan olgan.

*Sadoqatli to'rt ayol bor,
Behisht ichra kirar beshak,
Pokdir alar, ham taqvodor,
lymoniga keltirmang shak...*

*Har to'rtovin jannatda biz
Ko'rib, qancha madh etsak – kam.
Xotirjamu yosh-u quvnoq
Unda mangu yashar odam.*

Albatta, bu saodatmand ayollar qatorida Oishai Siddiqa roziyallohu anho ham borlar.

ABADIYAT BULOG'I

Atoqli olim Akmal Saidov Gyotening «G'arb-u Sharq devoni» o'zbekcha tarjimasiga yozgan so'zboshisida Najmiddin Komilovning hayratomuz so'zlarini keltiradi:

«Gyote nazdida Sharq adabiyoti va she’riyati, Firdavsiy, Shayx Sa’diy, Hofiz Sheroziy, Jaloliddin Rumiylarning ijodi – «Xizr chashmasi». U hamisha musaffo va ravon, undan hayot nafasi ufurib turadi. Bu ruh va ijod manbayi, muhabbat va qo’shiq saltanatidir. Sharq olamidagi yettita yulduz qatorida Sa’diy, Hofiz va Navoiyni sanar ekan, Gyote: «Men ularning soyasiga ham arzimayman», deydi.

...Gyotening «G’arb-u Sharq devoni»da barcha mavzularini birlashtirib turuvchi narsa, bu – Sharq she’riyatiga asos bo’lgan tasavvufiy qarashlardir. «Devon»ning barcha she’rlariga «O’lmasdan oldin o’linglar» degan hadisi sharif ma’nosi hamda «O’lgin va qayta tirilgin», degan tasavvufiy g’oya teran singdirilgan.

BIR NAFASDA IKKI NE’MAT BOR

Gyote o’z davrida Sa’diy Sheroziyning «Guliston» asaridan ham xabardor ekani anglashiladi.

*Nafas olmoq bilan nafas chiqarmoq –
Ikki ne’mat erur – bir nafasda, boq:
Biri – siquv bo’lsa, birisi – rohat,
Ular bois hayot bardavom, albat.
Allohga shukr ayt – kirganda nafas,
Shukr degil – nafas chiqqanida, bas.*

Sa’diy «Guliston»ida aytiladi: «Bir nafasda ikki ne’mat bor: nafas olmoq va nafas chiqarmoq. Har bir ne’mat uchun esa shukr keltirish vojibdir. Demak, bir nafas uchun ikki shukr vojib bo’ladi». So’ng Sa’diy hazratlari: **«Ey Dovud oilasi! (Allohga) shukr qilish**

uchun urininglar! Bandalarimdan (haqqoniy) shukr qilguvchi ozdir» (Saba' surasi, 13) degan oyat ma'nosini keltiradilar.

Sa'diy olamidan ogoh Gyote o'z devonida buyuk va go'zal islomiy haqiqatlardan juda uzoq bo'lgan bir xalqqa har bir nafas uchun ikki marta shukr aytishni tavsiya qiladi.

GYOTE E'TIROFI

Gyotening «Muhammad» (alayhissalom) degan mo'jaz badiasi olam ahlini hayratga solgan e'tirof namunasidir. U maqolada Qur'onning bashar so'zi emas, balki asl Ilohiy Kalom ekanini, hazrati Muhammad (alayhissalom) haq payg'ambar ekanlarini xotirjam qalb va komil ishonch-e'tiqod bilan bayon etgan. «Qur'on biror odam tomonidan yozilgan pand-u nasihat yoxud ermak uchun mutolaa etiladigan kitob emas, u ilohiy qonunlar majmuasidir», deydi buyuk adib. Yana oxirat g'oyasini bunday oshkor etadi: «Payg'ambar (alayhissalom) esa faqat bir nuqtaga ko'z tikadi – bu uning uchun aniq maqsadni ifodalaydi; unga yetmoq uchun eng oddiy vositalardan foydalanadi. U ma'lum bir ta'limotni e'lon etadi va xuddi bir bayroq ostida xalq boshini qovushtirgani misol, shu ta'limot atrofida odamlarni yig'moqni niyat qiladi» (*Olmon tilidan Sadriddin Salim Buxoriy tarjimasi*).

PUSHKIN VA QUR'ON

Buyuk rus shoiri Aleksandr Pushkin (1799–1837) Qur'oni Karimni farang tilida o'qigan, chunki u davrda

bu Ilohiy Kalom hali ruschaga tarjima qilinmagan edi. Buyuk shoir muqaddas Qur'on ma'nolaridan qattiq ta'sirlangan, shu ta'sir natijasida «Подражания Корану» («Qur'onga ergashuv») turkumi hamda «Пророк» («Payg'ambar») degan she'rni yozgan. Mazkur turkumda ushbu e'tirof satrlari bor:

*Muhammadga ul Rahmon Alloh
Nozil etmish muqaddas Qur'on.
Biz ham Nurga talpinaylik, to
Ko'zimizdan tarqasin gumon.*

«Qur'onga ergashuv» turkumi «Val-fajr» surasida kelgan qasam so'zlari bilan boshlanadi:

*Ont ichaman juft-u toq haqqi,
Qilich haqqi, g'azovat haqqi,
Ont ichaman men Zuhro haqqi,
Kechadagi ibodat haqqi...*

(Abdulla Sher tarjimasi)

Fajr surasi, 1–5-oyatlari ma'nosi: «(Tong otish chog'idagi) **subhga qasam**; (darajasi yuksak) **o'n kechaga qasam**; **juft va toq** (qilib yaratilgan narsalar) **ga qasam**, **o'tib borayotgan kechaga qasamki**, **mana shularda** (ibrat oluvchi) **aql egasi uchun** (yetarli bir-bir) **qasam** (qiymati) **bordir**».

She'rning xulosasi shuki, Yaratgan Zot O'zi yaratgan har narsa bilan qasamyod qilaveradi, inson esa Allohdan boshqasi bilan qasam ichishi durust bo'lmaydi.

PUSHKIN VASF ETGAN ODOB NAMUNALARI

«Qur'onga tatabbu'» turkumidagi «Rasululloh ayollari» degan she'r Ahzob surasining 28–35 va 53, Hujurot surasining 1–5-oyatlari, Mujodala surasining 12-oyati singari hazrati Payg'ambar alayhissalom bilan muomalada bo'lish va so'zlashish odoblari bayon qilingan oyatlarga asoslangan.

*Ey, Rasulning pok ayollari,
Ustuvorsiz jami ayoldan:
Sizga dahshat – fisq xayollari.
Siz orombaxsh go'sha ichra sha'n,
Ma'sum yashang: sizgadir meros
Bibi Maryam yopingan libos.*

Ahzob surasining 53-oyatida Haq taolo iymon keltirganlarga xitoban, hazrati Payg'ambar alayhissalomning uylariga vaqt-u bevaqt kiravermaslikni, magar bi-ror taomga chaqirilgan bo'lsalar, uzoq qolib ketmasdan, taomlanib bo'lgach, darhol tarqalishni, so'zga berilib ketmaslikni buyuradi. So'ng mo'minlar uchun Allohning Rasuliga ozor berish aslo mumkin emasligini bildiradi. Pushkin bu ma'nolarni jamlab aytadi:

*Sizlar esa, ey sahobalar,
Muhammadga bo'larkan mehmon.
Zinhor uni g'ayri yo'l tomon
Boshlamoqdan qiling tavbalar.*

«QANI, CHIQRAR QUYOSHNI G‘ARBDAN!..»

Aleksandr Pushkinning «Qur’onga tatabbu’» nomli benazir turkumining IV she’rida o’ziga podshohlik berilganidan hovliqib, tug’yonga ketgan hukmdor Namrudning ahvoli bayon qilinadi. Baqara surasining 258-oyatida bildiriladiki, u hazrati payg’ambar Ibrohim alayhissalomni o’z huzuriga chaqirib, u zot bilan tortishadi. Ibrohim alayhissalom: «Mening Rabbim O’z qudrati bilan ham tiriltiradi, ham o’ldiradi», desalar, u: «Men ham hayot beraman va o’ldiraman», deydi va bu da’vosini bir jinoyatchini ozod etib, bir begunohni o’ldirishi bilan o’zicha isbot etadi. Shunda Ibrohim alayhissalom: «Shubhasizki, Alloh quyoshni sharqdan chiqaradi, qani, sen uni g’arbdan chiqargin-chi!» – deydilar, shunda Namrud dovdirab, mulzam bo’lib qoladi. A.S. Pushkin bu voqeani she’riy tilda muxtasar ifoda qilgach, so’ng aytadi:

Lek Sendagi ilohiy shaxtdan

O’chdi osiy takabbur uni:

«Men chiqardim quyoshni sharqdan,

Qani, chiqar g’arbdan sen uni!»

Aleksandr Pushkin mazkur turkumga yozgan izohida aytadi: «Asl manbada (ya’ni, Qur’onda) Alloh hamma o’rinda O’z nomidan gapiradi, (hazrati) Muhammad (alayhissalom)ni esa faqatgina ikkinchi yoki uchinchi shaxs siyg’asida zikr qiladi (ya’ni, «Ey Payg’ambar!» deb yoki «U zot», «u Payg’ambar» deb so’z yuritadi)». Shoir mavzuga erkin yondashib, bevosita Yaratgan Zotga xitob qiladi. (Qavs ichidagi so’z va ifodalar kamina – M. Kenjabekka oid.)

IVAN BUNIN HUKMLARI

Ulug' rus shoiri va adibi Ivan Alekseevich Bunin (1870–1953) Rossiyaning Voronej shahrida tug'ilib o'sib, Fransiya poytaxti – Parij shahrida muhojirlikda vafot etgan. U Qur'onni g'oyat mo'tabar tutadi va Qur'on hukmlarini eshitmaydigan kimsani la'natga sazovor deb biladi:

*Проклят тот,
Кто веления Корана не слышит.
Проклят тот,
Кто угас для молитвы и битв, –
Кто для жизни не дышит,,
Как бесплодный геджас...*

Tarjimasi:

*U mal'undir,
kim Qur'onning farmonlarin tinglamasa.
U mal'undir,
kim ibodat va harblarga yaramasa;
Kim behosil xilqat kabi
hayot uchun nafas olib yashamasa...*

Turkiy-o'zbek adabiyotida hazrati Mavlono Lutfiy, Shayxzoda Atoiy, Alisher Navoiy ijodidan boshlab to so'nggi mumtoz shoirlar – Dog'iy va Faqiriy bayozlari-gacha ma'rifiy she'riyat ruhi yashab kelgan. Ulardan keyin ham bu an'anani davom ettirgan shoir va adiblar bor. Nasib etsa, Arba'iy turkumlari mavzuyida ularni eslab o'tamiz.

Bu so‘zlarning xulosasi shuki, shunday muqaddas, buyuk va o‘lmas manbalarning vorisi bo‘la turib, adabiy muhitimizda hanuz bu mangu buloqlardan bexabarlar, bebahralar bor. Yana u abadiy haqiqatlarini kamsitadigan, unga loqayd qaraydiganlar bor. O‘z hayotini pok va nurli nuqtalarga burish o‘rniga hamon g‘aflat va jaholat botqog‘iga botib yurganlar bor. O‘z olim va ustozlarimizning chaqiriqlari ularning vijdonini uyg‘otmaydigan bo‘lsa, Volfgang Gyote, Aleksandr Pushkin, Lev Tolstoy, Ivan Bunin, Gabriel Garsia Marques kabi jahon e‘tirof etgan daholarning ijod va e‘tiroflari ularning shuur, vijdon va iymonlarini uyg‘otishi kerak-ku, axir. Ayniqsa, yosh avlod bu hayotbaxsh manbalardan bebahra yurishi aslo mumkin emas. Bular abadiy mavzular bo‘lishi bilan birga har bir ijodkor uchun kamolot omillari hamdir.

TURKIY-O‘ZBEK ADABIYOTIDA ARBA‘IYN TURKUMLARI

O‘tgan suhbatlarimizda aytdik, devon adabiyoti, ya‘ni mumtoz she‘riyat XI asrda Movarounnahrda (bugungi O‘zbekiston zaminida) Qoraxoniylar davrida boshlangan bo‘lib, islomiy madaniyatdan bahra olgan, shu sababdan arab va fors manbalaridan ta‘sir topgan ma‘rifiy adabiyotdir. Qur‘oni Karim va hadisi sharif ma‘nolarini o‘ziga singdirgan bu mumtoz adabiyot «Majoz haqiqatning ko‘prigidir» degan hukmga asoslanadi, ya‘ni majoz yo‘li bilan haqiqatni kuylaydi.

Shuningdek, majozdan xoli va ayni haqiqat bo‘lgan adabiyot namunalari ham mavjudki, bularning eng

yorqin misoli Arba'iyin («Qirq hadis nazmi») turkumlaridir.

Darhaqiqat, adabiyotimizda «Arba'iyin» turkumlari bilan birga, go'zal islom fiqhini she'rga solish an'analari ham mavjud. Hazrat Navoiyning «Arba'iyin», «Siroj ul-muslimiyn», Zahiruddin Muhammad Boburning «Mubayyan», hazrati So'fi Allohyorning «Maslak ul-muttaqiyn» va «Sabot ul-ojiziyn», Xatmiy Toshkandiyning «Nazmu ul-Muxtasar» kabi asarlari buning dalilidir.

Bilishimcha, Arba'iyin an'anasi hazrati Mavlono Abdurahmon Jomiydan boshlangan. Jomiy forsiy nazm qilgan qirq hadisni hazrat Navoiy ham turkiy nazmga solib, yangi Arba'iyin tuzganlar.

XX va XXI asrda ham bu an'ana davom etdi. O'z davrida buyuk ustoz Abdulla Oripov mazkur mavzuni yuksak maqomga olib chiqdilar va «Hikmat sadolari» turkumi shoir ijodining gultoji bo'lib qoldi. Keyin Sirojiddin Sayyid, Shukur Qurbon, G'ayrat Majid, yosh shoir Mansur Jumayev o'ziga xos Arba'iyinlar tuzdilar.

Mahmud Toir o'z ijodidagi irfoniy ruhdagi she'rlarni saralab, «Uyg'oq dil» kitobini tuzdi va u Muftiy Usmonxon Alimov hazratlarining «Ko'ngildagi nur» sarlavhali sermazmun so'zboshisi bilan alohida kitob holida nashr etildi.

Demak, Abdulla Oripovning «Hikmat sadolari» va «Haj daftari» turkumlari, «Jannatga yo'l» dostoni va yuqorida zikr qilingan asarlar islomiy ma'rifat natijasi o'laroq maydonga keldi. Ya'ni, mazkur shoirlar o'lmas hayotiy manbalardan o'zlariga yarasha nasibalarini oldilar.

KURASHDA YIQITGAN PAHLAVON EMAS, NAFSINI YENGGAN PAHLAVONDIR

Hazrat Navoiyning «Arba’iyn»larida quyidagi go’zal nazm keladi:

*Emas ul pahlavonki, o’z qadrin
Bosh uza eltibon nigun qilg’ay.
Pahlavon oni bilki, etsa g’azab,
Nafsi ammorani zabun qilg’ay.*

Ya’ni: «O’z qadrini boshi ustida ko’tarish bilan uni egik va tuban qiladigan kishi pahlavon emas. Ammo g’azabi kelganida nafsi ammorani, ya’ni ko’p yomonliklarga buyuruvchi sarkash nafsini egib, bo’ysundirib olgan kishini haqiqiy pahlavon deb bil!

Ustoz Abdulla Oripovning «Hikmat sadolari»da quyidagi nazm keladi:

*Rasululloh dedi: – Ko’hnadir jahon,
Turfa xil kuch-qudrat bordir odamda.
Lekin o’z g’azabin yengolgan inson
Haqiqiy pahlavon erur olamda.*

Bu satrlar «Kurashda raqibini yiqitgan odam pahlavon emas, balki g’azabi kelganda o’zini qo’lga olgan odam pahlavondir» degan ma’nodagi hadisi sharifga tayanadi. Hazrati Imom Buxoriyning «Al-Jomi’ as-sahih» («Eng sahih hadislar to’plami») kitobida hazrati Abu Hurayra roziyallohu anhu rivoyat qiladilar:

«Rasululloh sollallohu alayhi va sallam dedilar: **«Bi-rovni (kurashda) yiqitgan odam pahlavon emas, balki g’azablangan vaqtida g’azabini yenggan odam pahlavondir»** (6114-hadis).

PAHLAVON MAHMUDNING PAHLAVONLIK SIRI

Mazkur hadis va she'rlarning sharhida hazrati Alisher Navoiyning «Nasoyim ul-muhabbat» asaridan 479-bobdagi «Pahlavon Mahmud – Pakkayor quddisa sirruh» manoiqlarini eslab o'tish juda o'rinlidir.

«(U kishi) Xevaql (shahri)dandir, laqabi Puryor deb mashhurdir, ba'zilar Pakkayor debdilar. Ammo Xevaql kishidan tahqiq va tashih qilindi – teran o'rganilib, haqiqat yuzaga chiqarildiki, laqabi Pakkayor degan so'zda qaror topdi, ya'ni barchaga birday yor va yordamchi bo'luvchi (Pakkayor)dir.

Yor qassobning o'g'lidir. Kurashchilikda saromad – ilg'or, yuqori shaxs bo'lub, ulug' shuhrat qozongan. (Tariqatda) yashirin suluk va riyozati ham bor ekan, andoqi, fayz olamidan ko'ngliga bahra va nasiba yetgan ekan. Tab'i ham yaxshi edi. Yana she'r yozar edi.

Bir gal Hind mulkidan bir zargar Hind podshohidan xabar keltirib, Pahlavonga so'z izhor qilib, iltimos yetkazibdi. Pahlavon bu ruboiyni o'qibdi, ruboiy:

*Zargarbachae zi guft rahi Mo'ltonro,
Ovard ba man qo'idai sultonro.
Z-onjoki manu himmati yoroni man ast,
Yak jav naxaram chunai Hindustonro.*

Tarjimasi:

*Zargar bola anglatdi rahi Mo'ltonni,
Kelturdi manga qo'idai sultonni.
Har qayda menu yoronim himmati bor,
Bir arpaga olmam ul Hindustonni.*

Bayoni: «Zargar bola Mo‘lton yo‘llaridan gapirdi, sul-tonning talabini menga yetkazdi. Qayerda men bo‘lsamu do‘stlarimning himmati bo‘lsa, Hindistonni ham bitta arpaga sotib olmayman».

Ammo g‘oyibdan unga «Borish kerak» degan ishorat yetdi. Hindistonga azm qilib, bordi. Hind mulki podshohining bir kurashchisi bor edi, Pahlavonni u bilan kurashga solish uchun chaqirgan ekan. Bu so‘zni Pahlavon bilan mu-loqot qilganidan keyin izhor qilib, shunday qaror qilinibdi-ki, ertaga xaloyiqni jamlab, kurashga tushadilar.

Kechasi Pahlavon o‘z qoidasiga ko‘ra (ehtiyojmand bo‘lib) yolvorgan holda mozoriston ziyoratiga borib, o‘z murodini Allohdan so‘rab turganida, ko‘ribdiki, yarim kechada bir buzurgning mozorida bir qari zaifa kam-pir ko‘p dod-fig‘on va tazarru’ bilan: «Xudoyo, bu kel-gan pahlavon kurashchi ma‘rakasidan mening o‘g‘limni sharmanda qilib chiqarmagaysan!» – deb Tangriga mu-nojot qilib yalbormoqda edi.

Pahlavon bilibdiki, u o‘sha kurashchining onasidir, o‘z-o‘ziga: «Ertaga o‘sha kurashchining qo‘lida yiqilib beraman», deb qaror qilibdi.

Ertasi podshoh ulug‘ ma‘raka tuzib, Pahlavonni cha-qirib, u kurashchi bilan kurashga solganida, Pahlavon o‘ziga o‘zi qaror qilganidek, bir-ikki hamla qilib talash-ganidan keyin, uning qo‘lida yengil yiqilibdi.

Shunday naql qilinadiki, yelkasi yerga tegib, ko‘zi os-monga tushgach, (ko‘zidan) hijoblar – pardalar ko‘tarilib, malakut olami – Ilohiy saltanat olami ko‘ziga jilvagar bo‘libdi. U podshoh ham murod-u maqsadiga yetibdi. Ammo Pahlavonni o‘zi chaqirtirib, taklif bilan keltirgani uchun, mubolag‘a bilan rioyat va hurmat-ehtiroom ko‘rsatib, suhbatdoshlik yo‘li bilan yashab turar ekan.

Bir kun (Pahlavonni) ovga taklif qilib, o'zi bilan eltganida, tog' ovi ekan, ovning ortidan quvib borayotganida, ov qoyadan pastga uchib tushibdi, podshoh ham otinning jilovini saqlay olmasdan, ikki oyog'i kamar qirog'ida qolib, ikki qo'li xato bo'lganida, Pahlavon u bilan birga ekan, darhol qo'lini cho'zib, otini minuvchisi bilan birga dast ko'tarib, tekis yerga qo'yibdi. Podshoh hayratlanib: «Buncha haddan ortiq kuching bilan u kurashchidan yiqilganing ajablanarli ish-ku!» – deydi. Shunda Pahlavon ushbu ruboiyni o'qiydi:

*Gar bar sari nafsı xud amiyri – mardı,
Dar yod giri nukta bigiyri – mardı.
Mardi nabuvad fitodaro poy zadan,
Gar dasti fitoda bigiyri – mardı.*

Tarjimasi:

*Gar nafsing uchun hokim erursan – mardsan,
Ibrat bo'lajak so'zni etursan – mardsan.
Har kimki yiqilganni tepar – mard emas,
Gar kim yiqilur, qo'lni tutarsan – mardsan.*

Podshoh (u kishidan duolar so'rab) ko'p niyozmandliklar – hojatmandliklar ko'rsatadi. Pahlavon qaytib, Xevaqqa keladi. Qabri Xevaqdadir. (Xevaq – bugungi Xiva shahri.)

Haq taolo bizga, ya'ni xalqimizga istiqlool ne'matini ato qildi, muqaddas islom dinimiz talablari asosida yashash baxtini nasib etdi, vijdon erkinligi qaror topdi. Bu dinning qiyomatgacha biror harfi va nuqtasi o'zgarmaydigan muqaddas Kitobi, Qur'on mo'jizasiga noil bo'lgan Payg'ambari, haq va botilni ajratib beradigan shayx va olimlari bor. Adasha-adasha hidoyatni – to'g'ri yo'lni

topdik. Endi adashsak, qayga boramiz? Abdulla Oripovning «Haj daftari»dan qit’a:

*Kezib bu shaharni balki horgaysan
Va lekin Allohga diling yorgaysan.
Adasha-adasha Makkani topding,
Endi adashsang gar, qayga borgaysan?!*

MA’NAVIY-E’TIQODIY TAMOIYILLARGA HURMAT SAQLASHNING ZARURLIGI

Diniy mavzudagi noto‘g‘ri va keskin qarashlar insonlarning ehtirosini qo‘zg‘ovchi bo‘ladi va kutilmagan ixtiloflarni keltirib chiqaradi. Har bir ijodkor, ayniqsa, xonanda va qiziqchilar diniy-e‘tiqodiy mavzularni ermak qilishdan saqlanishlari zarur.

Diniy qoida va tamoyillardan bexabar bo‘lgan kishi millati, dini, jinsidan qat’i nazar, o‘z sezgisi, shuuri, vijdon taqozosi bilan insoniyatning e‘tiqodiy tamoyillarini haqorat qilmasligi, unga oddiy bir inson sifatida hurmat ko‘rsatishi zarurdir. Jahon adabiyotining eng mumtoz namunalarida talab doimo ana shunday bo‘lib kelgan. Bizning O‘rta Osiyo xalqlarida esa dinga, iymon-e‘tiqodga, ilmga, olimga, masjidlarga nisbatan hurmat saqlash milliy madaniyat darajasida yuksalgan. Lekin dunyo adabiyotida shunday qalamkashlar o‘tganki, o‘rni kelsa-kelmasa, din haqiqatlarini tahqirlashga harakat qilganlar.

Velimir Xlebnikov (1885–1922) – iste’dodli rus shoirlaridan biri. Qamrovi keng shoir u. Lekin uning ko‘ziga islom dinining vakili hisoblangan mulla «quturgan shaxs» bo‘lib ko‘rinadi:

*«Ручей с холодной водою,
Где я скакал, как бешенный мулла,
Где хорошо...»*

Tarjimasi:

*«Muzdek suvli jilg'alar,
men ulardan hatlab o'tdim quturgan mulladek,
qayer bo'lsa qulayroq...»*

«Mulla» degan soʻz sharq olamida ehtirom omilidir. Hazrati Mavlono Abdurahmon Jomiy – Mulla Jomiy deb ataladilar. Hazrati Navoiy «Xamsatul-mutahayyirin» asarida u zotning maʼnaviy martabalari haqida soʻzlab: «Pokiza holatlari Malomatiya tariqini shoirliq va mullo-liq tariqida yashurun tutarlar erdi», deydilar. Ilohiy ishqning otashin kuychisi Boborahim Mashrabning otalari Valiybobo «Mulla Valiy» deb nom qozonganlar yoki u zotning ustozlari Mulla Bozor Oxund – devona, yaʼni Haq oshigʻi «Mulla» degan nom bilan ulugʻlanganlar. Hazrati Mavlaviy Hindistoniy ham ilm ahli orasida «Mulla Hindistoniy» deb mashhur boʻlganlar.

Endi Velimir Xlebnikov sheʼriga kelsak, nima uchun aynan «quturgan mulladek» hatlayotir muallif? Balki biror mulla Xlebnikovning oilasiga noxush muomala qildimikin, deb oʻylaysiz. Yoʻqsa, nega «mulla» degan soʻzga kelganda shoir quturish va dargʻazablikni ifoda etayotir? Bunday tahqirlovchi ifodalar dunyodagi hech bir shoir zotiga yarashmaydi!

Shoir Tursun Ali bu sheʼrni oʻzbekchaga tarjima qilgan, undagi «бешанный мулла» iborasini biz «dargʻazab mulla» deb olishni maqbul koʻrdik. Toki sheʼrni oʻqigan musulmon xalq shoirdan nafratlanib, gʻazabga kelmasin.

HAYVONNI ALDASHDAN QAYTARGAN TA'LIMOT

Muqaddas islom dini o'z Ilohiy manbalariga ega bo'lgan abadiy dindir. Qur'oni Karim, «Kutubi sitta» – «Olti sahih hadislar kitobi», «Kutubi tis'a» – «To'qqiz ishonchli sahih hadislar kitobi», «Sahihlar», «Sunanlar», «Musnadlar», yana «Riyozus-solihyn» («Yaxshilar gulshani»), «Romuzul-ahodis» («Hadis ma'nolari dengizi») kabi yuzlab hadis kitoblari, minglab tafsir, fiqh va odob kitoblariga ega bo'lgan va hukmi to qiyomat kunigacha davom etadigan asl Ilohiy din bu.

Hazrati Imom Buxoriy muborak kitoblari uchun hadis jamlaganda, bir insonning nafaqat o'zi, hatto, otasi yoki bobosi yolg'on gapirgan bo'lsa, o'sha odamdan hadis olmaganlar. Xususan, ul zot bir gal uzoq manzilga zahmat chekib borgach, go'yo etagida yem bordek qilib, otni aldab chaqirayotgan kishidan hadis olmay, orqaga qaytganlar, g'iybatdan saqlanganlar va: «G'iybat borasida Alloh taolo meni so'roq-savolga tortmasligidan umidim bor», deganlar.

Muoviyya ibn Abu Sufyon (roziyallohu anhu)ning o'g'li – Yazid ko'p nohaq xunrezliklar qilgan, lekin hayotining oxiridagi ba'zi yaxshi ishlari tufayli dinimiz insonlarni unga la'nat aytishdan qaytargan. Buyuk shoir va alloma Sirojuddin Usmon O'shiy «Omoliy» manzumasida yozadilar:

*Yazid o'lgach, hech kim demadi la'nat,
Desa der had bilmas biror so'zamol.*

Ulug' shayx va alloma Muhammad Zohid Qo'tqu ibn Ibrohim al-Bursaviy: «Yazid kabi bir insonga la'natni ravo ko'rmagan bu pok dindan yana qanday ayb qidirasiz!» – deydilar.

LEV TOLSTOYNING BIRLIK VA DO'STLIK TALABLARI

Haqiqiy san'at asari hayot haqiqatiga asoslanishi, xalqlar, millatlar, dinlar o'rtasida ixtilof va fitnalarga sabab paydo qilmasligi kerak. Buyuk o'zbek adibi Shukur Xolmirzaev «Tanholik» asarida buyuk rus yozuvchisi Lev Tolstoyning ushbu so'zlarini keltiradi: «Nega Allohning panohida hamma erkin, bir-biriga do'st bo'lib yashamasligi kerak? Yo'q, ana shunday yashashi lozim. Sevgi! Hamma harakatlarimizning zamirida shu – sevgi yotishi kerak. San'atning eng ulug' vazifasi esa – insonlarni birlashtirish, bir-biriga birodar qilishdan iborat».

DANTENING DUNYOGA FOSH BO'LGAN SIRLARI

Mashhur italyan shoiri Dante Aligerining «Ilohiy komediya» asari haqida jahon adabiyotshunosligida shunday mudhish so'zlar borki, u so'zlarni qabul qilishga bizning muhitimizda o'quvchi tugul, ehtimol, uncha-muncha adabiyotshunos olimlar ham tayyor emasdir, deb o'ylayman. Lekin bugungi kunda xalqimizga va yoshlarga dunyo eshiklari ochilib ketgan, olam ahlidan yashiriladigan sir qolmagan. Dante asarining sirlari

ham qachon bo‘lsa-da, ochilmay iloji yo‘q. Baribir, bor haqiqatni qachondir, kimdir o‘rtaga tashlaydi.

Dantening «Ilohiy komediya» asari yuksak san‘at namunasi, italyan adabiyotining nodir epik she‘riy asari sanalishi bilan birga, dunyo xalqlari orasiga fitna va nifoq solgan asar sanaladi. Asar «Do‘zax», «Arosat» va «Jannat» kabi uch qismdan iborat. Ayniqsa, kitobning «Do‘zax» qismi 28-bobida misli ko‘rilmagan bo‘hton narsalar to‘qilgan va jahon olimlarining haqli e‘tiroz-u ixtiloflariga sabab bo‘lgan.

Har bir ziyoliga ma‘lum, adabiyotda badiiy to‘qima, mubolag‘a degan gaplar bor. Lekin har qanday majoz, badiiy to‘qima va mubolag‘a zamirida haqiqat bo‘lishi shart. Ayniqsa, diniy mavzular yolg‘onni va bo‘htonga asoslangan badiiy to‘qimani ko‘tarmaydi.

Agar badiiy asarga diniy mavzular asos qilib olinadigan bo‘lsa, mualliflar juda ehtiyot bo‘lishlari, bilmagan narsalarini qalamga olishdan saqlanishlari, bashariy aqli qamramagan masalalarda asl haqiqatdan chetga chiqmasliklari lozim. Ko‘p asrlik adabiy yodgorliklar ham ilohiyot mavzularida badiiy adabiyotga xos bo‘lgan mubolag‘a san‘ati ish bermasligini isbot etadi.

«ILOHIY KOMEDIYA»GA OID XOLIS MA‘LUMOTLAR

1. Asar O‘rta asr va Uyg‘onish davri orasidagi o‘tish bosqichida yozilgan, unda go‘yo o‘limdan keyingi hayot tasvirlangani sababli g‘arb cherkovlari tarafidan maqbullangan. Asarning asl nomi «Komediya» bo‘lib, keyinchalik – 1360-yilda mashhur adib Jovani Bokachcho

unga «ilohiy» degan soʻzni ilova etib, asarni xristianlashtirgan, yaʼni unga nasroniylik ruhini bergan.

2. Dante, hayot haqiqatiga xilof ravishda, oʻz asarida oxir zamon Paygʻambari, barcha nabiyar imomi, butun insoniyatga va jin qavmiga Rasul boʻlgan zot, koinotning sayyidi, yaralmishlarning eng xayrlisi, Allohning habibi, butun olamlarga rahmat qilib yuborilgan hazrati Muhammad sollallohu alayhi va sallamni oʻzicha doʻzaxga hukm qiladi va goʻyo ichak-chovoqlari osilib tushib, qattiq azoblanayotgan holda tasviraydi.

3. Dante oʻzicha ulugʻ sahoba, chahori yorning toʻrtinchilari, janobi Paygʻambarimiz alayhissalomning kuyovlari, xulafoi roshidiyn, yaʼni xalqni eng toʻgʻri yoʻldan boshlagan xalifalarning birlari, hayot mahallaridayoq jannatiy ekanlari bashorat qilingan, buyuk ilm shahri-ning darvozasi boʻlgan hazrati Ali roziyallohu anhuri ham oʻz ojiz aqlicha doʻzaxga hukm qiladi va boshlari ikkiga boʻlinib, qattiq azoblanayotgan holda taʼriflaydi.

4. Gʻarb va Turkiya tadqiqotchilarining oʻrganishi-cha, insoniyatga koʻplab foydasi tekkan bir qancha mashhur kishilarni Dante faqat xristian boʻlmaganlari uchun doʻzaxga hukm qiladi va doʻzaxning oydin joyi boʻlmish Alt Limbusda deb tasvirlaydi. Bularning avvalgilari: Homer, Horatsio, Ovidiy, Lukano, Yeлектро, Hektor, Salohuddin Ayyubiy, Suqrot, Aflotun, Diogen, Tal, Herakliy, Demokrit, Zenon.

5. Turk adabiyotshunoslarining fikriga koʻra, «Ilohiy komediya»ning uch qism qilib va har bandi uch satrdan iborat uchlik tarzida yozilishiga sabab, Dante bunda nasroniylarning keyingi toifasiga xos boʻlgan taslis, yaʼni «uchlik» aqidasini asos qilib olgan. Ularning fikricha, Iloh uch unsurdan – Ota (yaʼni, Alloh), Oʻgʻil (Iyso

alayhissalom) va Muqaddas Ruh birlashmasidan iborat emish. Bu «Taslis» e’tiqodi Qur’oni Karimning Niso surasi, 171-oyatida botil e’tiqod sifatida qoralangan va Allohning yakka-yagona ekanligi bildirilgan.

Niso surasi, 171-oyat ma’nosi: **«Ey Ahli Kitob! Dinigizda haddan oshmanglar. Alloh haqida haqiqatdan boshqa narsani so’zlamanglar. Maryam o’g’li Iyso Masih faqat Allohning Rasuli va Maryamga yuborган «Bo’l!» degan so’zi(ning asari)dir va (Jabroil orqali) Uning tarafidan (yuborilgan) bir ruhdir. Allohga va Uning rasullariga ishoninglar, «(Alloh) uchta» demanglar, o’z yaxshiligingiz uchun buni to’xtatinglar. Alloh bir ilohdir. U bolasi bo’lishdan tamoman pok va munazzahdir – shoni oliydir. Osmonlarda va yerda bor narsalar(ning hammasi) Unikidir. (Tasarruf qiluvchi va saqlovchi) vakiyl o’laroq Alloh kifoyadir».**

Nasroniylar milodiy 325-yilda Imperator Konstantinosning ta’siri bilan «taslis» deyilgan «uchlik bir iloh» tushunchasiga o’tgan edilar. Ularning fikricha, Alloh – ota-o’g’il va muqaddas Ruhdan iborat emish, ya’ni Alloh bu uch unsurdan tarkib topgan emish. Shuning uchun bularning bittasi – bir iloh, yana uchovi – birdan yagona iloh emish. Shunday qilib, ular bu munozarada shirkka tushib, haq yo’ldan ozganlar.

Bunday botil e’tiqod yana Moida surasining 17, 72–73-oyatlarida ham oshkor etilgan. Lekin nasroniylarning o’zlaridan chiqqan yangi davr olimlari bu «uchlik» e’tiqodining noto’g’ri ekanini, hazrati Iyso alayhissalom Xudo emas, inson bo’lganliklari, taslis – uchlik e’tiqodining «Injil»da mavjud emasligi, «Injil»ni o’z qo’llari bilan o’zgartirib, buzib chiqqanlarini isbot etib, insonlarni Allohning tavhidiga chorlaganlar.

6. 1300-yillarda Shimoliy Italiyada siyosiy va diniy bo'linishlar yuz beradi. Dante papalikni yoqlagan shaxslardan biri edi. U 1302-yilda Qora Guelflar bilan ittifoqdosh bo'lgan Papa VIII Bonifake buyrug'i bilan umrbod surgunga hukm qilinadi va Papa: «Agar Dante mamlakatga qaytadigan bo'lsa, qoziqqa bog'lab, olovda yoqiladi», degan hukmni e'lon qiladi. Shunday qilib, Dante umrbod surgunda qoladi va «Komediya»ni o'sha davrda yozadi. Alamzada shoir o'z asari orqali dushmanlaridan o'ch olishga urinadi va ularni la'natlaydi. Lekin o'zi surgunda xor-zorlikda vafot etadi.

7. XX asrning boshlarida «Ilohiy komediya»ni turk tiliga tarjima qilishga ruxsat so'ralganida buyuk Usmoniylar davlatining so'nggi sultoni Abdulhamidxon II (1842–1918) bu kufr to'la asar tarjimasiga ruxsat bermagan va qattiq qarshilik ko'rsatgan.

8. Pokiston adabiy jurnallaridan biri 1975-yilda «Ilohiy komediya»ning o'zbek tiliga tarjima qilingani haqida tanqidiy maqola chop etgan va «Imom Buxoriyning yurtida iymonga va islomga qarshi asar nashr etildi», deb manfiy fikr bildirgan.

9. «Ilohiy komediya»ning «Do'zax» qismi o'zbekchaga tarjima qilinib, nashr etilganidan keyin bir necha yil o'tib, mustaqillik davrida Buxoro ulamolari tomonidan O'zbekistonning birinchi Prezidentiga tarjimon ustidan shikoyat va norozilik xatlari yozilgan. Shuningdek, asar tojik tiliga tarjima qilingach, bir necha yil o'tib, mustaqillik davrida Samarqand va Buxoroning ba'zi din olimlari O'zbekiston Prezidentiga shikoyat xati yo'llaganlar.

Xullas, bilmas ekanmiz, bu asar jahondagi ko'plab fitnalarga sabab bo'lgan ekan.

28-BOB BANDLARINING MAZMUNI VA MUQADDIMASI

Butun dunyodagi sog‘lom aql egalarining nafrati va g‘azabini qo‘zg‘agan narsa asarning 28-qo‘shig‘i (ya‘ni, bobi) mazmunidir. Uning muqaddimasida ruscha tarjimadagi matnlarga tayanib, «nifoq va nizo urug‘i», «takrorlanuvchi jazo» haqida so‘zlanadi. Bu jazo maydonida go‘yo Dante hazrati Muhammad payg‘ambar (alayhissalom), hazrati Ali, Medichi, Kurion, Moska, Born singari zotlarni «mislsiz azoblanayotgan holda uchrtar» emish. Shoir Allohning g‘azabidan ham, bashariyat nafratidan ham qo‘rqmasdan, noxush misralarni tizadi. Dantening bu tasvirlari puch va asossiz aqida o‘laroq butun dunyo islom ziyolilari tomonidan rad etilgan.

«Komediya»ning 28-bob, 31-bandi izohida «O‘rta asrlarda xristian diniga raxna solgan zot» (?!), «dastlab xristian dinida bo‘lgan» (?!), «tutqanoq dardi» (?!), «boshidan shamshir yeb o‘lgan» (?!), «do‘zaxda boshi qoq ikkiga bo‘lingan» (?!), «bu parchalanishni anglatuvchi ramz» (?!) kabi aqlga va tarixiy haqiqatlarga to‘g‘ri kelmaydigan so‘zlar tizilgan. Cheksiz jaholat va haqorat natijasi bo‘lgan bu so‘zlar sog‘lom aqlidan chiqadigan gaplar emasligi bugungi kunda butun bashariyatga ma‘lum.

«ILOHIY KOMEDIYA»NING TURKCHA TARJIMASIGA RUXSAT BERILMAGANI SABABI

Turk tadqiqotchi olimlari yozadilar: «Turkiyada Sulton Abdulhamid II (1842–1918) zamonida Dantening asarini tarjima qilish soʻralgan, lekin Sulton Abdulhamid, bu kufr toʻla asar, deya oʻta keskin qarshi chiqqan. Buning sababi ushbu satrlarda yashirindir».

Shundan soʻng Toʻqqizinchi qopqadagi mudhish hollar, janob Paygʻambarimiz alayhissalom haqlaridagi «ichaklari osilib tushgan» (?!), «labdan to dumgʻazagacha ochilib qolgan» (?!), «aylana azobida qolgan» (?) degan boʻhtonlar bayon qilinib, soʻng:

*«Bundagi mahkumlar hayot mahali
Jahonga solgandi nifoq va nizo,
Endi jazo tortar, kelmishdir gali» –*

degan joygacha misol keltirilgan. Soʻz oxirida maqola muallifining bunday xitobi ham bor: «Ha, azizim, islom olamining Paygʻambari uchun bunday tubanlik safsatalari mujassam boʻlgan kitobning Turkiyada musulmon jamoasidan qarshilik koʻrmagani juda achinarli hodi-sadir. Islom Paygʻambarining doʻzax tubida tilga olib boʻlmas holda tasvirlagan bir kitob haqida soʻzlamoqdamiz» (Turk tadqiqotlaridan).

Maqola muallifi yer yuzidagi dushman toifalar janob Paygʻambarimiz alayhissalomni haqoratlash, hajv va karikatura qilishni Dante asaridan oʻrganganiga ishora qiladi. Soʻng 2017-yilda «Charlie Hebdo» («Charlio Heb-

do») degan jurnal janob Payg‘ambarimiz alayhissalomni karikatura qilgani uchun butun dunyo oyoqqa qalqiganini, shundoq ekan, «Ilohiy komediya» degan bu asardan ko‘z yumish mumkin emasligini, karikatura qilgan shaxslar hayoti fojiali o‘lim bilan (portlatish natijasida) yakun topganini eslatib o‘tadi.

«ILOHIY KOMEDIYA»NING URUSH TAHDIDIGA SABAB BO‘LGANI

«Ilohiy komediya» tufayli jahonda urush o‘chog‘i ochilishi va xunrezlik boshlanishiga oz qolgan. XX asrning boshlarida Fransiyada «Komediya»ning 28-qo‘shig‘i sahnalashtirilgan va sayyor tomosha tashkil etilib, butun Yevropa bo‘ylab namoyish etilishi e‘lon qilingan. Shunda Sulton Abdulhamidxon II Istanbuldagi Fransiya elchixonasiga tashrif buyurib, agar bu tomosha amalga oshiriladigan bo‘lsa, Turkiya Fransiya qarshi urush ochajagini bildirgan. Holbuki, u mahalda Fransiya dunyodagi hukmron kuchlardan biri edi. Bu ma‘lumot ijtimoiy tarmoqlarda e‘lon qilingan. Kimga batafsil ma‘lumot kerak bo‘lsa, izlab ko‘rish mumkin.

BASHARIYAT ADIBLARI UCHUN XULOSA

Bu dalil va misollarni nima uchun keltirdik? Oq va pok qog‘oz yuzini nima uchun noloyiq, noxush so‘zlar bilan qoraladik?

Biz yosh ijodkorlar bilan suhbat qurmoqdamiz. Yoshlarga dil so‘zlarimizni bayon etmoqdamiz. Xulosa shuki,

insoniyat e'tiqodini haqoratlaydigan, xalqlar, mamlakatlardan, dinlar o'rtasida janjal va fitna qo'zg'aydigan asar har qancha san'atkorona yozilgan bo'lsa-da, ma'nau san'at asari hisoblanmaydi. Adabiyotning vazifasi fitnakorlik emas.

Qur'oni Karimda shunday go'zal oyat borki, ma'nosiga ko'ra unda: «Bir qavmni yomon ko'rsangizlar, unga xusumatlik bo'lsangizlar, bu yomon ko'rishingiz va xusumatigingiz sizlarni adolatsizlik qilishga undamasin», deyiladi.

Islom dini haq din va hazrati Muhammad alayhissalom haq Payg'ambardirlar. O'z nohaq aqidalari uchun haq narsani tahqirlash bashar xulq-u odobi doirasidagi ish emas.

Bas, qachon oq qog'ozga yuzlansak, ilohiy va bashariy haqiqatni, insoniyatni bir-biriga do'st va muhabbatli qiladigan so'zlarni tizishni niyat qilmog'imiz lozim ekan.

Muqaddas islom dini va Allohning haq Rasuli sharofati bilan butun dunyoda zulm va nohaqlik barham topdi, quldorlik tuzumi tugadi, xotin-qizlarni cho'ri qilib xor-zor etish bartaraf etildi, keksalar va bemorlarga nafaqa tayin qilish islom sharofati bilan hazrati Umar roziyallohu anhu davrlaridan qaror topdi, adolatli janglarda ham keksalar, ayollar va bolalarga ozor bermaslik qoidasi o'rnatildi, yer yuzida insonlarni olovda yoqib jazolash tugatildi, holbuki, nasroniylar yaqin-yaqingacha necha-necha ulug' insonlarni olovda yoqib jazolar edilar. Islom dini: «Olovda yoqib jazolash – olovni yaratgan Zotga xos!» deb e'lon qildi va olovda yoqib o'ldirishni to'xtatdi.

Muqaddas islom dini tufayli oila, nasl, mol-u jon, aql va iymon muhofazaga olindi.

Yolg‘onchidan hadis olmagan, umrining oxiri yaxshilik bilan tugagan zolimga la‘nat o‘qishni ravo ko‘rmagan, hayvonni aldashni yoqlamagan, faqat insonlarga emas, balki butun mavjudot-u maxluqotga rahm-shafqat ko‘rsatishni ta‘lim qilgan bu muqaddas dinga bo‘hton qilish qalamkash zotiga yarashmaydi.

Bizning kamtarin xulosamiz ana shundan iboratdir.

DANTENING BO‘HTONINI GYOTENING HAQIQATI BILAN INKOR ETISH

Buyuk va nekbin olmon shoiri, adibi va mutafakkir Yohan Volfgang Gyote, italyan shoiri Dantedan farqli o‘laroq yozadi:

«Qur‘on biror odam tomonidan yozilgan pand-u nasihat yoxud ermak uchun mutolaa etiladigan kitob emas, u Ilohiy qonunlar majmuasidir».

Olamlarga rahmat qilib yuborilgan hazrati Muhammad alayhissalomni Dante «nizo urug‘ini sochgan», «xristian diniga raxna solgan» zot deb bilsa, Gyote u zotni olamlarga rahmat qilib yuborilgan va insoniyatni yagona bir dinda birlashtirgan zot, deb biladi. Mana, buyuk adibning so‘zlari:

«Payg‘ambar (sollallohu alayhi va sallam) esa faqat bir nuqtaga ko‘z tikadi – bu uning uchun aniq maqsadni ifodalaydi; unga yetmoq uchun eng oddiy vositalardan foydalanadi.

U ma‘lum bir ta‘limotni e‘lon etadi va xuddi bir bayroq ostida xalqning boshini qovushtirgani misol, shu ta‘limot atrofida insonlarni birlashtirishni niyat qiladi».

Gyote Qur‘oni Karim haqida yozadi:

«Butun Qur'onning mazmuni qisqa suxanda chuqur, ulkan mazmunni ifodalashdan iborat bo'lib, bu ikkisi suraning quyidagi oyatlarida o'z ifodasini topgan: «Behad mehribon va benihoyat rahmli Alloh nomi bilan boshlayman».

Va shu haqda bir surada qayta-qayta takrorlanadi. E'tiqod va e'tiqodsizlik tubanlig-u yuksaklik kabi taqsimlangan: jannat tavba qilganlar uchun, do'zax esa inkor etguvchi munkirlar uchun hozirlab qo'yilgandir. Qur'onning eng ulug' maqsadi – o'sha davrda Arabiston hududida yashayotgan uch din tarafdorlarining boshini bir yerga qovushtirishda ko'rinadi.

Shu sababli, bu muqaddas Mushafga iymon keltirganlar Qur'onni odam yozmagan, balki u abadiy, xuddi Alloh kabi abadiy bo'lgan deb hisoblaydilar».

Gyotening bu haqqoniy so'zlarini kim ham inkor eta olar edi?

BUTPARASTNING BUTINI SO'KMANG...

Yaratgan Zot O'z muqaddas Kalomida mo'minlarga butparastlarning butini so'kmaslikni ta'lim qiladi. An'om surasi, 108-oyat (ma'nosi): **«Ularning Allohdan boshqa (qiymat berib) topinadigan narsalarini (ya'ni, butlarini haqoratlab) so'kmanglar. Yo'qsa, ular (ham) nodonlik bilan hadlaridan oshib Allohni so'kib qo'yadilar. Biz har bir ummatga o'z amalini ana shunday ziynatli (jozibali) ko'rsatdik. So'ngra ularning qaytishlari yolg'iz Rabbigadir. Shunda U zot ularga (dunyoda) qilgan amallarining xabarini berur».**

«Fayzul-Furqon» izohidan: «Sizlar mo‘minlar o‘laroq, u butparastlarga faqat Islomning xislat va go‘zalliklaridan gapiringlar. Ular iloh qilib olgan but va boshqa narsalarini yomon so‘zlar bilan so‘kmasdan, u narsalarning botil – behuda, shirk va kufr ekanini munosib so‘zlar bilan tushuntirish va qoralash lozim. Aks holda, ular g‘aflat bosib, o‘z noto‘g‘ri ishlarini tasdiqlashga o‘tib olishlari mumkin».

Buyuk alloma Ismoil Haqqiy Bursaviy «Ruhul-bayon» kitobida yozadilar:

«Bu oyatdan anglashiladiki, osiylik va gunohga yo‘l ochadigan ishlarni (toatni) tark etish vojibdir. Butlarni so‘kish bir jihatdan toat bo‘lgani holda, ko‘p ulkan gunohlarga sabab bo‘lgani uchun, masalan, Allohni va Payg‘ambarni so‘kish va bilmagan holda gunoh eshiklarini ochishdek harakatga bois bo‘lgani uchun, Alloh taolo tarafidan taqiqlanmoqda».

Butparastning butini so‘kishga ruxsat bermagan bu muqaddas dinning qolgan qaysi jihatidan nuqson qidirish mumkin? Dunyo keng, boringki, bir sarkash shoirning iymoni bo‘lmasa ham, lekin insofi va bashariy vijdoni bo‘lishi kerak-ku, axir!

MA’NAVIY OMILLARNI HAJV QILUVCHILAR...

Aziz va sevimli yosh do‘stlarim!

Ijodkor odam har bir fe‘li, har bir so‘zi, har bir asari bilan xalq va millat birligini saqlashga harakat qilishi, odamlar, xalqlar, dinlar o‘rtasiga fitna va ixtilof solishdan, aholining tinchligi va totuvligini buzishdan saqlanishi zarur.

Ba'zan oynayi jahondagi ko'rsatuvlarda, ba'zan hikoya yoki maqolalarda ma'naviy-e'tiqodiy, diniy mavzularni hajv qiluvchi lavhalarga shohid bo'lamiz. Oldin aytganimizdek, bu ish, avvalo, insonlik va vijdon erkinligi tamoyillarini hurmat qilmaslik bo'ladi, ikkinchidan, diniy mavzulardagi nолоyiq chiqishlar ehtirosni qo'zg'ovchi, insonlarning tuyg'ularini junbushga keltiruvchi bo'ladi. Bunday hajv va masxaralar aholining ahilligi, tinchligi va totuvligiga putur yetkazadi. Qalamkash bunday nozik mavzularga ehtiyotlik bilan yondashishi lozim.

Masalan, yaqin o'tmishdagi gap: oynayi jahonda Munkar va Nakir farishtalar siymosida ba'zi yuzsizlar qabrdagi so'roq-savolni masxara qilyapti. Yana mustamlaka emas, mustaqillik zamonida! Bu shaxslar eng sahih hadislarini, o'z muborak kitobida bu mavzuni darj etgan hazrati Imom Buxoriyni masxara qilishga jur'at etishdimi? Yoki bular Imom Buxoriy, Imom Termiziydan ko'ra donoroq bo'lib qolishdimi? Ey inson, seni kim bunga majbur qildi? Balki rahbarlarga, balki shaytonga tuhmat qilarsan? Yo'q, seni bunga undagan xushomadgo'y va yaltoqi nafsingdir.

Qabrdagi so'roq-savol haqidagi ma'lumot tavotur yo'li bilan kelgan haqiqatdir. Ya'ni, bu mavzu har tomonlama eng sahih hadislarda bayon qilingan. Hazrati Imom Buxoriy, Imom Muslim, Imom Termiziylardan boshlab barcha ulug' muhaddislarning kitoblarida bu hadislar ko'plab sahobalar tomonidan birma-bir holda – baham bayon qilingan. E'tiqod ilmida esa tavotur yo'li bilan kelgan hadisni inkor qilish kufrga sabab bo'lishi mumkin... Holbuki, bunday mavzu hazrati Imom Buxoriyning «Al-Jomi' as-sahih» («Eng ishonchli hadislar

to‘plami») asarida kelgan bo‘lishining o‘zi kifoyadir. Yuqorida aytdik, u zot otasi yoki bobosi yolg‘on gapirgan yoki hayvonni aldagan odamdan hadis olmaganlar.

Ulug‘ bir shoirning «Men yahudiyman» degan she‘ri sho‘ro davrida bir siyosiy sabab bilan yozilgan edi. Unda muqaddas Qur‘oni Karimni tahqirlovchi noxush satrlar bor. Yaqinda bir kitob do‘konida shoirning yangi nashr etilgan kitobini ko‘rib qoldim. Ne ko‘z bilan ko‘rayki, unda o‘sha she‘r turibdi. Holbuki, u she‘r endi o‘z ijtimoiy quvvatini yo‘qotib bo‘lgan. Uni kitobga kiritishga muharrir va noshirlarni nima majburladi? Yaxshiyam, Qur‘oni Karimni tahqirlagan satrlari qisqartirilgan ekan. Vaqtida ham atoqli shoirni muqaddas Qur‘oni Karimni haqorat qilishga hech kim majburlagan emas.

Qalamkash har qanday davrda insonlarning vijdoniy tamoyillari, qalb boyligi, diniy e‘tiqodini tahqirlashdan saqlanishi kerak. Bu qaltis ishlar, ayniqsa, hozirgi davrda yaxshilikka olib kelmaydi. Behuda ehtirosni qo‘zg‘aydi, aholining notinchligiga sabab bo‘ladi, xolos.

IJOD AHLIDA SOG‘LOM QALB VA SUBUT BO‘LMOG‘I KERAK

Aziz va sevimli yosh do‘stlarim! O‘g‘illarim, qizlarim!

Ijodkor millat farzandidir. Ijod ahlida sog‘lom qalb, nurli idrok va subut bo‘lmog‘i kerak. Yaxshilikka qaytish, tavgaga kelish orqaga qaytish emas, balki ayni oldinga qarab yurishdir. Lekin mavqe va mansabdan hovliqish, sarkashlik va nodonlikda ilgarilash ayni orqaga ketishdir:

*Qaytish ham turfadir, hayot jumboqdir:
Yaxshilikka qaytmoq – olg'a yurmoqdir.
Zulmat, jaholatda ilgari ketmoq
Tobora orqaga qadam urmoqdir.*

Atoqli yozuvchi Said Ahmad umri oxirida o'z iymonining quvvatini ko'rsatuvchi hikoyalar yozdi, Qur'oni Karimdan onaso'z keltirib, maqsadni ravshan ochdi, «Imom al-Buxoriy saboqlari» jurnalining savollariga javoblar berib, o'z diyonatini xalqiga oshkora bildirib ketdi.

Adib o'z jufti haloli, hassos adiba Saida Zunnunovaning hazrati Alixonto'ra Sog'unliy dargohlariga ma'naviy poklanish va fayz topish uchun borishlarini esladi. Saida opamizning Mashrab devonini o'qib, ba'zi ifodalaridan qo'rqib ketishlarini ham yashirmadi. Mashrab she'riyatining bilimdoni bo'lish esa ulkan fazilat, ulug' baxtdir.

Bir nevarasi Do'rmondagi bog' hovlisida adib bilan birga turar edi. «Ertalab maktabga ketayotganida: «Ey Xudoyim! Ko'pning bolasini o'z panohingda asra, ko'pning bolasi qatorida mening bolamni (ya'ni, nevaramni) ham ham o'z panohingda asra!» deb ortidan duo qilib qolaman», – derdi Said Ahmad.

Ba'zi yozuvchilar esa, O'zbekiston istiqloli davrida, umrining oxirigacha o'zini «xudosiz» («ateist») deb e'lon qilib yurgan ayrim shaxslar haqida badia yozdi. Buning xalqqa, ma'naviyat olamiga nima ibratli jihati bor edi? Buni tafakkur qilish yosh qalamkashlarning o'zlariga havola.

Bir ulug' shoir, Toshkentdagi San'at saroyidagi katta yig'inda yashirin kuchlar tomonidan maxsus uyushtirilgan portlash va boshqa jinoyatlarda dindorlarni, imomlarni, musulmonlarni aybdor qilib gapirdi. Duodan boshqa imkoni qolmagan musulmonlar bu jinoyatga qaysi quvvat bilan qo'l uradi? Ey inson, axir sen o'z buyuk ajdodlaring, o'z otang, onang musulmonlar ekanini unutdingmi? Balki, dinni niqob qilib, qing'irliklar sodir etuvchi qalloblar yo'q emasdir. Lekin yurt-dagi uyushtirilgan va katta kuchlar tomonidan boshqarilgan jinoyatlarda musulmonlarning nima aybi bor?

Ey inson, shu qilmishingdan dunyoda pok iymon-u e'tiqod bilan yashab o'tgan ulug' ajdodlaring rozi bo'ladimi? Shu fe'lingdan Qur'oni Karimni ulug'lagan Sohibqiron Amir Temur rozi bo'ladimi? Shu atvoringdan iymon quvvati bilan abadiy o'lmas asarlar yozgan hazrati Alisher Navoiy rozi bo'ladimi? Shu fe'lingdan Qur'oni Karimdan keyingi islomiy manbaning musannifi bo'lgan hazrati Imom Buxoriy rozi bo'ladimi? Shu fe'lingdan «Dil ba Yor, dast ba kor» («Ko'ngil Allohda, qo'l ishda bo'lsin») shiori bilan Allohning ishqini qalb-larga naqsh etgan Shoh Bahouddin Naqshband hazratlari rozi bo'ladimi? Shu fe'lingdan sen bilan bir tuproqda yashayotgan ulamo va fuzalo zotlar rozi bo'ladimi? Shu fe'lingdan yurtimizda dafn qilingan necha yuzlab aziz-avliyolarning ruhlari rozi bo'ladimi? Shu fe'lingdan marhum otang, marhuma onang rozi bo'ladimi? Ular rozi bo'lmasa, sendan Yaratgan Egamiz rozi bo'ladimi? Yaratgan Egamiz sendan rozi bo'lmasa, dunyo-yu oxiratda ahvoling nima kechadi?

Bu nido faqat bir nekbin qalbning emas, balki har bir nekbin va uygʻoq qalbning nidosidir. Bu soʻzlarni aytmoqdan, yaqin tarixga bir bor nazar solib oʻtmoqdan maqsad shuki, sohaga aloqasi boʻlmagan noxolis olimlarni ham, maʼrifatsiz adiblarni ham jamiyat ichidagi har bir katta-kichik voqelikka aralashtirmaslik lozim. Ilmi, maʼrifati va sohaga aloqasi boʻlgan taqdirda ham, avvalo, u insonlarning sobit vijdoni boʻlsin.

BUYUK ADIBNING OBROʻ VA SHARAFI

Shoʻro mustamlakasi davrida dinni afyun deb qoralash, mulla va imomlarni tanqid ostiga olish avj olgan edi. Oktyabr inqilobi (biz uni «Oktyabr inqirozi» der edik) deyilgan toʻntarishdan keyin, ayniqsa, bunday siyosat avj olgan. Shu «urho-ur, surho-sur»ga qoʻshilishdan xalqimizning eng isteʼdodli adiblari ham chetda qolgan emas.

Abdulla Qodiriy bir qancha hikoya va maqolalarida chor Rossiyasi bosqinchilarining xalqimiz boshiga solgan kulfat va qirgʻinlarini jasorat bilan qalamga olgan. «Shodmarg» («Quvonchdan oʻlish» maʼnosida) hikoyasida adib zolimlarning islom olimlari va shayxlariga qilgan siyosiy tajovuzlarini juzʼdan kull uslubida ustalik bilan fosh etgan. (Juzʼdan kull – juzʼiy manzara bilan umumiy holatini ifodalash.)

Kamina darsdosh doʻstim Xondamir Qodiriyga: «Ulugʻ bobongiz Abdulla Qodiriyning 20-yillarda yozgan va «Mushtum» jurnalida chop ettirgan baʼzi hajviy hi-

koyalarini bugungi davrda nashr qilmaslik kerak, ular xalqimizda adib haqida yaxshi taassurot qoldirmaydi», deb ko‘p marta aytganman. Xondamir Qodiriyning o‘zi ham shu fikrda edi.

Afsuski, bugungi istiqlol davrida adibning masxara va qoralov ruhidagi ayrim hajviyalari alohida kitob holida nashr ham etilibdi, yangi saylanma asarlariga ham kiritilibdi. Nahotki, noshirlarda oddiygina sezi gi va shuur bo‘lmasa! Afsus! Bu ishlar buyuk adibning sha’nini yerga urish, u zotni xalqning g‘azabiga ro‘para qilish, yangi davrda qaytadan badnom qilishdir. Chunki u hajviyalarning ba’zilar xudosiz jamiyatning tazyiqiga ko‘ra zamonasozlik bilan yozilgan. Ularda iymon-e’tiqod tamoyillariga muvofiq kelmaydigan ifodalar bor. Bugungi noshir va muharrirlar har bir ishda davr ruhini, musulmon xalqning hozirgi dunyoqarashi va kayfiyatini hisobga olishi zarur. Qodiriy asarlarini jonidan yaxshi ko‘radigan qo‘qonlik yosh bir kitobxon do‘stim motamzada va musibatzada bir ohangda: «Saylanmadan Qodiriyning ba’zi hajviyalarini o‘qib, kitobini qo‘limga olgim kelmay qoldi», degan edi. Bas, biz kim bo‘lsak ham, qaysi mansab va maqomga yetgan bo‘lsak ham, musulmon bir xalqning farzandi ekanimizni unutmasligimiz lozim.

Adabiyot ahli va iymon ahli yaxshi bilishi lozimki, buyuk yozuvchining «O‘tgan kunlar» romani, ba’zi hikoya va badialari, o‘limi oldidan aytgan so‘nggi gaplari chin ma’nodagi tavbasi va iymonining hujjatidir. Bas, endi dunyoni tark etib, o‘z hisob-kitobi tomon ketgan adibni qaytadan yomonotliq qilmaylik.

ILOHIY MAVZULARNI O'YIN QILIB BO'LMAYDI

Aziz va sevimli yosh do'stlarim!

Ba'zi shoir va adiblarda so'zga erkanlash, ma'nosi va oqibatini teran o'ylamagan holda, diniy-ilohiy mavzularni o'yin qilish hollari kuzatiladi. Qay birimizning yoshlik mahallarimizda bunday xatolar o'tgan bo'lsa, tavba qilish va xatoni isloh etish imkonimiz bor. Dunyodan o'tganlarni esa Parvardigor O'zi kechirsin.

Adabiyotimizda mustamlaka va istibdod siyosati sababli aziz va ulug' siymolarni zararli shaxs qilib ko'rsatish hollari uchrar edi. Bunday xatolar faqat o'zbek adabiyotida emas, balki sobiq sho'ro tuzumi tarkibiga kirgan barcha xalqlar adabiyotida ham uchraydi. Jumladan, O'zbekistonga qo'shni mamlakatlarda ham diniy tamoyillarni qoralash, muborak Haj va Umra manosiklarini masxara qilish hollari yuz bergan. Lekin bu xatarli ishga qo'l urganlar yaxshi oqibat topmaganlar.

«MASXARABOZLIKNI SAHNADA QIL...»

Ba'zi qiziqchilar diniy mavzularni, haj amallari, xususan, shaytonga tosh otish vojibotini kulguga olishni odat qilishgan. Qiziqchi maymun qiyofasiga kirib, odamlarni kuldirishi mumkin, lekin din shiorlarini kulgu qilishga uning aslo haqqi yo'q. Ba'zi ashulachilar diniy mavzularda aqliga va og'ziga kelgan gapni gapiradi. U ashula san'atida mohir va mashhur bo'lishi mumkin. Lekin ashulachining mohir va mashhurligi unga din mavzularida johilona gaplarni aytish huquqini bermaydi.

Bir qiziqchi ustoziga:

– Ustoz! Zo‘r qiziqchi bo‘lishim uchun nima qilishim kerak? – debdi.

– Zo‘r qiziqchi bo‘lmoqchi bo‘lsang, masxarabozlikni sahnada qil, hayotda masxarabozlik ketmaydi! – debdi ustози.

Muqaddas mavzular bilan qiziqchilik qilish asli sahnada emas, hayotda masxarabozlik qilishdir. Shunga o‘xshab, ba’zi shoirlar ham ilohiy mavzularni mazaxga olishdan uyalmaydilar.

BASHARNING CHILIMPARVAR XAYOLI

Jahondagi ko‘plab ilm-u ma‘rifat ahlari Dog‘iston deganda buyuk murshid va alloma Shayx Shomil hazratlarini eslaydi. U zotning bosqinchilarga qarshi kurashib, so‘ng yurtidan chiqib ketishga majbur bo‘lganlari, Istanbulga borib, benazir alloma, bobolari Buxoroi sharifdan bo‘lgan Naqshbandiya shayxi – Ahmad Ziyouddin Kumushxonaviy hazratlarining dargohlariga uchraganlari tarixlarda bayon qilingan. U zot bosqin va notinchlik davrida o‘n tuyaga yuk bo‘lgan nodir kitoblarini o‘n yil davomida u joydan bu joyga tashiganlar. Bugungi kunda Dog‘iston va Chechenistonda Shayxning avlodlari bor. 1871-yilda Shayxning Kaluga shahridagi harbiy qo‘riqchisi bo‘lgan, bir necha yil Istanbulda Rossiyaning diplomatik vazifadori o‘laroq xizmat qilgan D.N.Boguslavsiy Qur‘oni Karimni rus tiliga tarjima qilgan. Shayxning ulug‘ligi, tarbiyat ko‘lami, ta’sir doirasini anglashda shu dalilning o‘zi kifoya qilsa

kerak. Vaqtida, Sho'ro mustamlakasi davrida bir shoir Shayx Shomildek aziz zotni hajv tig'iga olib, she'r bitgan. Keyin bir tavbasifat she'r yozib, xulosada yana avvalgi so'ziga qaytgandek bo'lgan. Ochiq aytayin, kami-na o'sha shoir dunyo ahli orasida qanchalik mavqeli va obro'yli bo'lsa, Dog'istondagi din, tasavvuf va ma'rifat ahli orasida shunchalik beqadr va beobro' shaxs ekani-ga shohid bo'lganman. Ko'p ajablanganman, ko'p achin-ganman. Umrini adabiyotga bag'ishlagan bir shaxs haqida imon va ma'rifat ahlining salbiy fikrda bo'lishi, albatta, achinarli holdir!.. Holbuki, ular – shoirning o'z vatandoshlari, o'z millatdoshlari, mahdud yoki mutaas-sib shaxslar emas, aksincha, ma'rifati yuksak ahli zikr kishilar... Muhtaram yoshlar bu so'zlarimni kengfe'llik bilan o'ylab ko'rishlarini istar edim.

O'sha shoir bir kitobida yozadi: «Nazdimda, Alloh taoloning o'zi ham sahobalariga (?) biror qiziq vo-qeani aytib berishdan (?) yoki nasihat qilishdan (?) ol-din chilimini tortib (?), bir nafas xayolga cho'madi (?), o'ylaydi (?)».

Qudrati va rahmati cheksiz bo'lgan buyuk Yaratgan Zot haqida shunday tasavvur qilish har qanday insonni beizzat qiladi. Bu Parvardigori olamni, butun olamlar Rabbini mazax qilishdan boshqa narsa emas.

Shoir she'riyatida shunday ma'rifat va haqiqat nuri bo'lsinki, uni hamma toifadagi insonlar vijdonan qabul qilsin va sevsin. Zero, adabiyot degani xayoliga kelgan manfur gapni qog'ozga tushirish degani emas. Ayniq-sa, imon ahlining nazaridan qolishdan ehtiyot bo'lish kerak. Chahoryorning ikkinchilari bo'lmish hazra-ti Umarga – Umarul-odil deya adolat vasfiga sazovor bo'lgan zotga dushman pichoq urganida u kishi: «Al-

loh taologa shukrki, u meni musulmonning qo‘li bilan o‘ldirmadi!» deganlar (Imom Buxoriy, «Al-Jomi’ as-sahih», 3700-hadis).

Demak, diyonat va fazilat ahlining nafrati va g‘azabidan saqlanish har bir inson zoti uchun, ayniqsa, ijodkor uchun muhim ekan.

SHOIRNING BEO‘XSHOV «RASSOM»LIGI

Mashhur va iste’dodli, men uchun g‘oyat hurmatli bir shoir bir she’rida yozadi:

*Baribir, Xudoning rasmini
O‘zimning rasmimga qarab chizaman!..*

Ey aziz birodarim! «Xudoning rasmini chizish»ga sizni nima majbur qildi? Havoyi nafsdan boshqa hech narsa majbur qilgani yo‘q. Gyote, Tolstoy, Pushkindek jahon daholari Qur‘on hamda hadis nuri va ma‘rifatidan bahra olib, shu nur natijasida o‘lmas asarlar qoldirgan. Siz shunday abadiy manbalarning asl egasi bo‘la turib, shu qadar mahdud va tor fikr qilasizmi? Haq taolo Qur‘oni Karimda Yaratgan Zotga, ya‘ni O‘ziga hech bir narsa o‘xshash emasligini e‘lon qiladi.

Sho‘ro surasi, 11-oyat ma‘nosi: **«(U) osmonlarni va yerni yo‘qdan (ilk) yaratguvchidir. U sizlar uchun o‘zlaringizdan ham juftlar, chorva hayvonlaridan ham (o‘zlaridan) juftlar yaratdi. Shu (nizom) asos(i) da sizlarning naslingizni davom ettirur. Hech bir narsa Unga o‘xshash emasdir. U haqqoniy eshitguvchidir, ko‘rguvchidir».**

Jahonning e‘tiqod ilmi imomi, to‘g‘ri yo‘l yetakchisi, buyuk vatandoshimiz Abu Mansur al-Moturidiy aytadilar:

«Alloh taolo birdir, zotida, sifatlarida, ismlarida, fe'larida va mulkida sherigi yo'q. Alloh jism emas va javhar emas. Shakl, hudud, o'lchov, sanoq va bo'linishni qabul etmaydi.

Alloh araz emas va arazlardan xolidir. Na O'zi mavjudotga o'xshaydi, na mavjudot Unga o'xshaydi... Unga o'xshagan narsa yo'q. U hech boshqa narsaga o'xshamaydi. O'lchovga sig'maydi. Na har qanday bir hudud va na tomonlar – hech biri Uni ihota etolmaydi (qamray olmaydi). Yer, osmon Uni o'z ichiga ololmaydi. Zamon va makondan munazzahdir – pokdir, xolidir. Bir makonda sobit bo'lmog'i tasavvur qilinmaydi. Vaqt, lahza, kecha va kunduz Uning uchun jarayon etmaydi. Hodisalardan mutaassir bo'lmaydi. Butun sifatleri zavoldan munazzahdir» («Tavhid» kitobidan).

Biz Imom Moturidiyning avlodlarimiz, deb maqtanishni bilamiz. Lekin u zotning o'lmas ta'limotidan biror nasiba olganimiz qani?

ENG YAXSHI IRFON

2020-yil boshida ijtimoiy tarmoqda bir yosh shoirning «Sezgi» degan she'ri paydo bo'ldi. Muallif har bir narsada Tangrining «nuqsini», ya'ni «nuqsони, aybi, kamchiligini» sezar ekan:

*Har zarrada, har bir lahzada,
har narsada, har bir larzada,
har yurakda, har bir nigohda,
har savobda, har bir gunohda,
...har omadda, har bir kulfatda,
har musibat, har bir hikmatda,*

*har poygakda, har bitta to‘rda,
borliq degan har bitta yo‘lda
Tangrining nuqsini sezaman,
Tangrining nuqsini sezaman!*

«Nuqs» so‘zi – aslida fatha bilan yoziladigan «naqs» bo‘lib («G‘iyos ul-lug‘ot»), «naqasa» o‘zagidan olingan.

– naqasa (naqsun, nuqsonun) – 1) ega bo‘lmay qolmoq, kam bo‘lmoq, yetmay qolmoq; 2) ozaymoq, kamaymoq, qisqarmoq, (suv) pasaymoq, tushmoq; 3) ozaytirmoq, kamaytirmoq, nuqson yetkazmoq, talafot yetkazmoq, qisqartirmoq, (obro‘yni) to‘kmoq.

«Naqasa»ning «An-Na‘im» va boshqa qomuslarda kelgan zohir ma’nolari shulardir. Qur‘oni Karimning Baqara surasi, 155 («va naqsin»), A‘rof surasi, 130 («va naqsin»), Tavba surasi, 4 («lam yanqusukum»), Hud surasi, 84 («va lo tanqusuu») oyatlarida kelgan ma’nolari ham shundan iborat.

Bu so‘zning boshqa zohir ma’nosi yo‘q. Bas, «nuqs» – zohiran faqat «nuqson», «ayb», «kamchilik» deb tushuniladi. Insonlar tushunadigan va qabul qiladigan ma‘nosi ana shu. Shuning uchun bu yo‘sinda o‘yin qilmaslik va aqidaviy falokatga qarab yurmaslik kerak.

E’tiqod ilmida Yaratgan Zot «misli, misoli yo‘q, naziri, vaziri yo‘q, tengi, jufti yo‘q, har qanday nuqson sifatlaridan pok va munazzah» deb aytiladi. Ya’ni, «Beayb Parvardigor» deymiz.

Baski, bunday mavzularda so‘z o‘yini qilib bo‘lmaydi. Zero, hech bir adabiyot muxlisi yosh shoir nazarda tutgan biror boshqa maqsadni qabul qilmaydi. She’rni o‘qigach: «Biz Tangridan nuqson va kamchilik izlagandan ko‘ra, avval o‘z nafsimizdagi, o‘z aqlimizdagi kibr

va nuqsonni sezaylik va bartaraf etaylik. Oldin o'z jaholatimizdagi nuqsonni anglaylik», deydi.

Butun olamlar Parvardigorining mukammal san'atidan «nuqson» izlashdan ehtiyot bo'lishimiz zarur.

Butun insoniyat uchun ibratli hikmat bor: «Kim o'z nafsini tanisa, albatta, o'z Rabbini taniydi». Nafsni tanish nimadan boshlanadi? Qanday yaralgani, nimadan dunyoga kelgani, qaysi yo'ldan tug'ilganini bilsa, ma'rifatli insonga shu kifoya. Nihoyat, u Rabbini taniydi. Orif va oshiq shoir Mavlaviy Jununiy aytadilar: «Kelganing peshob yo'lidir, kibr-u havo ne kerak?!»

Hazrati Imom Moturidiy ta'limoti sharhida aytadi: «Inson, jin, Yer, osmon, malak (farishta), shayton, hayvon, o'simlik, jonsiz mavjudot, javhar, ma'dan, idrok etiladigan va his qilinadigan narsalarning hamma-hammasi hodisdir – keyin paydo bo'lgandir. Janobi Haq bularni yo'qdan bor qilgan. Hech bir narsa yo'q paytda yolg'iz U bor edi. Keyin mavjudotni yaratdi. Allohning ularni yaratmog'i ularga muhtoj bo'lganidan emas, balki rahmat va irodasini haqiqatan namoyon qilmoq, hikmat va qudratini izhor etmoq uchundir» (*Ahmad Ziyouddin al-Kumushxonaviy*).

Buyuk tasavvuf arboblari aytadilar: «Insonlarning ruhini quvvatlantirguvchi oziq bo'lmasa, u kuchsizlanadi. Inson ruhini quvvatlantirguvchi narsalar esa ilmdir, iymondir, irfondir. Inson uchun o'z nuqsonini ko'rmog'idek irfon bo'lmagay» (*«Tasavvuf va go'zallik»*).

She'r muallifi aslida iste'dodli shoir. Ijtimoiy tarmoqda uning ijodini kuzatib boraman. Yosh qalamkashning kelajagiga ishonganim uchun biroz tanqid qilib o'tdim. Toki istiqbolda so'z maydonida o'rinsiz fitna va ixtiloflarga duch kelmasin.

JAHOLATNING CHEGARASI BORMI?

Yosh ijodkorlarga yaqin o‘tmishdan bir misol keltirmoqchiman. Bundan bir necha yil avval ijtimoiy-falsafiy, ma’naviy-ma’rifiy jurnallardan birida «Sarkash savollar» degan maqola paydo bo‘ldi. Muallif javobini uncha-muncha kitobdan o‘qib o‘rganishi yoki ilm-u ma’rifat ahlidan so‘rab, suhbatlar vositasida bilishi mumkin bo‘lgan savollarni o‘rtaga tashlaydi, o‘zini go‘llikka solib, muqaddas dinning ildiziga bolta urishga, dinning asoslarini masxaralashga, insonning yaratilish hikmati va xilqatini tahqirlashga, insonning insonlik sharafiga yerga urishga, Yaratganning mumtoz va ma’sum bandalari bo‘lgan payg‘ambarlarni haqoratlashga jur’at etadi. Muallif «yillab yer tagida yotgan, qorayib ketgan, obdon chirigan eski bir yog‘och parchasi»ni misol keltiradi. Uning fikricha, «Tangrining ulug‘ farishtalari-yu payg‘ambarlari ham ulug‘ligida o‘ziga (maqola muallifiga) va boyagi chirkin yog‘och parchasiga yaqinroq» emish! Bu ham yetmaganday, muallif: «Shu chirik, ongsiz-shuursiz yog‘och parchasi ustida mening ixtiyorim qancha bo‘lsa, mening ustimda Parvardigorim irodasi shu qadar» deya Buyuk Parvardigorning cheksiz tasarrufini bandaning irodasiga tenglashga harakat qiladi. Yana uning fikricha: «Yaratilgan maxluq bilan yaratgan Xoliq o‘rtasida qandaydir bir o‘rtacha mavqe yo‘q» emish! Ba’zi nuqtalarda muallifning quturgan joylari ko‘zga tashlanadi: «Nahot, yashashdan maqsad – oxirat uchun zaxira to‘plashdan iborat bo‘lsa? Qishdan to‘q chiqish uchun yozi bilan don tashigan chumoli singari?» – deydi bu dono zot (36-sahifa).

Yaratilish g'oyasi va hikmatidan bexabar inson har qanday gapni gapirishdan tap tortmas ekan. Bu shunday kufri mujib so'zlarga to'la, badbo'y va jirkanch maqolaki, ushbu o'rinda yosh ijodkorlar uchun undan misol yoki iqtibos keltirishga ham odam hazar qiladi.

Har qanday jurnal millatimizning ma'naviyati va ma'rifati yuksalishiga xizmat qiladi, deb umid qilinadi. Lekin buyuk bir millat e'tiqodini masxara qilish sog'lom aql sohibidan chiqadigan ish emas.

Bunday ziddiyatli mavzular kutilmagan fitnalarga sabab bo'lishi shubhasizdir. Shuning uchun qalam ahli o'z mahdud hayoti ichida yuravermay, jamiyatning xilma-xil tabaqalari fikr-qarashlarini xolis o'rganishi va yetarli ma'naviy zaxirasi bilan qo'lga qalam olishi kerak.

TAVBA ESHIKLARI DOIM OCHIQDIR

«Sarkash savollar» degan maqola chop etilganida Toshkent shahrining o'sha vaqtdagi bosh imom-xatibi, marhum olim Anvar Qori Tursunov muallifni suhbatga chaqirib, gaplashganini, uning tavba qilganini gapirib bergan edi. Biz o'zimiz hamisha tavba maqomidamiz, bir nekbin banda o'laroq muallifga ham haqiqiy tavba saodatini tilaymiz. Chunki tavba eshiklari doim ochiqdir.

Bu so'zlardan yosh ijodkorlar uchun qanday xulosalar chiqadi?

Afsus, ba'zan odamzod jaholati chegara bilmay qolar ekan. Shunday mahalda inson o'zini qo'lga olishi, abadiy haqiqatlarga yuz burishi, vasvasadan o'zini qutqarishi

zarur bo‘ladi. Qadimgi hukmdorlar – Namrud va Fir‘avn hadlaridan oshib, xudolikni da‘vo qilishdi, holbuki, shayton – shayton bo‘la turib, bunday da‘voni qilmagan edi. Hazrat Navoiy aytadilar:

*Yomonni, demaki, izlol etar ekin shayton,
Degil: fasodda mundin yetar zalolat anga.*

Ya‘ni: «Yomon kishini shayton adashtirib, yo‘ldan ozdirar ekan, dema, aksincha, ba‘zan buzg‘unchilikda yomon kimsadan shaytonga zalolat va gumrohlik yetadi, ba‘zi insonlar shaytonni yanada adashtirib, yanada gumroh qilib qo‘yadi. Ya‘ni, havoyi nafsiga ergashib, fasod chiqarishda inson ba‘zan shaytondan o‘tadi».

Shunday mahallarda beixtiyor Abdulla Oripovning ushbu satrlari xayoldan o‘tadi:

*Inson-ku koinot gultoji azal,
Undadir eng oliy tafakkur, amal.
Hatto, u tubanlik ichra ham tanho,
Yo falak, ijoding buncha mukammal!*

MUSHRIK DEGANI NIMA DEGANI VA KIMLAR MUSHRIK SANALADI?

Aziz va sevimli yosh do‘stlarim! O‘g‘il-qizlarim! Ba‘zan hayotda «Mushrik degani o‘zi nima degani?» kabi savolga duch kelamiz. Yaxshi bilishimiz lozimki, sarkashlik holatlari insonning nafs xurujidan kelib chiqadi. E‘tiqod masalasi nozik masaladir. Odamzod goh bilib, goh bilmay, shirkka tushib qolishi mumkin.

Haq taolaga biror narsani sherik qilguvchilar mushrik deyiladi.

Hazrati Luqmoni Hakim alayhissalom shirkni «zulmun aziym», ya'ni «ulug' zulm – ulkan nohaqlik» deganlar. Dunyoda zulm-u nohaqlikning turlari ko'p: nohaq odam o'ldirish, birovning molini talash – qaroqchilik, o'g'rilik, g'iybat, bo'hton va tuhmat qilish, pokning nomusiga tegish, zinokorlik va boshqa qabohatlar. Lekin Yaratganning Zotiga, uluhiyati – ilohligiga, rububiyati – rabligiga biror narsa yoki kimsani sherik qilish eng ulkan zulm, eng ulug' nohaqlikdir. Bu ilmlarni bilib qo'yish yosh ijodkorlar uchun bir umrga tatigulik foydadan iboratdir.

Qur'onga ko'ra, to'rt toifa insonlar mushrik, ya'ni Alloh taolaga biror narsa yoki kimsani sherik qiluvchi hisoblanadi:

1. Butlarga, olovga va (sigir, ilon kabi) boshqa mavjudot-u maxluqotga sig'inuvchilar. Bular o'z aqidasiiga ko'ra mushrikdir.

Dalil: Moida surasi, 76-oyat ma'nosi: «(Ey Rasulim!) **Ayting: «Allohni qo'yib, sizlarga bir foyda ham, zarar ham yetkazishga qodir bo'lmagan narsalarga sig'inasizlarmi?» Alloh (hamma narsani) haqqoniy eshitguvchidir, bilguvchidir».**

Hazrati Shayx Hasan Basriy aytadilar: «Allohgga qasamki, butlarga sig'inganlar faqat dunyoni sevganlari uchungina sig'ingandurlar».

2. Tog'utga, ya'ni Alloh taoloning hukmlarini qo'yib, o'z hukmlarini joriy qiladigan shaxslarga, hukmdor va podshohlarga sig'inuvchilar.

Dalil: Zumar surasi, 17–18-oyatlar ma'nosi: «**Tog'utdan** (Allohdan uzoqlashtiruvchi va ilohiy amrlarni ba-

jarishdan qaytaruvchi shaxsdan) **va unga bandalik qilishdan chetlanganlar va Allohga qaytganlar** (tavba qilganlar esa), **ular uchun xushxabar bordir...**»

Arab tilida «tog‘ut» so‘zi o‘z ma‘nosiga ko‘ra haddan oshuvchi har kim haqida qo‘llanadi. Qur’onda bu so‘z Allohga isyon qiladigan hamda Uning hukmron va Molik ekanini inkor etib, insonlarni o‘ziga qul bo‘lishga majburlaydigan shaxslar haqida qo‘llanadi. Tog‘ut – «Ruhul-bayon» kitobida: «Allohdan boshqa topiniladigan, sig‘iniladigan va qullik qilinadigan insonlar, jinlar, shaytonlar kabi butun maxluqot...» deyilgan.

3. Din hukmlarini o‘zgartirib, din nomidan ters hukmlarni tatbiq etadigan rohiblarga, poplarga, xohomlarga ergashuvchilar.

Dalil: Tavba surasi, 31-oyat ma‘nosi: **«Ular Allohni qo‘yib, o‘z bilag‘onlari (xohomlari) va rohiblarini hamda Maryam o‘g‘li Masihni rabblar qilib oldilar. Holbuki, ularga faqatgina bir Iloh (bo‘lmish Alloh)ga ibodat qilish buyurilgandir. Undan boshqa hech bir iloh yo‘q. U Zot ularning sherik qilgan narsalaridan pok (va oliy)dir».**

4. O‘z havoyi nafsining xohish-istaklariga ko‘ra yashaydiganlar – o‘z nafsini o‘ziga iloh qilib olgan xudbin, nafsparast kimsalar.

Dalil: Josiya, 23-oyat ma‘nosi: **«Havoiy nafsini o‘zi-ga iloh qilib olgan kimsani ko‘rdingizmi? – u bilgani holda (Allohni qo‘yib havoyi nafsiga qul bo‘lgani uchun) Alloh zalolatda qoldirgan, qulog‘ini va qalbini muhrlab qo‘ygan, ko‘ziga ham parda tortib qo‘ygan kimsadir. Bas, (ayting-chi,) uni Allohdan boshqa kim to‘g‘ri yo‘lga hidoyat qila olur? Axir, o‘ylab eslatma olmaysizlarmi?»**

Havoyi nafs hokim bo'lgan joyda gumrohlik bor. Inson o'z havoyi nafsidan qancha nasiba olsa, shuncha gumrohlikdadir.

Havoyi nafs Qur'onga qarshi borib, Allohning Ilohligi va Rabbligini qabul qilmaydigan kimsalarning eng katta butidir. Islomga bo'ysunmagan – muvofiq kelmagan har qanday orzu-istak va ish harakat – havoyi nafsdir (*«Fayzul-Furqon»*).

Mana, sevimli do'stlarim, demak, so'z san'ati ahli o'z ijodida o'z shaxsini muhofaza qilishi, aytar so'zi va qilar ishi bilan yuqorida bayon qilingan falokatlarga tushmaslikka harakat qilishi zarur ekan.

DUNYONING SHARAFLI AYOLLARI

Aziz va sevimli yosh ijodkorlar! Ushbu suhbatim yosh qalam ahllari bo'lgan ona qizlarimga bag'ishlanadi.

Ma'naviyat va valoyat olamida o'tgan Bibi Maryam (hazrati Iyso alayhissalomning onalari), Osiyo (zolim Fir'avnning imonli ayoli), Koinotning sayyidi bo'lmish janob Payg'ambarimiz alayhissalomning onalari hazrati Omina ona, janob Payg'ambarmizni emizgan hazrati Halima enaga, Xadichai Kubro (janob Rasululloh alayhissalomning jufti halollari), Oishai Siddiqa (janob Rasululloh alayhissalomning Xadicha onamizdan keyingi umr yo'ldoshlari), Fotimatuz-Zahro (janob Rasululloh alayhissalomning qizlari – roziyallohu anhunna) kabi zotlar yorug' dunyoning eng sharaflı ayollaridir. Bular Qur'oni Karim va hadisi shariflarda nomlari yoki vasflari kelgan mo'tabar ayollardirlar. Yana tasavvuf olamida Robi'ai Adaviya, Lubobat ul-Muta'abbida, Rayhonai

Voliha, Zaytuna, Ummu Ali, Ummu Muhammad, Bibichai Munajjima kabi nisoun-orifot, ya’ni valiylikda erkaklar martabasiga yetgan orifa ayollar kechganlar. Bularning nomlari tazkira kitoblarida, jumladan, «Nasoyim ul-muhabbat»da zikr qilingan.

Usmoniy turk olimlaridan Rizouddin Faxruddin o‘g‘lining «Mashhur xotunlar» kitobida ko‘plab mo‘tabar ayollar zikr qilingan. «Xotun» degani bizning tushunchamizdagi «xotin», «jufti halol» emas, balki «ustoz va kayvoni maqomidagi ulug‘ ayol» degan ma’nodadir.

SHE’RIYAT MALIKALARI VA FAQR MAQOMINING XODIMALARI

Shuningdek, adabiyot olamida ham Zebunniso Begim (XVII asr), Nodirabegim – Mohlar Oyim, avval Komi-la taxallusi bilan she’rlar yozgan (XVIII–XIX), Jahon Otin – Uvaysiy (XIX), Mahzuna Mulla Boshmon qizi (XIX), Mu’azzamxon (XIX) kabi shoirlar yashab, ijod qilib o‘tganlar. Ular ilm-u ma’rifat, odob-axloq bobida nodir, tasavvuf ta’limidan bahramand, ba’zilari shohlarning qizi yoki umr yo‘ldoshi bo‘la turib, faqr – qanoat maqomiga yuz borgan zotlar edilar.

Ba’zi olimlar Farg‘ona-Qo‘qon adabiy muhitida benazir shoirlar yetishganini nazarga olib, XIX asr Farg‘onasi XV asr Hirotidan o‘zib ketgan edi, deb qayd etganlar (To‘xtasin Jalolovning «O‘zbek shoirlari» kitobiga qaralsin). Albatta, jahon tarixida XV asr Hirotiga teng adabiy muhitni topish qiyin. Lekin mazkur ta’rifda barkamol shoirlarni ulug‘lash va olqishlash hissi bor.

TEMURIY NASLIDAN ZEBUNNISO BU

(1639–1702)

Shoira, olimasi, xattot Zebunniso Begimning nasab shajarasi Sohibqiron Amir Temurga bogʻlanadi. U Hindistondagi Boburiylar sulolasidan boʻlib, Shoh Jahonning uchinchi oʻgʻli Muhyiddin Muhammad – Avrangzeb Olamgirning (1618–1707) qizidir. Onasi Dilrasobonu Bobur Mirzoning qizi boʻlmish Gulbadan Begimning avlodidandir. Shoira turkiy-oʻzbek tili bilan birga arab, fors tillarini puxta bilgan, fors tilida ijod etgan.

Bayt:

*Dur bod az tan sare, k-oroyishi dore nashud,
Bishkanad daste, ki xam bar gardani yore nashud.*

Tarjimasi:

*Tandin ayrilsin u bosh, gar loyiqli dor oʻlmasa,
Sinsin ul qoʻl, yor boʻyniga agar yor oʻlmasa.*

Ruboiy:

*Man az dahani mor shakar metalabam,
Az xonai ankabut par metalbam.
Az sinai narrasher shir metalabam,
Az mardi parahnapoy zar metalabam.*

Tarjimasi:

*Men ilon ogʻzidan shakkar talabman,
Oʻrgimchak inidan bol-par talabman,
Erkak sher koʻksidan sut talab qilgum,
Yalangoyoq kasdan men zar talabman.*

Zebunniso Begimning Dehli shahridagi qabrtoshiga yozilgan o‘z bayti:

*Ba g‘ayri sabza napo‘shad kase mazori man,
Ki qabrpo‘shi g‘aribon hamin giyoh bas ast.*

Tarjimasi:

*Yopmasin qabrim birov maysadin o‘zga ila,
Kim, g‘arib qabrin yoparga shul giyoh basdir o‘zi.*

Ya’ni: «Mening qabrimni biror kishi sabza – may-sadan boshqa narsa bilan yopmasin, chunki g‘ariblar qabrini yopish uchun shu giyohning o‘zi basdir». Bu go‘zal baytda Zebunniso Begimning yuksak axloqi, tavo-zu’, xokisorlik va ma’rifati barq urib turibdi.

HAQIQAT YORINING VAFODORI – JAHON OTIN UVAYSIY BU

(1779–1845)

XV asr Hirotiga qiyos qilingan XIX asr Qo‘qon ada-biy muhitida uch zabardast shoira yetishdi: Jahon Otin Uvaysiy, Nodira Begim, Mahzuna.

Jahon Otin Uvaysiy 1779-yilda Marg‘ilon shahrida tug‘ilib, 1845-yilda o‘sha yerda vafot etgan. Otasi olim va fozil zot bo‘lib, Jahon bonuni yoshligidan ilm-ma’ri-fat bilan tarbiyat qilgani, she’r nazariyotini o‘rgatgani, u tez fursatda chig‘atoy (o‘zbek) va fors mumtoz shoirlari ijodini puxta o‘rganib, ma’rifatli shoira bo‘lib yetishgani marhum olim To‘xtasin Jalolov kitoblarida bayon etil-gan.

Demak, Jahon Otin oila muhitida xat-savodini chiqarib, onasining yonida maktabdorlik qiladi. Akasi Oxunjon hofizdan she'riyat ilmini o'rganadi, aruz vaznini, muammo san'atini – she'rda so'z va fikrni yashirish san'atini mukammal egallaydi.

Qalban Amir Umarxon saroyidagi she'r majlislariga talpingan Jahon Otin, nihoyat, Nodira Beginning taklifi bilan Qo'qon adabiy muhitiga kelib qo'shiladi, mushoiralarda ishtirok etadi. Saroyda Nodira Begim va boshqa xotin-qizlarga she'riyat ilmidan dars berib, ustozlik qiladi. Dilshod Otin bergan ma'lumotga ko'ra, u Nodira bilan Konibodom, Xo'jand, O'ratepa, Toshkent, Andijon kabi shaharlarni kezgan. 1842-yilda Buxoro amiri Nasrullohxon Qo'qonni egallagach, Marg'ilonga qaytib, umrining oxirigacha shu yerda yashagan.

*Zaboningni keturgil, ey shakarlab, to'ti guftora,
Nechukkim, marhamat o'lsun necha mendek dilafkora.*

*Meni «Lo yadxulun» deb mahrum etma, bog'bon ahli,
Azal dehqoni bag'rim qonini ekan bu gulzora...*

*Uvaysiy, yuz jaf o'rsang haqiqat yoridin doim,
O'gurma yuzni andin, solma ko'zni o'zga dildora...*

Qur'oni Karimdagi «**Lo yadxuluna**» oyati garchi kufr ahli haqida nozil bo'lgan esa-da, Uvaysiy bu vosita bilan o'z ma'rifatini namoyon etmoqda. Jumlaning to'liq shakli:

«Va yadxulunal-jannata hatto yalijal jamalu fiy sammal-xiyooti» – «toki tuya ignaning teshigidan o'tmas

ekan, ular jannatga kirmaslar». Bunda A’rof surasining 40-oyati ma’nosiga ishorat qilingan.

«Azal dehqoni bag’rim qonini ekan bu gulzora» sat-ri bilan esa hazrati Momo Havvo onamiz hazrati Odam Ato otamiz (alayhissalom) bilan avval jannatda yasha-ganlariga, keyin bag’ri qon bo’lib, jannatdan tushirilgan-lariga ishorat qilmoqda. «Azal dehqoni bag’rim qonini ekan bu gulzora» satrning ta’vili shudir. «Azal deh-qoni» iborasidan murod Alloh taolodir.

Uvaysiyga nisbat berilgan mashhur muammolardan biri:

*Bul na gumbazdur – eshigi, tuynugidin yo’q nishon,
Necha gulgun pok qizlar manzil aylabdur, makon.
Tuynugin ochib, alarning holidin olsam xabar,
Yuzlarida parda tortug’luq, turarlar – bag’ri qon.*

Bunda yashiringan so’z – «ANOR». She’rda anor donalari go’zal tasvirlangan. Lekin shoira bu qisqa ifo-dada Xon saroyi mahramxonasi – kanizaklar holatiga ham ishora etmoqda.

MEHR-U MUHABBAT MULKINING SULTONI – NODIRA BEGIM (MOHLAR OYIM) BU

(1792–1842)

Mohlar Oyim – Nodira 1792-yilda Andijon shahri-da tug’ilgan, 1842-yilda Qo’qon shahrida qatl etilgan. U iste’dodli, ma’rifatparvar shoira bo’lish bilan birga, davlat arbobi bo’lgan. Komila va Maknuna taxalluslari bilan ham she’rlar yozgan. Otasi Andijon hokimi Rah-

monqulbiy yuqori nasab hisoblangan ming qavmidan bo'lib, Farg'ona hukmdori Olimxonning tog'asidir. Nodira bir g'azalida sayyidlar – ulug'lar xonadonidan ekanini aytib, barcha ulug' ajdodlariga Allohning rahmatini tilaydi:

*Siyodat xonadoni – Shoh Bobur nasli pokimen,
Xudoyo, rahmat ayla barcha ajdodi 'izomimni.*

Amir Olimxon ukasi Amir Umarxonga Marg'ilon hokimligini beradi va uni 1807 yilda Nodiraga uylantiradi. Nodira shu xonadonda she'r yozishni mashq qiladi, shoira Uvaysiy bilan tanishadi, uni muallima sifatida saroyga taklif etadi. Nodiraning eri Amir Umarxon ham Amiriy taxallusida ko'rkam ijod qilgan.

Amir Umarxon vafotidan keyin ularning o'g'li Muhammad Alixon (Ma'dalixon) 14 yoshida (ba'zi manbalarda 17 yoshida – taqriban 1803-06–1842-yillar) taxtga o'tirib, Qo'qon xoni bo'ladi. Lekin davlatni, asosan, Nodira Begimning o'zi idora qildi. Uning hukmronligi davrida xonlik hududini kengaytirishga urinilgan. Vayrona mulklarni adolat bilan obod etish malika Nodiraning ulug' g'oyalaridan bo'lgan:

*Men ham himmat ila el xotirin shod etay,
Mulk vayronlarin adl ila obod etay.*

Nodiraning zamondoshi Qozi Abdunabi Xotifning o'z dostonida yozishicha, Nodira Begim «gulistondek Chahorchaman bog'iga borib, Farg'ona, Toshkent, Xo'jand, Andijon va boshqa shaharlardan fozillar, olimlar, xattotlar, naqqoshlarni o'z xizmatiga chaqirtirib kelgan».

Nodira Begim madrasalar bunyod etgan malikalar-dan sanaladi. U bozor va rastalar, masjid va madrasalar, karvonsaroylar qurdirgan. Go‘ristoni Kalondagi Madra-sai Chalpak, Taqagarlik rastasidagi Mohlaroyim madra-sasini bino ettirgan.

Nodiraning umri oxiri fojiali bo‘ldi. O‘g‘li Muhammad Alixon axloqiy jihatdan haddan oshganligi tarixiy man-balarda tanqid qilingan. Buxoro–Qo‘qon o‘rtasidagi mu-nosabatlar yomonlashuvi va tez-tez takrorlanib turadi-gan harbiy to‘qnashuvlar shunga olib keldiki, Muham-mad Alixon 1841-yilning noyabrida taxtni ukasi Sulton Mahmudga topshiradi. Shunga qaramay, 1842-yilning aprelida Buxoro amiri Nasrullohxon Qo‘qonni zabt etdi va garchi o‘zi islom shariati hukmlariga qat’iy amal qil-gan shaxs bo‘lsa-da, Muhammad Alixonni, uning ukasi Sulton Mahmudxonni va onasi Nodira Begimni qatl et-tiradi.

Nodira Begimdek diyonatli, ma’rifatparvar va olima ayolni o‘ldirishi Nasrullohxonning mudhish xatolaridan sanaladi.

* * *

Nodira Begim faqr va qanoat maqomida ijod qilgan bo‘lsa-da, mehr-u muhabbat sultoni ekanini bayon etib, Farg‘onaning farzonalari – oqil, fozil va donishmandlari uning ma’naviy davlatidan bahramand ekanini izhor etadi:

*Komila, mehr-u muhabbat mulkining sultoniman,
Davlatimdin bahravar Farg‘onada farzonalar...*

Nodira she'rlarida majoziy muhabbat, ya'ni o'z juf-ti haloli Amir Umarxonga bo'lgan oshkora muhabbat izhorlarini ham uchratamiz. Lekin shoiraning oshiq va orif qalbi Haq taolodan o'zgaga oshno bo'lishni istamay-di:

*Ikki olamda umidim Sendin ermish, Komila,
Qilmag'il, yo Rabb, O'zungdin o'zgalarga oshno!..*

Sho'ro davrida buzuq mafkura natijasida Nodira Begimning qabri Amir Umarxonning yonidan boshqa joy-ga – qabriston chekkasiga ko'chirilgan.

* * *

Nodira Begimning o'z Devoni debochasida darj et-gan eng yuksak ma'rifiy she'rlaridan birining sharhi:

*Ul Xudovandeki, qudrat oshkoro ayladi,
Yetti tufroq uzra to'qquz qubba insho ayladi.*

«Ul Yaratguvchi Zot o'z qudratini oshkor aylab, yetti qavat yer ustida to'qqiz qubbani (osmonni) bunyod etib qo'ydi». Aslida osmonlarni ham yetti qavat deyilgan. Bu baytning tayangan nuqtasi:

Taloq surasi, 12-oyat ma'nosi: **«Alloh yetti osmon-ni va yerdan ham ularning mislini (ayri-ayri) yarat-gan Zotdir...»**

*Olam-u Odamni xalq aylab, kamoli hikmati,
Xalq aro turluk alomatlar huvaydo ayladi.*

Haq taolo olamni va Odamni yaratgach, o'z hikmati-ning kamolini namoyish etib, xalq orasida – yaralmishlar o'rtasida turli alomatlar, belgilarni oshkor qilib, belgili

va zohir qilib qo‘ydi. Shu belgilardan ba‘zilari insonlarning tillari, ranglari va fe‘llari xilma-xil bo‘lganidir.

Odamni ilk bor tuproqdan yaratgani, keyin insonlarni ko‘paytirib, yer yuziga tarqatgani, insonga hamdam bo‘lib, odamzodning rohat topmog‘i uchun o‘z jinsidan juftlar yaratgani va oralariga muhabbat va mehribonlik solib qo‘ygani, osmonlarni va yerni yaratmog‘i, insonlarning tillari, ranglarining xilma-xil bo‘lmog‘i, kechasi uxlab dam olishi va kunduzi Haq taoloning fazl-u karamidan rizqini qidirishi, odamlarga qo‘rquv va yomg‘irdan umid berishi uchun chaqmoqni ko‘rsatishi, osmondan yomg‘ir tushirib, u bilan o‘limidan keyin yerni tiriltirishi, osmon va yer Uning amri bilan (mavjud tarzida) qoim turishi – Alloh taolo qudratining dalillari-dandir. Bu oyat-alomatlarining hammasida, shubhasizki, tafakkur qiladigan insonlar uchun ibratlar bordir. Bularning hammasi Rum surasining 20–25-oyatlarida bildirilgan.

*Zarrai xurshidi tobon, qatra – to bahri ‘amiq,
Har biri asrori hikmat erdi – insho ayladi.*

Porlab ko‘rinib turgan quyoshning zarrasidan tortib, to chuqur ummonning bir qatrasigacha – har biri hikmat sirlari edi, ularni Haq taolo bor qildi.

*Qildi Ahmadni nubuvvat osmonida quyosh,
Ul quyosh anvoridin olamni paydo ayladi...*

Haq taolo Injilda Ahmad (Faraklit) deb zikr qilingan va Qur‘oni Karimda bildirilgan hazrati Muhammad alay-hissalomni nubuvvat, ya‘ni payg‘ambarlik osmonida quyosh qilib qo‘ydi. O‘sha quyoshning nurlaridan olamni paydo qildi...

FAZLI ILOHIYGA ERISHGAN MEHRIBON – MAHZUNA BU

(1811 – ?)

XIX asr Qo‘qon adabiy muhitida yetishgan so‘zi dur-u gavhar bo‘lgan shoiralardan biri Mehribon Mulla Boshmon Oxund qizi – Mahzunadir. Taxminan 1811-yilda Qo‘qon shahrida tug‘ilgan. Qo‘qonning Qatag‘on dahasi Mulla Boshmon mahallasidan bo‘lib, otasi mahalla masjidining imomi bo‘lgan.

Mahzuna ota-onasining qo‘lida savod chiqargan, arab, fors tillarini mukammal o‘rgangan. Hazrati Alisher Navoiy, Mavlono Abdurahmon Jomiy, hazrati Muhammad Fuzuliy va boshqa mumtoz so‘z san’atkorlarining ijodidan ta’sirlangan, turkiy-o‘zbek va fors-tojik tillarida she‘rlar yozgan.

Hayoti va ijodi haqida shoir Fazliy Namangoniyning «Majmu‘atush-shu‘aro» («Shoiralar zikri jamlangan kitob») she‘riy asarida ma‘lumot kelgan. Shuningdek, tazkiranavis Hashmatning «Tazkiratush-shu‘aro» kitobida ayrim ma‘lumotlar uchraydi.

Fazliy o‘z tazkirasida Mahzunaning oqila va hozir-javobligi, Qo‘qonda mashhur shoira ekanini aytsa, Hashmat, Pisandiy va tarixchi Ahmadjon To‘ralar ham uning barkamol shoira ekanini xabar qiladilar.

Uning she‘riy qobiliyati, shaxsiy fazilatlari haqida eng ko‘p va iliq fikrlar yozib qoldirgan yagona shoir hozircha Fazliydir. Fazliy: «Garchi ul zaifa bo‘lsa ham, nutqining mazmundorligi jihatidan erkaklardan ustundir», deydi.

Uning hozircha ilm ahliga ma‘lum bo‘lgan asarlari Fazliy bilan bo‘lgan musho‘arasi, buyuk turkman shoiri Maxtumqulining mashhur «Oshiq bo‘lmisham» she‘ri-

ga yozgan tatabbu’ muxammasi, fors tilidagi «Sahbo» g‘azalidir.

Fazliy she’riy hikoyasining nasriy bayoni

«Fozil bir kishining muborak chehra, baxt yulduzidek pok qizi bor edi. U aql-u idrokda Zebunnisodek yagona bo‘lib, Qo‘qonda mashhur shoiradir. U o‘z nomidek muloyim, mehribon edi va meni imtihon qilib sinab yurar edi. Hurlar rashk qiladigan bu go‘zal uzodan – xat orqali men bilan so‘zlashib turar edi.

Bu oy yuzlining taxallusi Mahzuna bo‘lib, baland parvoz xayoli o‘zgacha edi. Xushtab’, odobli, shuningdek, ma’suma, iffatli edi. Men notavon turli o‘y-fikrlar bilan unga qanday g‘azallar yubormayin, ul parichehra mening har baytinga gavhardek pok javoblar qaytarar edi. Bir kun ul gulchehraning she’rini o‘qib, so‘zining zavq-shavqida beqaror bo‘ldim. Va darhol uylariga bordim. U meni ko‘riboq: «She’r o‘qing», dedi. Bu nozaninning so‘zlariga tahsin qilib, men ushbu turkiy she’rni o‘qidim».

Shundan so‘ng Fazliy musho‘arani taqdim etgan.

Musho‘ara va nasriy bayoni

(She’r aytishuv)

Fazliy:

*Yuz ofarin so‘zungga, lubbi lubob ko‘rmay,
Arzi jamol etarmu oina ob ko‘rmay?*

«So‘zingga yuz ofarin! Har bir mag‘iz va mohiyatning, har bir hodisaning mag‘zi, mohiyati va xulosasini

ko'rmay turib, bunday so'z aytib bo'ladimi? Oyna suv bilan yuvilmay turib, husn-u jamolni o'ziga aks ettiradimi?»

Mahzuna:

*Kimdin chiqar bu so'zlar, bag'rin kabob ko'rmay? –
Ganj o'lmag'ay muyassar, holin xarob ko'rmay.*

«Bag'ri kabob bo'lmagan kishidan bunday o'tli so'zlar chiqadimi. Axir, kishi mashaqqat chekib, o'z holini xarob qilmay turib, ganjga – xazinaga erisha olmaydi».

Fazliy:

*Masturai suxang'a po'shidalg' munosib,
Ma'ni arusini, bas, man beniqob ko'rmay.*

«So'z yopinchig'i bilan o'rangan kishiga yopinib – o'ranib yurish munosibdir. Bas, u holda men ma'ni ke-
linchagini niqobsiz ko'rmayin».

Mahzuna:

*Yo'q aybi so'zlarimning, gar bo'lmasa muaddab,
Andoqki, o't ko'kargay hech oftob ko'rmay.*

«Agar adabga muvofiq, tarbiyaga mos bo'lmasa, so'zlarimning aybi yo'qdir. Chunki o't-maysa ochiq havoda oftob ko'rmay ko'karaveradi».

Fazliy:

*Maygun labing hadisi mast etdi g'oyibona,
Kayfiyat o'ldi zohir, jomi sharob ko'rmay.*

«Ilohiy ishq ila yongan labingning so‘zi meni g‘oyibona oshiq qildi, sharobning qadahini ko‘rmay turib, mastlik kayfiyati oshkor bo‘ldi».

Mahzuna:

*Bir vajh buki, ta‘bim xom asramish zamona,
Charxi sipehrdin ul hech pech-u tob ko‘rmay.*

«Bunga bir sabab shuki, mening ta‘bim osmon-falak charxidan u hech qiyinchilik, to‘lg‘onish va iztirob ko‘rmasdan, zamona ta‘bimni xom holda saqlabdi, pishgani yo‘l bermabdi».

Fazliy:

*Mundog‘ki nuktadonsen, kim erdi ustoding?
Oy kasbi nur qilmas, to oftob ko‘rmay.*

«Sen buncha nuktadon – buncha nozik fahm ekan-san, ustozing kim? Chunki oy – to quyoshni ko‘rmaguncha, quyoshdan nur olmaguncha, nur kasb etmaydi, ziyo sochmaydi».

Mahzuna:

*Ko‘p nahrlar yig‘ilsa, daryoi purdur o‘lg‘ay,
Ilm ahlidin bu miskin bir shayx-u shob ko‘rmay.*

«Ko‘p daryolar yig‘ilsa, durga to‘la dengiz paydo bo‘ladi. Holbuki, men miskin bir shayx-u shob – kexsa-yu yosh biror ustoz, biror umr yo‘ldoshini ko‘rmaganman».

Fazliy:

*Bir nukta ayla zohir, Fazliyni qo‘yma Mahzun,
To ketmayin Namangon, sandin javob ko‘rmay.*

«Bir nozik nuktani – bir inja sirni oshkor qil, Fazliyni mahzun, g'amgin holda qodirma, e Mahzuna, toki men sendan javob ko'rmay turib, Namanganga qaytib ketmayin».

Mahzuna:

*Baytul-hazan ichinda uzlat tutub bu Mahzun,
Fazli ilohidur bu, yo'qsa kitob ko'rmay.*

«Bu mahzuna g'amlar uyi ichida uzlat tutib, bu ma'naviy darajaga erishdim, Ey Fazliy, bu fazli Ilohiydir, yo'qsa men kitob ko'rmaganman».

Fazliy bilan Mahzuna orasidagi musho'araning tarixi ana shundan iborat. Shu tariqa bu go'zal baytlar dunyoga kelgan. Mahzunaning yorqin iste'dodi va Xudo bergan ma'rifatini anglash uchun shu she'riy aytishuv kifoyadir.

* * *

Kamina sevimli ona qizlarimni – har biri o'z Vatani-ning ona qizlari bo'lmish yosh ijodkorlarni poklik saltanatiga, ilm-u ma'rifatga, jasorat va shijoatga, ma'naviy barkamollikka undash maqsadida tariximizdagi qalam malikalarini eslab o'tdim. Hammalarini Haq taolo rahmat aylasin!

YANGI DAVR O'ZBEK SHOIRALARI

XX–XXI asr adabiyotida ham Oydin (Sobirova), Ra'no Uzoqova, Zulfiya, Saida Zunnunova, Halima Xudoyberdiyeva, Oydin Hojiyeva, Qutlibeka, Muhtarama Ulug'ova, Farog'at Kamol, Zulfiya Boboyeva kabi ko'plab qalam ahllari yetishdilar.

HALIMA XUDOYBERDIYEVA – o‘zbek adabiyotiga inqilobiy ruh bilan kirib kelgan yangi she‘riyat avlodi safidagi zabardast shoirlardan biridir. Hamid Olimjondan boshlab barcha shoirlar qadimiy Vatanni «O‘zbekiston» degan nom bilan kuylagan bo‘lsalar, Halima opamiz o‘z mardona she‘riyatida ko‘hna yurtni Turkiston deb, xalqni esa turkiy xalqim deb kuylagan chin vatanparvar shoirdir. U she‘riyatdagi samimiyati va mavzu ko‘lami-ning kengligi bilan Zulfiya opaning she‘riy an‘analarini bir necha pog‘ona yuqoriga ko‘tardi.

She‘riy parchalar:

*Men Turonning qadim qo‘ng‘irog‘imen,
Jarang bersam, qir-dalasi uyg‘onar...*

* * *

*Qalbga eking – qadim turk chinorlari tiklansin,
Qon-qardoshning chin do‘st-u chin yorlari tiklansin,
Har yurakda bir Turon minorlari tiklansin,
Ulug‘ mamlakatni ko‘taring!..*

* * *

*InshoAlloh, bo‘lsa umr vafosi,
Men xalqimning suyanch tog‘i bo‘larman.
Nodiraning qayta kelgan sadosi,
Turk-Turonning qo‘ng‘irog‘i bo‘larman...*

* * *

*Bor yumushim bitib, ketar mahalim,
Nuray-nuray, yitib ketar mahalim,
So‘ray-so‘ray o‘tib ketar mahalim
Iltijom shu: «Turkistonni xor qilma!»*

* * *

*Men oh ursam, hozir bo'lar bir arvoh,
U – onam. Tinch o'ylaridan qo'zg'olar.
Men oh ursam, onam bilan urib oh,
Turkiy so'zlar joylaridan qo'zg'olar...*

* * *

*Musulmonsiz,
Har inson
Inson tarafga yursin.
Biri biriga peshvoz –
Imkon tarafga yursin...
...O'zin topmoq istagan –
Qur'on tarafga yursin!*

* * *

*Tillaridan uchmagay oh,
Kul-kul bo'lar zindon-u choh,
Faqat bor xalqqa bir Alloh,
Bittadan Qur'on kerak...*

* * *

*Yolg'on degan yuk ortgan til osilgan –
Ko'p og'ir yuk, undan tilni ozod et.
Bizlar nafs zindonida qullarmiz,
Qo'ldan kelsa, biror qulni ozod et.*

* * *

*Adashgan musulmonmiz,
Goh sust ketgan iymonmiz.
Lek aynimagan qonmiz,
Bizni Allohga boshlang...*

FAROG‘AT KAMOL – yangi davr o‘zbek she‘riyatida naziri bo‘lmagan, yuksak she‘riy san‘ati hamon tadqiq etilmagan san‘atkor shoiradir.

She‘riy parchalar:

*Ko‘nglim ovozidan qalqib uyg‘ondim,
Menga sirdosh bo‘ldi o‘zimning ko‘nglim.*

* * *

*Ne kechsa – boshingdan kechgani ayon,
Faryod kitobingda sahfalari bisyor.
Ey muborak zamin, ona Turkiston,
Har toshingda qismat yozig‘lari bor...*

* * *

*O‘g‘lon, fursat yetdi, o‘zliging tani,
Yurakka jasorat tilagin ko‘proq.
Siljitgin zulumat hududlarini,
Bugun senga mushtok bu turkiy tuproq...*

ZULFIYA BOBOYEVA – Xo‘jand mulkida yetishgan, o‘zbek she‘riyatining asl ma‘nodagi yangi Zulfiyasi, o‘z so‘zi, o‘z ovozig‘a ega bo‘lgan, she‘riyati yoniq shoiradir!

She‘riy parchalar:

*Men yurakni kirgizdim so‘zga,
To‘kkim kelmay yerga qadrimni.
Olib qo‘ydim yanagi kuzga
So‘nggi quvonch, so‘nggi dardimni...*

* * *

*Yorug' ishonchimni do'st qil o'zimga,
Qancha kerak bo'lsa, ko'rsatgum sabot.
Men istagan kabi ko'rin ko'zimga,
Onasan, bolangni aldama, hayot!..*

* * *

*Kechirilmas ishdir xalqqa xiyonat,
Sustlashmang, o'lmasin din-u diyonat,
Yurtni bosib ketar qoim qiyomat –
Ayniqsa, ketmasin iymonning qadri!..*

* * *

*Hozirdanoq eslab, mana,
O'ychan ko'zim yoshlanadi:
Bir hayotim bordir yana –
O'lgan kunim boshlanadi...*

* * *

*Bizning qushlar uzoq-uzoq ucharlar,
Asta to'ldirishar osmonimizni.
O'sha qushlar yuksak e'tiqod bo'lib,
Olis-olislarga chorlaydi bizni...*

* * *

*Garchi yer farzandi, yerning erkasi,
Yurak tuprog'ida – tug'ilgan joyi.
Gullardek mantiqdan yuqori ular,
Tuyg'ular – gullardek samoviy...*

QUTLIBEKA – she’riyati ham shoyoni e’tibordir.

Umid qilamanki, adabiyotshunos olim va munaqqidlarimiz bu benazir shoirlar ijodini yangi nuqtayi nazardan tadqiq etadilar.

Aslida adabiyotda «erkaklar she’riyati», «ayollar she’riyati» degan gap yo‘q. She’riyat yaxlit bir she’riyatdir. Lekin oriflikda – avliyolikda erkaklar martabasiga yetgan ayollar bo‘lganidek, she’riyatda ham erkaklar darajasidan o‘tadigan mardona ayollar she’riyati bor! Yosh ijodkor qizlarim, ulkan qalb, ulkan dard bilan, buyuk g‘oya va maqsadlar bilan yashashlarini, mahdud mavzular doirasini yorib chiqib, yuksak pardalarda ijod etishlarini orzu qilaman. Bu borada tariximizda yaxshi misol va namunalar borligini ko‘rdik, kuzatdik.

HAYO PARDASI

Shoiralarimiz ijodini maqtasak, maqtovg'a loyiq sifatlari ko'p. Lekin ba'zi shoiralarimiz ijodida nafsoniy istaklar, oshkora izhorlar, «o'ldim-kuydim»lar, hirs va ehtiros holatlari uchraydiki, uni o'qib erkak kishi ham uyaladi. Har qancha jahon she'riyatidan ulgu va rang olsangiz ham, baribir, o'zbek xalqining o'ziga xos milliy xususiyatlari bor. Ayol she'riyatida hayo pardasi bo'lishi kerak. Aslida erkaklar she'rida ham, ayollar she'rida ham ishqiy mavzularda hayo va uyat hissi zarur. Lekin ayol she'riyatida hayo pardasi ko'tarilgan bo'lsa, behad o'ng'aysiz hol bo'lar ekan. Kamina ushbu so'zga misollar keltirsam, anchagina shoiralarimizni xijolatga qo'ygan bo'laman. **Odam o'qishga uyaladigan narsani yozishga qanday qo'l boradi?** Har kim o'z she'rlarini hayo nuqtayi nazaridan qayta ko'rib chiqishi lozim.

Ayniqsa, vaqtli matbuotni majoziy sevgi izhorining maydoniga aylantirib olish juda o'ng'aysiz ishdir.

SHE'RIYAT SHIFOKORI

Nafsoniy istak ustun bo'lgan joyda muhabbat ham, she'riyat ham halokatga yaqin bo'ladi. I.P.Ekkermanning «Gyote bilan suhbatlar» kitobida qiziq voqea naql etilgan. Gyotening kotibi yosh bir shoiraning she'rlarini keltirib, uning g'oyat iste'dodli ekanini aytadi. Suhbatda ulug' shoirning shifokor-tabibi ham bor edi. She'rlar qarab chiqilgach: «Bu qiz erga tekkach, she'r yozishni tash-

laydi», – deyishadi. «Nega?» – deyilganda, qizning sevgi she’rlarida nafsoniy istaklar – ehtiros va hirs kuchli ekani, qiz turmush qurgach, she’rga ehtiyoji qolmasligi aytiladi. Demak, nafsning murodga yetishi sevgigagina emas, iste’dodga ham salbiy ta’sir qilishi anglashilmoqda. Kamina bu naqlni «Jon va jonon sirlari» maqolamda keltirganman. Bu o’rinda yoshlarga foydali bo’lganidan qayta ilova etdim.

Bir shoira opamiz o’zlari eslaganlar. Sho’ro davrida yosh shoira bo’lgan bu opamiz ustoz Abdulla Qahhorga: «Moskvaga, Oliy adabiyot institutiga o’qishga bormoqchiman», deydi. Ulug’ adib: «Moskovda nima qilasiz? Siz erga teging!» deb tavsiya qiladi Abdulla Qahhor. O’ylab qarasam, bu so’z hayotda ham, adabiyotda ham milliy tuyg’uni – hayo pardasini saqlash haqida aytilgan ekan.

AYOL VA ASKIYA

Shuningdek, sahna asarlari va oynayi jahon ko’rsatuvlarida ham hayo pardasi saqlanishi zarur. Ba’zi adiblar televizorni «dilbuzar» deb ataydi. Bu ta’rif ba’zan haqiqatga mos kelib qoladi.

O’zi oynayi jahonni oz ko’raman. Nima narsa ma’naviy ehtiyojingizga muvofiq kelsa, qabul qilasiz. Aks holda, uning sizga keragi yo’q.

Bir gal tasodifan ko’rib qoldim. Televideniyeda askiya bo’layapti, yig’inda erkaklar bilan birga oilali ayollar, yosh-yosh qizlar ham o’tiribdi. Askiya – uyat va sharmandali narsalarni niqoblab aytadigan san’at. Nahotki, shunga farosat yetmasa! Askiya bor joyda ayol nima

Mirzo KENJABEK

qiladi, ayol bor joyda askiyaga nima bor? Naqadar sharmandali hol bu!

Askiya erkaklarning xos san'ati, uning usti yaltiroq bo'lgani bilan ichi qaltiroq, ya'ni tagida uyat gaplar yashiringan bo'ladi.

Vaqtida bir yosh olim (kimligini aytmay qo'ya qolay) Abdulla Qahhorning huzuriga kelib:

– Ustoz, yordamingiz kerak, askiya mavzuyida ilmiy ish qilmoqchiman, – debdi. Adib esa:

– Askiya – go'ng ustida o'sgan gul, uning tagini kovlab nima qilasiz? – degan ekan.

Tagi kovlansa, bad hidi anqiydigan joyda ayollar o'tirishi milliy madaniyatimizga muvofiq kelmaydi. Shunga o'xshab, ayollar she'riyatida ham hamisha hayo pardasi bo'lishi zarur.

DIN AHLLARINI HAQORAT QILMAYLIK

Aziz va sevimli yosh do'stlarim!

Yuqorida aytganimizdek, insoniyat va millat ruhiy hayotining bir qismi adabiyot bo'lsa, ulkan bir qismi dindir. Bashar hayotini bu ikki ma'naviy manbasiz tasavvur etib bo'lmaydi. Bizning xalqimiz Chor Rossiya-si va Sho'ro davrini qo'shganda, 120 yillik mustamlaka va istibdod hayotini boshidan kechirdi. Lekin o'z e'tiqodi, iymoni, din-u diyonatini qo'ldan bergani yo'q.

Tarixda Adolf Gitler bir fashist bo'lsa, Iosif Stalin ham undan qolishmaydigan qonxo'r edi. Lekin nohaqlik va zulm – unisi tarafida, mudofaa va xaloskorlik – buni-si tarafida bo'ldi. Gitlarning sobiq Sho'ro mamlakatiga

urush ochishining ko‘plab siyosiy sabablari bor. Lekin u o‘z hujumiga boshqa narsani bahona qildi. O‘zbek, rus, ingliz tillarida nashr etilgan «O‘zbekiston musulmonlari idorasi» nomli tarix kitobida aytiladi: «Ikkinchi jahon urushida fashistlar – Xudosiz bolshevizm g‘oyasini yer yuzidan supurib tashlashga qaror qilgach, mustabid tuzum rahbarlari SSSR xalqlarining dindor qismiga e‘tiqod erkinligi borasida ozgina yengillik berishga majbur bo‘ldi» (10-sahifa). Ya‘ni, Gitler: «Bolsheviklar Xudosiz jamiyat qurdi, dunyoda Xudosiz jamiyat bo‘lishi mumkinmi? Biz Xudosiz jamiyatni yer yuzidan supurib tashlashimiz kerak!» degan g‘oyani ilgari surdi.

O‘zi fashist bo‘lsa ham, Xudosiz jamiyat bo‘lishi mumkinligini aqliga sig‘dira olmagan. To‘g‘ri, Gitlarning maqsadi faqat bu emas, uning siyosat, iqtisod, taqsimotga oid yovuz maqsadlari bor edi. Lekin o‘z qonli yurishiga «Xudosiz jamiyatni yer yuzidan yo‘qotish»ni sabab qildi.

Olamshumul xulosa shuki, har bir bashar zoti, har bir mavjudot-u maxluqot Ilohiy qudratga muhtojdir. Bir inson kimsasiz orolda, ilmsiz, ma‘rifatsiz muhitda yolg‘iz yashayotgan bo‘lsa ham, o‘zidan yuksakda bir Ilohiy qudrat borligini his qilib yashaydi. Inson tabiati Ilohiy kuchga tobe‘ qilib yaratilgan. Bas, shunday ekan, insonlarni imyon-e‘tiqodi uchun kamsitish, tahqirlash va haqoratlash adabiyot ahliga yarashadigan ish emas.

«TOG'AM ROZI BO'LSIN DESANG...»

Ustoz Erkin Vohidov bir voqeani gapirib bergan edilar. U kishining tog'alari Saxiboyev degan kishi, adash-masam, prokuror bo'lib xizmat qilgan. Hazrati Shayx Alixonto'ra Sog'unliy suhbatlarini bot-bot tashkil qilib turgan. Ustoz tog'alari tufayli hazrati Sog'unliyning suhbatlariga erishib, nazarlarini topishga muvaffaq bo'lganlar.

«Quyosh maskani» degan dostonida tog'alari haqida mana bunday mehrli e'tirof satrlari bor:

*Jigar bo'lib boqdi necha mushfiq ko'z,
Necha do'st-yor topdim, necha birodar,
Esim tanib, menga
«Tog'a» degan so'z
«Ota» degan so'zga bo'ldi barobar.*

Demak, tog'alari ota o'rnida u kishini parvarish qilgan. Ustoz hikoya qiladilar:

– Bir kun tog'am aytdilar: «O'g'lim Erkinjon! Men seni o'stirib-ulg'aytirdim. Mana, universitetda o'qitdim. Endi sen taniqli shoir bo'la boshlading. Agar ikki dunyoda tog'am mendan rozi bo'lsin desang, muqaddas dinimizga qarshi biror narsa yozmagin!»

Ustoz aytadilar:

– Shu gapdan keyin biror majburiyat bo'lib qolgan-da ham, yoki, hech qanday zarurat bo'lmay, shuncha-ki, jamiyatga yoqish uchun bo'lsa ham, hech qachon muqaddas islom diniga qarshi biror narsa yozmadim...

Bu so'z yosh-u qari barcha qalam ahliga tegishli ibratdir. Hali vaqt-u soati keladiki, jahon adabiyotining

ba’zi mashhur namunalari ham iymon nuqtayi nazari-dan qayta baholanadi.

XX asrning eng muhtasham allomalaridan bo‘lgan hazrati Shayx Mavlaviy-Hindistoniy endigina «Yoshlik devoni»ni nashr ettirgan shoir haqida: «Erkin Vohid degan shoir chiqibdi, uning she’rlarida ma’no bor», degan ekanlar. Bunday aziz zotlarning nazari va e’tirofiga erishish har kimga ham nasib bo‘lavermaydi.

MUHAMMAD ISMI BOR JOYDA TAHQIR SO‘ZLARI BO‘LMASLIGI LOZIM

Kamina 1983-yilda «O‘zbekiston adabiyoti va san’a-ti» gazetasi she’riyat bo‘limida xizmat qilar edim. Erkin Vohidov, Abdulla Oripov kabi ulug‘ ustozlar bilan savol-javob tarzidagi suhbatlar tashkil qila boshladim. Bu ish-da bosh muharrir o‘rinbosari lavozimida xizmat qilgan atoqli olim Ibrohim G‘afurov tavsiyasi va maslahatlariga diqqat qilar edim.

Erkin Vohidov bilan qilgan suhbatim «Shoir va she’r dunyosi» sarlavhasi bilan gazetada chop etildi (1983). Abdulla Oripov bilan qilgan suhbatim «Inson qalbi bilan hazillashmang» degan sarlavha ostida bosildi (1983, 26-sentyabr). Shundan keyin bosh muharrir, atoqli adib Odil Yoqubov mendan ranjigandek bo‘lib yurdilar. Gap shundaki, o‘sha suhbatdagi ba’zi so‘zlar go‘yo Odil Yoqubovga qarshi qaratilgan ekan. Lekin bu tagdor holat-dan mening aslo xabarim yo‘q edi. Bu so‘zlar asar qahramonlarining nomlari haqida bo‘lgan. Abdulla Oripov o‘sha suhbatda: «Muallif qahramonni yomon ko‘rsa,

unga yomon nom qo'ymasligi kerak. Chunki yomon odam onasidan yomon bo'lib tug'ilmaydi-ku! Ota-onasi boshda unga yaxshi nom qo'ygan bo'ladi. Haqqoniylik shuni talab etadi. Yo'qsa, o'quvchi uning nomiga qarab, salbiy qahramon ekanini, bundan keyingi qilmishlari salbiy bo'lishini sezib qoladi», deb gapirgan.

Bu adabiyot haqida samimiy, haqqoniy so'zlardir. Bu, unutmagan bo'lsam, nomiga salbiy sifatlar taqalgan qahramonlar haqida aytilgan edi.

Bu gaplar o'z zamonida o'tib ketdi. O'sha ulug' ustozlar – Odil Yoqubov, Abdulla Oripov olamdan o'tib ketdilar. Lekin kamina ulug' alloma, xojagon-naqshbandiya ta'limotining ulug' shayxi Muhammad Zohid Qo'tqu Ibn Ibrohim al-Bursaviy hazratlarining iymon-e'tiqodga oid «Ahli sunnat val-jamoat aqoidi» asarini, buyuk alloma, nodir faqih va muhaddis, xojagon-naqshbandiya tariqati Kumushxonaviya sho'basining asoschisi, ajdodlari Buxoroi sharifdan bo'lgan aziz shayx – Ahmad Ziyoudin al-Kumushxonaviy hazratlarining «Jomi' ul-mutun» kitoblarini tarjima qilib, ko'plab tafsir va hadis kitoblari o'qib, shuni angladimki, Muhammad degan ismga nisbatan hurmat saqlash shart ekan va kimki bu ismga behurmatlik qilsa, uning jazosi muqarrar ekan. Bu hurmat koinotning sayyidi, sevikli Payg'ambarimiz hazrati Muhammad alayhissalomning buyuk hurmatlari tufayli ekan. Bu muborak ism yoniga salbiy sifatlarni taqash, masalan, «Muhammad Chatoq» deb nomlash og'ir gunoh hisoblanar ekan.

«MUHABBATIDIN OTINGNI HABIB ATAB MAHBUB...»

Xulusiyning «Majma’ ul-odob» kitobida: «Bir dasturxon boshida Muhammad ismli kishi o’tirgan bo’lsa, o’sha yerda barakot bo’lishiga e’tiqod qilinsin», deyiladi.

Hazrati Umar (roziyallohu anhu): «Farzandlarinigizga Muhammad deb ism qo’ysangizlar, bu muborak nomning hurmatini saqlanglar. Yo’qsa, aslo Muhammad deb nom qo’ymanglar», deya viloyatlarga maktub yo’llaganlar (*Ibn Kasir*).

Hazrati Alisher Navoiyning «Zihi, visolingga tolib tutub o’zin matlub» degan na’t g’azalini o’qib, men bu haqiqatga yanada qat’iyroq iqror bo’ldim. Matla’da aytiladi:

*Zihi, visolingga tolib tutub o’zin matlub,
Muhabbatidin otingni Habib atab Mahbub.*

Ya’ni: «Qanday go’zaldirki, talab etuvchi har bir kishi sizning visolingizga o’zini talabgor deb biladi, zero, Mahbub, ya’ni sevilguvchi Zot bo’lmish Haq taolo sizga bo’lgan muhabbati tufayli nomingizni Habib deb atagan».

Zotan, sevikli Payg’ambarimiz alayhissalomning bir ismlari Habibullohdir.

«OTING JANOBIG'A KIRGAN...»

Alisher Navoiy yana bir baytda aytadilar:

*Oting janobig'a kirgan hisob vaqtida,
Agarchi jurmi erur behisob, emas mahsub.*

Ya'ni: «Sizning nomingiz dargohiga kirgan kishi Qiyomat kunidagi hisob vaqtida, garchi gunohi behisob bo'lsa-da, hisob-kitobga tortilmaydi». Demak, inson Muhammad deb nomlangan bo'lsa-yu, shu muborak nomning sharafi va hurmatini saqlab, to'g'ri iymon-e'tiqod va solih amallar bilan yashagan bo'lsa, hisob vaqtida u hisob-kitob qilinmay, rahmatga va jannatga erishadi, deyilmoqda.

Hazrat Navoiy bu xulosani odob va tafsir kitoblari-dan olganlar. Shoir devonida bu baytning «Iting hisobig'a kirgan hisob vaqtida...» degan shakli ham bor. Lekin men hazrat Navoiyning arab yozuvidagi kitoblari-dan birida «Oting janobig'a kirgan» deb yozilganini ko'rganman.

Demak, yoshlar, bo'lajak ulug' qalamkashlar she'r yoki boshqa asar yozganlarida aziz payg'ambarlarga nisbatan, jumladan, sevikli Payg'ambarimiz hazrati Muhammad alayhissalomga nisbatan, boshqa aziz-avliyolarga nisbatan samimiy hurmat saqlashlari, ularga zinhor va zinhor behurmatlik qilib qo'ymasliklari zarur ekan. Yo'qsa, bunday asar turli fitnalarga, beizzatlik va bebro'ylikka sabab bo'lib qoladi.

XAYRLI VA MUBORAK MANZILLAR

Aziz ustozlarimiz ta’kid bilan aytar edilar: «Ma’naviy jihatdan xayrli – barakatli manzillar uch xildir: 1. Payg‘ambarlarning qadamlari yetgan manzillar. 2. Sahobalarning qadamlari yetgan manzillar. 3. Avliyolar, tariqat pirlari bo‘lmish valiy zotlar yashagan yoki yetishgan manzillar.

Bizning diyorimizda payg‘ambarlar (alayhimussalom), sahobalar (roziyallohu anhum) bilan bog‘liq yodgorliklar bor. Avliyolar bilan bog‘liq yodgorliklar – maqbaralar esa sanoqsizdir, ko‘p shukr.

Termiz yaqinidagi Payg‘ambar orolida – Amudaryoning o‘rtasidagi orolda hazrati payg‘ambar Zul-Kifl alayhissalomning, Xo‘jaylida esa Sham’un Nabiy alayhissalomning qabrlari bor, deb e’tiqod qilinadi. Shuningdek, Uzun tumanida hazrati Abu Hurayra, Qarshi shahri yaqinida hazrati Ubayda ibn Jarroh, Sariosiyo va Samarqandda hazrati Abdurahmon ibn Afv (roziyallohu anhum) kabi sahobalarning maqom qabrlari, Samarqandda hazrati Qusam ibn Abbosning (roziyallohu anhum) asl qabrlari mavjud.

Yurtimizning barakoti, shubhasiz, ana shu ma’naviy omillarga ham bog‘liqdir.

SOHIBQIRON AMIR TEMUR E’TIROFLARI

Tilimizda «Sohibqiron» degan so‘z bor. Bu so‘z lug‘atlarda: «1) Baxtiyor, baxtga erishgan; 2) ulug‘ podshohlarga berilgan laqab, jahongir; 3) Ilmi nujumda

– ikki sayyora (Zuhal va Mushtariy) bir-biriga yaqinlashgan vaqtda tugʻilgan bola (bunday bola baxtli, ulugʻ martabali boʻladi, deb ishonilgan)», deb izohlanadi.

Ulugʻ alloma Gʻiyosuddin Rompuriy Mustafoobodiy «Gʻiyos ul-lugʻot» kitobida bu soʻzni sharhlagach: «Bu «Sohibqiron» lafzi Amir Temurning laqabidirki, olti iqlimning podshohi boʻlgandir», deb ilova etadi. Sohibqiron Amir Temur deyilishining boisi ana shu ekan.

Sohibqiron Amir Temur diyorimizdagi sahobalar va avliyolar qabrini eʼzozlagan, xalqqa ham eʼzozlashni amr qilgan, harbiy safarlarida aziz sahobalarning muborak xoklarini Turonzaminga keltirishga uringan. Naqlga koʻra, u kishi lashkarga, aziz sahobalarning suyaklarini teriga joylagach, bu xok qaysi zotga mansub ekani ni yozdirib, bogʻlatmagunicha, qabrdan uzoqlashishga ruxsat bermagan. Toki keyin muborak xoklar aralashib, kimniki ekani nomaʼlum boʻlib qolmasin. Sohibqiron harbiy safarlari vaqtida, Iordaniya (Urdun) mamlakatida, uning poytaxti Ammon shahridan 60 chaqirim chamasi narida, Falastinga yaqin yerda boʻlgan hazrati Ubayda ibn Jarrohning (roziyallou anhu) muborak mozorini ziyorat qilib, xoklarini Turonzaminga keltirgan (*Ubaydulla Uvatovning Amir Temur muzeyida oʻtgan Sohibqiron haqidagi suhbatidan; 2016, aprel*).

Buyuk Sohibqiron bu ishlarni nima uchun qilgan? Albatta, oʻz diyorida tinchlik, barakot, xayr boʻlishi uchun qilgan. Ana shu yoʻsin diyorimizda aziz sahobalarning maqom qabrlari paydo boʻlgan. Ana shu yoʻsin diyorimizga Qurʼoni Karimning eng muborak nusxalaridan biri kelib qolgan.

Amir Temur oʻz «Tuzuklari»da yana: «Shayxlar, soʻfiylar Allohni tanigan oriflardir. Ularning xizmatlarida boʻlib,

suhbatlar qurdim va oxirat foydalarini oldim. Ulardan Tangri taoloning Kalomini eshitib, karomatlar ko‘rdim, favqulodda hollarini mushohada etdim va suhbatlaridan rohatlanib, huzur qildim», – deb lutf etadi («*Temur tuzuklari*». «O‘zbekiston» nashriyoti, 1996. 84-bet).

«SAYYIDLAR, SHAYXLAR, ULAMO VA FUZALO ZOTLARNI O‘ZIMGA YAQIN TUTDIM»

Tasavvuf shayxlari hamisha jamiyat bilan hamnafas yashab, ijtimoiy hayotning hamma jabhalarida faol bo‘lganlar. Hazrati Shayx Najmiddin Kubro mo‘g‘ul bosqinchilariga qarshi jangda shahid bo‘ldilar. Hazrati Shoh Bahouddin Naqshband pirimiz «Dil ba Yor, dast ba kor» shiorini hayotga tatbiq etdilar. Hazrati Xoja Ubaydulloh Ahror pirimiz vaqf muassasasini jahon miqyosiga ko‘tardilar. Barcha shayxlar, avliyolar siyosat, ilm-ma‘rifat, davlat boshqaruvida diyonatli hukmdorlarga amaliy yordam berganlar. Shuning uchun Amir Temur, Husayn Boyqaro, Zahiruddin Muhammad Bobur kabi davlat boshliqlari xalq orasida katta obro‘ e‘tiborga ega bo‘lgan tariqat pirlariga ehtirom ko‘rsatganlar. «Temur tuzuklari»da Sohobqironning ushbu e‘tirof so‘zlari qayd etilgan: **«Sayyidlar, shayxlar, ulamo va fuzalo zotlarni o‘zimga yaqinlashtirdim. Ular mening saroyimga doim kelib ketib, majlislarimni bezab turdilar. Diniy, fiqhiy-huquqiy, aqliy masalalarni o‘rtaga tashlab, qimmatli fikrlar bildirishar edi. Halol va haromga oid masalalarni men ulardan o‘rgandim»** («*Temur tuzuklari*». «Yozuvchi» nashriyoti, 1991. 64–65-betlar).

AZIZ ZOTLARGA NISBATAN EHTIROM NAMUNASI

Ulug' muarrix «Mavlono Sharafuddin Ali Yazdiyning yozishicha, Sohibqiron Amir Temur qachon uzoq safarlardan qaytsa, avvalo, hazrati Qusam ibn Abbosning (roziyallohu anhu) muborak qabrlarini ziyorat qilib, fayz topar, keyin boshqa ishlarga mashg'ul bo'lar edilar.

Abu Tohirxoja Samarqandiy «Samariya» kitobida aytadilar: «Mavlono Sharafuddin Ali Yazdiy o'z «Tarixi»da shunday yozadikim, Amir Temur 801–(1399) yilda Hinduston yurishidan qaytib kelib, sha'bon oyida (8-aprel va may oralig'ida) Samarqanddagi Bog'i dilkushoda bo'lgan ko'shkiga qo'ndi. Oltinchi sha'bonda (13-aprel) Samarqand ichiga kirib, yettinchisida (14-aprel) Qusam ibn Abbosning (roziyallohu anhu) fayz beruvchi mozoriga ziyorat uchun borib, fayziyob bo'ldi. Undan hazrati Shoh (Qusam ibn Abbos) sharofatli mozori darvozasining qarshisida bo'lgan Tuman Oqoxonaqohiga borib, peshin namozini onda o'tab, Bog'i chinoron sari jo'nadi...»

TARIX BO'HTON VOSITASI EMAS

Aziz va sevimli yosh do'stlarim!

Tarix abadiy ibratdir. Lekin undan ibrat oluvchi ozdir. Tarixni o'tgan ulug' shaxslar sha'ni uchun tuhmat va bo'hton vositasiga aylantirmaslik kerak.

Ulug' hukmdor va benazir alloma Mirzo Ulug'bek haqidagi ba'zi asarlarda ulug' avliyo, Xojagon-naqsh-

bandiya tariqati 19-murshidi komili, shayxlar sultoni, sultonlar shayxi – Xoja Ubaydulloh Ahror hazratlarini salbiy shaxs qilib ko‘rsatish kayfiyati bor edi. Unutmaslik kerakki, bunday asarlar ayni sho‘ro mustamlakasi gurkiragan, fosid mafkura hukmron bo‘lgan, hamma buyuk din arboblari va shayxlarni qoralash urfga aylangan davrda yozilgan. Ba’zi mualliflar yangi istiqlol davrlarini ko‘rmay, dunyodan o‘tib ketdilar.

Ayrim tarixiy asarlarda Mirzo Ulug‘bek bilan Xoja Ahrori Valiy hazratlarini muxolif qilib tasvirlash, aziz zotlar ruhiga tuhmat qilish kabi tarixiy haqiqatga zid bayonlar, chalkashlik va noxolisliklar uchrar edi. Shuningdek, Xoja Ubaydulloh Ahror hazratlarining siymolari va faoliyatlariga o‘ta salbiy munosabat ko‘rsatilib, u zotni Mirzo Ulug‘bek qatliga fatvo bergan g‘oyat mutassib din arbobi deb talqin etilar edi. Bugungi kunda bu da‘voning mutlaqo bo‘hton ekanligi kunday ravshandir.

Mirzo Ulug‘bek – Muhammad Tarag‘ay hijriy 796, milodiy 1394-yilda tug‘ilib, hijriy 853, milodiy 1449-yilda qatl qilinganlar. Xoja Ahrori Valiy hazratlari hijriy 806–895, milodiy 1404–1490-yillarda yashab o‘tganlar. Mirzo Ulug‘bek vafot etgan yilda Shayx hazratlari 45 yoshlarda edilar.

Shuningdek, padarkush Abdullatif qiyofasini tasvirlashda uning o‘z otasi Mirzo Ulug‘bek haqida «diyonatsiz shoh», «takabbur», «dahriy shoh» deyishi, uning noyob kitoblarini «kufr kitoblari» deb atashi, shuningdek, buyuk alloma Ali Qushchini «iblisi la’in», «takabbur» deb aytishi dalili mustahkam bo‘lmagan gaplardir. Lekin ayniqsa, Shayx Nizomuddin Xomush hazratlarining tillaridan Mirzo Ulug‘bek haqlarida «dahriylik yo‘lini tutgan murtad» deyilishi mutlaqo asossiz, dalil-hujjati

yo'q to'qimadir. Birovni yoqlashda haddan oshish durust bo'lmaganidek, birovni qoralashda ham haddan oshish va bo'hton to'qish durust emas.

Nizomuddin Xomush bilan Mirzo Ulug'bek voqealari-da nozik bir nuqta bor. Lekin uni gapirish bizning had-dimiz emas.

Yana Shayx Nizomuddin Xomushning Mirzo Ulug'bek haqlarida «alar bitgan kufr kitoblarini o'tda yoqmoq sen uchun (Abdulatif uchun) vojibdir», deyishi, shuningdek, Ulug'bekning izdoshlari haqida «ularni qatli om qilish», «beparhez galai saklarni mahv etish (ya'ni o'ldirish)»ni go'yo Xoja Ubaydulloh Ahror hazratlarining istagi va duosi qilib ko'rsatish tarixiy haqiqatga zid gaplardir.

Ulug' zotlar nomidan bo'hton to'qish adabiyotga yarashadigan ish emas.

ABJAD HISOBIDA BITILGAN TARIX

«Boburnoma» asarida Mirzo Ulug'bekning shahid bo'lish tarixi ushbu forsiy nazmda bunday bayon qilingan:

*Ulug'bek bahri ulumu xirad,
Ki dunyovu dinro az o' bud pusht,
Zi Abbos shahdi shahodat chashid,
Shudash harfi ta'rix **Abbos kusht.***

Tarjimasi: «Ilm va aql dengizi bo'lgan Ulug'bek dun-yo va dinning tayanchi edi. Abbos qo'lidan shahidlik bolini tottdi, «Abbos kusht» («Abbos o'ldirdi») harflari o'lim tarixi bo'ldi».

...«Abbos kusht» iborasini abjad hisobidagi harflar bilan hisoblaganda hijriy 853-yil kelib chiqadi. Bu milodiy hisobda 1449-yildir.

Hazrati Alisher Navoiy «Majolis un-nafois» asarida «Ulug‘bek Mirzo – donishmand podshoh erdi. Kamoloti bag‘oyat ko‘p erdi. Yetti qiroat bila Qur‘oni majid yodida erdi», desalar, «Abdulatif Mirzo – savdoyi mizoj va vasvasiy tab’ va devonasor kishi erdi. Mundin o‘zga dag‘i g‘arib badfe‘lliqlari bor erdikim, zikridin behijobliq lozim kelur. O‘tar dunyo maslahati uchun donishmand va podshoh otasin o‘lturdi», deydilar.

Endi bugungi davrda o‘tgan xatolarni tuzatish, tarixiy haqqoniyatni tiklash imkoni paydo bo‘ldi.

Bu so‘zlardan chiqadigan xulosa shuki, tarix – o‘tmishga aylangan haqiqatdir. Mafkuraviy tazyiqlar bilan yoki shaxsiy dunyoqarash sababli tarixni buzib ko‘rsatishga, ma‘naviy hayotning benazir darg‘alari bo‘lgan zotlarni qoralab, manfur shaxslarni qahramon qilib ko‘rsatishga hech qachon, hech kimning haqqi yo‘q.

«TARIXI MUHAMMADIY» ASARI O‘ZBEK ROMANCHILIGINING OLIY NAMUNASIDIR

Alixonto‘ra Sog‘uniyning «Tarixi Muhammadiy» asari o‘zbek romanchiligining oliy namunasidir. Ulug‘ adib, alloma va shoir bu asarni og‘ir mustamlaka hamda istibdod davrida yozgan. Bu qat‘iy tarixiy dalil-hujjatlarga asoslangan asardir. Asar sho‘ro davrida dunyo yuzini ko‘rgan emas. Faqat qismlarga bo‘linib, so‘nggi oshkoralik va ilk istiqlol yillarida nashr bo‘la boshladi. Hozirga-

cha o'zbek adabiyotida bu qadar ko'p adadda nashr etilgan asar bo'lmasa kerak. Orif va oshiq muallif mustamlaka siyosati butkul barbod bo'lishiga, ozod va mustaqil zamonlar kelishiga, shubhasiz, qat'iy iymon bilan ishongan. Asarni yozgach, O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlari idorasiga undan nusxa topshirib, ilmiy-ijodiy faoliyatida bemaol davom etavergan! Mana, iymonning quvvati! Mana, komil e'tiqodning mukofoti!

Biz eshitganmiz, atoqli adib Oybek Navoiy asarini necha qayta ishlagan, Sohibqiron Amir Temur haqida ma'lumotlar to'plagan. Pirimqul Qodirov «Yulduzli tunlar»ni bir necha marta qayta yozishga majbur bo'lgan.

Lekin u asliyatlardan yaxlit namuna qolgan emas. Agar adiblارimiz bor haqiqati bilan tarixiy asarlarini yozib, kelajakka ishonib, asarlarini yashirin saqlab qo'ysalar edi, bugun adabiyotimiz ancha boyigan bo'lar edi. Afsus, deymiz. Lekin zo'rg'a o'limdan qolib, qo'rquvda yashagan marhum yozuvchilarimizni ham aybdor sanamaymiz.

BERUNIY HAQIQATLARI

Aziz va sevimli yosh do'stlarim!

Tarix – abadiyat devorlariga yozilgan haqiqatdir. Uni davrlar manfaati va mafkurasiga qarab o'zgartirishga yoki buzib talqin qilishga hech kimning haqqi yo'q.

Albatta, har bir tuzumning o'z mafkurası, o'z ijtimoiy-siyosiy yo'nalishi, davr va zamon talabiga ko'ra, yashash uchun kurashish uslublari bo'ladi. Abu Rayhon Beruniy – Muhammad ibn Ahmad (973–1048) dunyo ilm-fanining buyuk siymolaridan bo'lib, asar-

larida o‘z davrining barcha fanlari, jumladan, falakiyot (astronomiya), fizika, riyoziyot (matematika), ilohiyot, ma’danshunoslik fanlarini qamragan mutafakkir allo-madir.

Allomaning «Osor ul-boqiya» («Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar») asari – o‘xshashi yo‘q ilmiy-qo-musiy asar. Unda insoniyat tarixi, e’tiqodiy qarashlari, yashash tarzlari haqida dalil-hujjat bo‘ladigan haqiqat-lar qamralgan.

Yosh avloddan kimki bu asarni o‘qisa, o‘zi uchun misli ko‘rilmagan haqiqatlarni kashf etadi. So‘zni qis-qa qilib, asardagi bir necha nuqtaga to‘xtalmoqchiman. Qolgani yosh ijodkor do‘stlarimning o‘z aql-zakovatiga havola.

1. Asarda «Payg‘ambarlikni da‘vo qilgan shaxslar va ularga aldanib qolgan ummatlar» degan bob bor. Beruniy bob sarlavhasida mazkur da‘vogar shaxslar sha’niga «La’natullohi ‘alayhim» – «Ularga Allohning la’nati bo‘lsin» degan so‘zni ilova qilgan. Bu bobda Maz-dak, Zardusht, Muqanna kabi shaxslar qalamga olinib, ularning payg‘ambarlikni, hatto ba’zilari xudolikni da’-vo qilgan shaxslar ekani isbot etilgan.

2. Ona har qanday davr va sharoitda ham odamzod uchun eng sharaflı, eng mukarram, eng mo‘tabar, mehri-bon zotdir. Inson farzandi va butun jon-u jonzot onadan dunyoga keladi. Ilmiy ta’rifga ko‘ra, inson bolasi otadan ajralsa, yetim hisoblanadi, hayvon bolasi esa onadan ayrilsa, yetim sanaladi. Inson farzandi onani aziz va mu-karram tutishi shartdir.

Jahon tarixida o‘tgan har bir payg‘ambar onaning mukarram zot ekanini ta’kidlab kelgan. Beruniy Zar-dushtga aslo tuhmat qilmaydi, ehtiyot va ilmiy bosiqlik

bilan Zardushtning jamiyatdan uzilib qolgan va yonida onasidan boshqa ayol zoti bo'lmagan kishiga o'z onasiga uylanishga ruxsat berganini bayon qiladi. Bu bilan uning aslo payg'ambar emasligini isbot qiladi.

3. Beruniy Zardusht keltirgan kitobning lug'ati, so'z tarkibini tadqiq etib, unda ko'pso'zlilik bor edi, deb tanqid qiladi. Bu bilan «Avesto»ning ilohiy kitob emasligini isbot etadi. Darhaqiqat, «Avesto» o'zbekchaga tarjima qilinib nashr etilganida ilohiy kitob sifatida emas, balki madaniy yodgorlik sifatida chop etilgan edi.

4. Oila sharafligi, muqaddas va muborak dargohdir. Uning muqaddasligi nikoh orqalidir. Lekin dunyo tarixida oilaning sharaflini oyoqosti qilgan, ayolning pok fitrati va haq-huquqini poymol etgan, barcha mol-mulk va xotinlar masalasida odamlarni bir-birovlariga sherik qilgan Muqanna, Mazdak kabi shaxslar o'tganini Abu Rayhon Beruniy kitobidan bilib olamiz. Beruniy ularni dalil-isbotlari ila qoralaydi va insoniylik sifatlaridan uzoq shaxslar ekanini fosh etadi.

5. Har bir insoning mol-mulki va joni – hayoti muqaddas islom dini muhofazasiga olingan qimmatli xazinadir. Beruniy insonlarning moli va joniga bepisand qaragan hamda ularni tahqir qilgan shaxslarni bashariy xislatlardan yiroq kimsalar sifatida tanqid ostiga oladi.

6. Ilohiy kitoblarni o'z qo'llari bilan o'zgartirgan ahli kitoblarning holatini dalil-isbotlari bilan fosh etadi. Chunonchi, Iyso alayhissalomni yoki Uzayr alayhissalomni Xudoning o'g'li deguvchilarni qattiq tanqid qiladi.

TARIXAN NOLOVIQ SHAXSLAR QAHRAMON BO‘LA OLMAYDI

Aziz va sevimli yosh do‘stlarim!

Ikkinchi jahon urushi yillarida yozuvchilardan insonlarni jasoratga undaydigan, ularda qahramonlik tuyg‘ularini uyg‘otadigan asarlar yozish talab etila boshlagan. Hatto milliy ozodlik harakatlari vakillarini ham qalamga olishga ruxsat berilgan. Bu ma‘rakadan Muqanna ham chetda qolgan emas.

Abu Rayhon Beruniy «Osor ul-boqiya» asarida aytishicha, «Muqanna – boshi va yuzi berkitilgan, demakdir. Alloma yozadi: «Undan (Bahofariddan) keyin Muqanna nomi bilan mashhur bo‘lgan Hoshim ibn Hakim Marvda – Kovakimardon nomli qishloqda yuzaga keldi. **U bir ko‘zli bo‘lganidan** yuziga ko‘k shoyidan niqob tutgan edi. Muqanna **o‘zini xudo deb da‘vo qildi** va jasadga kirganini, chunki jasadga kirmasdan oldin birov unga qaray olmaganini (aytdi). U Amudaryo orqali Kesh (Shahrisabz) va Nasaf (Qarshi) tomonlarga o‘tdi. Xoqonga xat yozib, undan yordam so‘radi, «oq kiyimlilar» va turklar uning atrofiga yig‘ildilar».

Muqannaning shaxsi, axloqi va tuzgan jamiyatining mafkurasiga doir ushbu ma‘lumot har kimni hayratlantirishi, ochig‘i, nafratlantirishi tabiiydir: «Muqanna ularga (boshqalarning) **mollari va xotinlarini halol qildi**, qarshilik ko‘rsatganlarni o‘ldirdi va (oldingi soxta payg‘ambar bo‘lmish) **Mazdakning barcha** (yo‘l-yo‘rig‘ini) **qonun qilib berdi**». Mazdak esa: «**Odam-**

lar barcha mol-mulk va xotinlar masalasida bir-birovlariga sheriklar», deya fosid tuzum tashkil etgan edi. (*Qarang: Beruniy, «Osor ul-boqiya», 243-bet.*)

Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far an-Narshaxiyning «Buxoro tarixi» kitobida esa Muqannaning «ko'zbo'ya-machilik, sehr va tilsim ilmlarini o'rgangan»ligi, «sehr ilmini yaxshi o'rganib olib, payg'ambarlikni da'vo qilgan»ligi, xudolikni ham da'vo qilganligi, «juda xunuk, boshi kal, bir ko'zi ko'r» ekanligi, haddan ortiq tubanlik va razolatlari bayon qilinadi.

Beruniy tadqiqalaridan chiqadigan xulosa shuki, tarixan buzuq va jirkanch shaxslar milliy qahramon bo'la olmaydi. Ularni milliy qahramon qilib vasf etishga hech bir ijodkorning haqqi yo'q. O'tgan mustamlaka zamonlarida siyosiy va mafkuraviy tazyiq bilan yozilgan ba'zi asarlar borki, bu kun ularning mualliflarini qoralayvermaylik, kengfe'l va kechirimli bo'laylik. Lekin o'sha shoir va yozuvchilarning yaqinlari ham tarixiy haqiqatlarni kengfe'llik bilan qabul qilmoqlari va ularning xatolarini yoqlab, xalq va ziyolilar orasida ularni badnom qilmasliklari kerak.

BOSQINCHILIKNI QO'LLAB-QUVVATLASH - INSONIYAT ERKIGA ZIDDIR

Aziz va sevimli yosh do'stlarim!

Adabiyot orqali bosqinchilikni yoqlash yoki qo'llab-quvvatlash insoniyatga qilingan buyuk xiyonat bo'lad. Yozuvchi bosqinchilikni, bir mamlakatni zulm bilan

bosib olib, bir xalqqa qarshi adolatsiz urishishni qahramonlik qilib ko‘rsatmasligi kerak. Bunday ish har qanday yozuvchi uchun ulug‘ jinoyat va cheksiz razolatdir.

SHOHGA NOXOLIS MASLAHAT BERGAN YOZUVCHI

Buyuk adib Shukur Xolmirzayev «Tanholik» degan benazir hikoyasida jahon adabiyotida mumtoz (klassik) deb tan olingan ayrim mashhur yozuvchilarni ulug‘ adib Lev Tolstoy «ichi buzuq, benomus, bosqinchi» deb tanqid qilganini ifoda etadi. Bu badiiy to‘qima emas. Muallif bu dalilni Tolstoyning yozishmalaridan olgan. Lev Tolstoy so‘zi orqali: «Yaxshilik bilan yomonlikning o‘rtasida, bularning farqiga bormay o‘lib ketgan» Dostoyevskiyni, Aleksandr I ga bergan maslahati uyat, nomussizlik bo‘lgan, «Nima qilib bo‘lsa ham, O‘rta Osiyo bilan Turkiyani bosib olmoq kerak», deb yozgan Dostoyevskiyni fosh etadi, «Turklar bilan jang mahali o‘zini tutolmay otini yeldirib ketgan», «Yashasin Rus qiroli! Turklarning yana bir tepaligi bizniki bo‘ldi!» deb xitob qilgan Pushkinni eslaydi, «rus qo‘shinlarini mehr bilan tasvirlagan», «Kavkaz o‘zimizniki bo‘ladi», deb quvongan yosh Lermontovni tanqid qiladi, o‘shanda ham yovuzlik va bosqinchilikni asarining g‘oyasiga aylantirgan Gogolni bu jihatdan gapirmaydi. Dostoyevskiy haqida Tolstoy aytadi: «...U – O‘rta Osiyo bilan Turkiyani tezda bosib olishni shohga maslahat bergan bosqinchi, qon to‘kilishining tarafdoridir» («Tanholik»).

Tolstoy aytganidek: «...San'atning eng ulug' vazifasi esa – insonlarni birlashtirish, bir-biriga birodar qilishdan iborat».

Shukur Xolmirzayevdek san'atkor adib sho'ro mustamlakasi davrida bu hikoyani bejiz yozmaganini hamma tushunsa kerak.

NIKOH VA TALOQNING HAZILI HAM, CHINI HAM HAQIQATDIR

O'rta Osiyo xalqlarining ko'plab odat va axloqiy tamoyillari muqaddas islom dinidan manbalangan. Og'ir mustamlaka zamonlarida muayyan ilmning asli qolmagan bo'lsa-da, xalqimiz hayotida uning amaliyoti saqlanib qolgan. Odamlar hazillashib nikohlasa yoki hazillashib taloq qo'ysa, nikoh yoki taloq voqe bo'la-veradi. Nikoh va taloq masalalari o'ta nozik mavzu bo'lib, badiiy to'qima, mubolag'a, hazil, o'yin, sahna va masxarabozlik kabi narsalarni ko'tarmaydi. Sahnada erli ayol boshqa erga nikohlansa, erli ayolni nikohlagani uchun nikohlagan odam gunohkor bo'ladi. O'z jufti haloli bilan rol o'ynayotgan aktyor xotiniga taloq aytsa, taloq tushaveradi. Nikoh va taloqning hazili ham, chini ham haqiqatdir. Bas, ijodkor odam xalq hayotini bilishi va asarlarida, ayniqsa, sahna asarlarida o'z ehtiyotini qilishi zarur.

XALQ HAYOTINI BILMASLIK OQIBATI

Bir vaqt oynayi jahon orqali bir sahna asarini ko‘rgandim. Muallif va sahnalashtiruvchi kishilar xalq hayotini bilmaganlari uchun mudhish, fojiaiy xatolar-ga yo‘l qo‘yganlar.

Yosh kelin va kuyov hali chimildiq hayotini bosh-lamay turib, kuyov bir necha marta kelinga: «Otang-ning uyiga jo‘na!», «Bor, uyingga ket!», «Tuyog‘ingni shiqillat!» kabi so‘zlarni aytadi. Holbuki, bizning sharq xalqlarimizda, o‘zbek xalqida erning o‘z jufti haloliga bunday gaplarni gapirishi aslo mumkin emas. Fiqh ki-toblarimizda bunday kinoyaviy so‘zlar tufayli er-xotin o‘rtasiga taloq tushishi ta’kidlanadi. Agar bu so‘zlarni ko‘p bor aytsa, oxiri uch taloqqa yetish xavfi bor.

Shuning uchun xalqimizda ayoli: «Xo‘jayin, otam-nikiga boraman» yoki: «Onamnikiga borgim kelyapti» desa, eri: «Bor», demas ekan, balki «Borib kel», der ekan. «Bor!» degan so‘zning o‘zidan bir kinoyaviy taloq vujud-ga kelishidan qo‘rqib «kel» so‘zini qo‘shib qo‘yar ekan. «Kel» so‘zini qo‘shish bilan o‘zlarini, oilalarini ma’naviy falokatdan himoya qilar ekanlar. Qarang, xalqimizda qanday go‘zal, qanday yuksak odob namunalari bor!

Nodonlik va jaholatning haddi – chegarasi bo‘lishi kerak. Odamzod bu darajada nodon va johil bo‘lmasligi kerak. Ayniqsa, yozuvchi odam, ijodkor shaxs xalq ha-yotini, milliy odob-axloq asoslarini, xalqning ma’naviy-e’tiqodiy tamoyillarini o‘rganishi va bilishi shart.

Bunday sahna asarlari necha-nechalab oilalarni xo-navayron qiladi, necha yuzlab ilmsiz yoshlarning tiliga

nojoiz, noxush soʻzlarni joylaydi, hayotini buzadi, oqibatdan nikohi buzilgan holda, yaʼni nikohsiz holda tugʻilgan bolalar yaxshi axloq va odobdan mahrum boʻladi. Chunki hadisi sharifda: «Zinodan va hayzdan tugʻilgan bolalar yaxshi axloqdan mahrum boʻladi», deyilgan. Bu soʻzga aslo shubha yoʻq.

BIZ KIMLARNING AVLODIMIZ?

Biz – keyingi nasllar Imom Buxoriy, Abu Mansur al-Moturidiy, Imom at-Termiziy, Burhonuddin Margʻinoniy avlodlarimiz, deya maqtanishni bilamiz! Lekin ularning asarlaridagi axloqiy-aqidaviy biror-bir hukmdan xabarimiz bormi? Hazrati Burhonuddin Margʻinoniyning jahonga mashhur «Hidoya» kitobida nikoh va taloqning hukmlari mufassal bayon qilingan.

Har bir ijodkor oʻz millatining maʼnaviy manbalarini oʻrganishi, asar yozganda oʻsha maʼnaviy hukmlar doirasida amal qilishi zarur. Abdulla Qodiriy diniy hukmlarda xatoga yoʻl qoʻymasligi uchun necha-nechalab din arboblari bilan suhbatlar qilgani adib haqidagi xotiralar va uning romanlaridan maʼlum. Mustamlaka davrida oʻtgan bir avlod vakillari diniy-maʼnaviy ilmlarni oʻrganishdan mahrum edilar. Istiqlol davri qalamkashlari uchun esa hech qanday uzr yoʻq. Qurʼoni Karim, hadisi sharif, eʼtiqod va odob ilmlarini oʻrganish uchun hozir hamma sharoitlar mavjud.

Kitobxon degani siz bilan biz bilgan oʻquvchilardan iborat emas. Yurtimizda, chet ellarda ilm-u maʼrifatdan,

e’tiqod ilmidan xabardor ming-minglab bilimli o‘zbek kitobxonlari bor. Qalam ahli o‘z asari bilan kitobxon oldida o‘zini xijolatga qo‘ymasligi kerak.

DUNYONING JANNATI QAYERDA?

Kamina o‘zim uchun g‘oyat sevimli, aziz va va qadrli bo‘lgan, hayot yo‘limda ustoz maqomida turgan bir adibning ba’zi sarlavhalari haqida xolis fikrlar bildirmoqchiman. Bu adib – xalqimizning atoqli yozuvchisi, hayot muassifi, shubhasiz, har bir asarini san’atkorona yozadi. U kishi jo’shqin qissalaridan biriga: «Jannat o‘zi qaydadir?» deb sarlavha qo‘ygan. Kitobda olamshumul ma’naviy-axloqiy muammolar qalamga olinadi. Lekin asar nomiga ilk bor ko‘zi tushgan iymonli kishi, hali ichini o‘qimay turib, seskanib ketishi mumkin: «Yozuvchi jannatning haq ekaniga shubha qilyaptimi yoki oxiratni inkor qilmoqchimi?» – deyishi turgan gap. Kamina diniy-e’tiqodiy ilmlar ancha rivojlangan yangi, mustaqil O‘zbekiston manfaati nuqtayi nazaridan gapiryapman. Chunki jannat haqiqati barcha Ilohiy dinlarning tamal haqiqatlaridandir. Shuning uchun o‘quvchini tor fikrlik, mutaassiblik yoki jaholatda ayblashga haqqimiz yo‘q. Vijdon erkinligiga, iymon-e’tiqodga daxl qiluvchi so‘zlar ehtirosni qo‘zg‘ovchi, ixtiloflarni chiqaruvchi, ahillikka putur yetkazuvchi bo‘ladi.

O‘quvchi kitobni o‘qib, to gap boshqa yoqda ekanini anglagunicha ancha vaqt o‘tib ketadi.

Adib buning o'rniga: «Dunyoning jannati qaydadir?» deb sarlavha qo'ysa edi, ham e'tiqodga xilof ifodadan, ham malomatdan qutulgan bo'lar edi, ham benazir sarlavhaga ham ega bo'lar edi. Chunki qissada oxiratdagi asl jannat haqida emas, balki bu dunyoning jannati hisoblangan jannatsifat manzilni izlash haqida gap boradi.

«BU QIRLAR – DUNYONING JANNATI»

Haq taolo men faqir-u haqirga ancha yil naqshbandiya tariqatining ulug' shayxi, benazir alloma Ahmadjon Maxdum Hanafiy-Naqshbandiy hazratlarining suhbat va xizmatlarida bo'lish saodatini nasib etdi. U kishining Hoji Iqroruddin Bobo degan do'stlari bo'lar edi. To'polondaryoning yoqasida so'lim bog'i bo'lib, biz bir gal o'sha bog'da suhbat qurganmiz.

Suhbatda e'tiborli o'quv dargohining rahbari Mavlon Rahmonov degan do'stimiz ham ishtirok etdi. Ayni bahor mavsumi, ko'klamning gurkirab yashnagan mahalli. Do'stimiz sohildagi go'zal manzaralar, daryoning u betidagi ko'm-ko'k qirlarni ko'rib: «Oh, jannat, jannat!» – deb yubordi. Kamina e'tiqod tamoyillaridan xabardor bo'lganim uchun bu gapdan cho'chib: «Hazratdan so'raylik-chi, bu gap durustmikan?» – dedim. So'ng: «Hazrat, bu manzaralarni jannat deyish mumkinmi?» – dedim. Shayx hazratlari tabassum qilib: «Ha, bular – dunyoning jannati-da!» – dedilar. Demak, dunyoning go'zal manzillarini «Dunyoning jannati» deyish mumkin ekan.

Bas, mazkur asarda osoyish va oroyish istaganlar – dunyoning jannatini izlagan kishilardir. Bu gaplarni adibning o'ziga aytib qo'yishim ham mumkin va oson edi. Lekin bu so'zlarda hozirgi yoshlar va kelajak avlod uchun ulkan ibratlar borligini o'ylab, oshkor yozishni maqbul sanadim.

OSHIQLIK BO'Y-BAST TANLAMAYDI

Sharq olamining ma'naviy hayotida birovning bo'y-bastidan kulish, uni kamsitish yoki tahqirlash qabilida gapirish joiz hisoblanmaydi. Ulug'larimiz: «Yaratganning imoratiga istehzo qilmang!» deyishar edi. Masalan, «Novcha», «Uzun», «Pakana», «Pakar» kabi sifatlarini qo'llashdan saqlangan yaxshi ekanini uqtirishardi.

Sevimli adibimiz bir asariga «Pakananing oshiq ko'ngli» deb nom qo'ygan. Undan ko'ra «Oshiq ko'ngil» deb nomlansa, bag'oyat ajoyib bo'lar edi. O'quvchi kitobni o'qigach, gap pakananing sevgisi haqida borayotganini bilib olaveradi.

Yozuvchi: «Muhabbat bo'y-bast tanlamaydi» demoqchi. Bu ayni haqiqat! Shunday ekan, sarlavhada oshiqning bo'yiga urg'u berish shart emas edi. Bas, qissaning haqiqiy nomi – «Oshiq ko'ngil».

«Otoiyning tug'ilgan yili» qissasi haqida qirq yil avval (1978 yoki 1979-yil) yurakdan samimiy taqriz yozganman. Taqriz «She'riyat va ruhiyat» kitobimga kiritilgan. Lekin bu qissa nomining ham ulug' shoir, aziz zot Shayxzoda Atoiy sha'niga mos kelmaydigan nozik taraflari bor.

ICHKILIK BALOSINING ADABIYOTGA YETKAZGAN TALOFATLARI

Aziz va sevimli yosh do'stlarim! O'g'illarim, qizlarim!

Mast qiluvchi ichimliklar barcha nopokliklarning onasidir. Ichkilikdan ko'plab nopokliklar tug'iladi. Ba'zi shoir va yozuvchilarning ichkilikka berilishi adabiyotga ulkan talofatlar yetkazdi.

Bu shunday o'ng'aysiz mavzuki, xalqning peshqadam vakillari bo'lgan qalam ahli, ziyoliman degan shaxslar, millatning ma'naviy rahnamolari va muallimlari hisoblangan shoir-yozuvchilar haqidagi «ichar ekan», «ichkilikka berilgan ekan», «mast-u rasvo yurar ekan» degan gaplar naqadar tuban tavsiflardir. Ichkilikka berilish vijdonni yo'qotish, or-nomusdan, ongli faoliyatdan judo bo'lish, shu bilan birga, ijod barokotidan mahrum bo'lishdir.

Men bilgan ba'zi ulug' iste'dod sohiblari ichkilik tufayli bezzat va behurmat bo'ldilar, yillar bo'yi ongli va nurli faoliyatdan mahrum yashadilar.

YAXSHIDIR ACHCHIQ HAQIQAT...

Ustoz Erkin Vohid yozganlaridek:

*Yaxshidir achchiq haqiqat,
lek shirin yolg'on yomon,
Shu shirin yolg'onga lekin
aldanib qolg'on yomon.*

Ma'lumki, mast qiluvchi ichkilikka berilish odati O'zbekistonga va boshqa mustamlaka mamlakatlariga bosqinchi xalqlar orqali kirib keldi. Bu musibatni endi Rossiyaning o'zi ham o'z xalqining boshidan daf' etolmay sarson. Tamoman taqiqlab qo'yay desa, xususiy musallaschilar ko'payib, baddar zararliroq ichkiliklar ishlab chiqariladi; o'z holiga qo'yay desa, xalq sog'lom va ongli faoliyatdan, insoniy xislatlardan tobora mahrum bo'lib boradi. Ichkilik tufayli erkak erkakligidan, ayol ayol-ligidan mahrum bo'lyapti. Mustaqillik bo'lganiga necha yillar to'lsa-da, lekin ichkilik razolati o'zbek va boshqa qo'shni xalqlar shoir-yozuvchilarini hamon tark etgani yo'q. To'g'ri, aqlini yuritgan, tafakkur qilish layoqatiga ega bo'lgan adiblarning bir qanchasi o'zini o'nglab oldi, hayotini bu falokatdan qutqardi, lekin hali anchagina insonlar hayotida bu razolat davom etmoqda.

Ichkilikning ijodkorlar hayoti va faoliyati uchun qanday zararli jihatlari bor? Qalamkashning shaxsiy va oilaviy hayotiga, sog'lom ongli mehnatiga ichkilikning qanday ta'siri bor? Agar men bunga sharh va dalilni muqaddas islom dini manbalaridan keltirsam, ba'zi do'stlarimizga malol bo'lib, bu biryoqlama ish bo'lib

tuyulishi mumkin. Agar sharh va dalilni faqat dunyoviy jihatlardan keltirsam, aqliy mantiqim tan olinmasligi mumkin. Shuning uchun kamina kengfe'llik bilan bu masalaning sharhini dunyo tarixidagi barcha ilohiy dinlarning mohiyatidan keltirmoqchiman. Shunda har bir yosh do'stim insof tarozusini ishga solib, o'zi odilona xulosa chiqarishi mumkin.

Kamina «Islom va oila» degan bir kitobda barcha haqqoniy ilohiy dinlarda mushtarak bo'lgan asoslar haqida, beshta narsani muhofaza qilish uchun beshta taqiq qo'yilgani haqida ajoyib ma'lumotni o'qigan edim. Ular quyidagilardir:

1. Barcha ilohiy dinlarda diyonat – iymon muhofaza qilingan. Buning uchun botil e'tiqodlar, shaxsga va boshqa mavjudot-u maxluqotga sig'inishlar, butpara-stlik va tog'utpara-stliklar taqiqlangan. Buni bildirish uchun payg'ambarlar yuborilgan.

2. Barcha ilohiy dinlarda aql muhofaza qilingan. Buning uchun aqlni buzuvchi va ketkazuvchi ichkilik, chekkilik, giyohvandlik kabi nopok narsalar taqiqlangan.

3. Barcha ilohiy dinlarda insonning joni muhofazaga olingan. Buning uchun insonning joniga xavf soladigan ishlar: nohaq odam o'ldirish, urish, ozor va aziyat yetkazish taqiqlangan.

4. Barcha ilohiy dinlarda insonning mol-mulki muhofaza qilingan. Buning uchun o'g'rilik, qaroqchilik, sudxo'rlik, poraxo'rlik kabi noto'g'ri ishlar taqiqlangan.

5. Barcha ilohiy dinlarda inson nasli muhofaza qilingan. Buning uchun noqonuniy muomalalar: zino – nikohsiz jinsiy aloqalar, bekordan bekorga oilalarni buzishlar taqiqlangan. Toki insonning nasli pok, toza va sog'lom saqlansin, tayinli ota va onadan barkamol av-

lodlar dunyoga kelsin, hayvonlarga o‘xshab ota-onasi notayin bo‘lib qolmasin.

Insof bilan aytganda, hozirgi zamon qonunlarida ham bu muhofaza va taqiqlarning ba‘zilari o‘z aksini topgan.

Demak, ba‘zan hayotda bir narsaning muhofazasi uchun bir taqiq zarur bo‘lar ekan. Albatta, avvalda ilohiy bo‘lgan ba‘zi dinlar yillar va asrlar osha o‘z ilohiy mohiyatini yo‘qotganligini, shu boisdan bu tamoyillar muqaddas islom dinida kuchliroq saqlanganini kitobxon yaxshi tushunadi. Bu e’tirof insof doirasidagi gapdir. Zero, islomdan oldingi ba‘zi dinlarning muqaddas kitoblari qo‘l bilan o‘zgartirilib, buzilgani, hukmi mansux bo‘lgani, ilohiy mohiyatini yo‘qotgani uchun bu hukmlar muqaddas islom dinida saqlanib qolgan.

Bas, shunday bo‘lgandan keyin, har bir ijodkor xayoliga kelgan mavzu bilan qog‘oz qoralayvermasdan, aql, insof, vijdon andozasi bilan qalam yuritishi kerak. Yo‘qsa, o‘zi bilmagan holda buzuqlikni, fahshni, behayolikni ziynatli ko‘rsatib, bu targ‘iboti bilan so‘z san’atining maqsad va mohiyatiga xiyonat qilib qo‘yishi mumkin.

Afsus, bir qancha adiblarni ichkilik xarob qildi, avval aytilganidek, ular sog‘lom ongli faoliyatdan o‘zlarini mahrum qildilar. Ular o‘z ixtiyori bilan o‘zlarini ma‘nan o‘ldirdilar. Xullas, ijodkor so‘z san’atining kuchini noloqiy narsaga sarflab, o‘zini beizzat qilmasligi kerak.

«TURKISTON VILOYATINING GAZETI»

Sobiq mustamlakachilarning eng katta fitnasi ichkilikni targʻib qilish edi. XX asrning oʻninchi yillarida Toshkent koʻchalarida ilk pivoxonalar paydo boʻla boshlaganda oʻzbek millatining yetuk ziyolilari bosqinchilarning shum niyatini – siyosat nazari Turkiston xalqlarining iymon-eʼtiqodini buzishga, halollikdan ayirishga qaratilganini payqadilar va gazetalarga norozilik maqolalarini yozdilar. Nafs dunyo rohatiga oʻcha boʻlar ekan. 1950-yillarga kelib, shaharlarning koʻchalarida pivoxonalar paydo boʻldi... Keyingi yillarni esa gapirishga hojat yoʻq.

MOTAMDAGI QUVNOQ ASHULA

Oʻtgan XX asrning 70-yillarida «поминка» degan narsa, yaʼni azador xonadonda ichkilik ichilishi bizning xalqimiz hayotiga ham kirib kela boshlagan. Abdulla Qahhor «Mushtum» jurnalida tanqidiy maqola chop ettirib, bu razolatni qattiq qoralagan. Muallif bir kishining motamda mast boʻlib qolib, baralla quvnoq ashula aytib yuborganini kulgili lavhada bayon qilgan edi.

Bir ulugʻ shoirning aytishicha, Oʻzbekistonning oʻsha paytdagi rahbari Sharof Rashidov bu manfur odatni olti oylar ichida yoʻqotishga erishgan.

«BU – MILLATNI O‘LDIRISH-KU!..»

Oshkoralik davri va O‘zbekiston istiqlolining ilk yillarida qadimiy do‘stlik eshiklari ochilib, jahon shoir-yozuvchilari yurtimizga kela boshladilar. Bir gal Turkiyadan ulkan bir adiblar jamoasi tashrif buyurib, yurtimizni kezdi, ziyoratlarga bordi. U vaqtda bizning adabiy muhitda dasturxonni ichkiliksiz tasavvur qilish mumkin emas edi. Har joyda harom ichkilik qo‘yilayotganini ko‘rib, turk qalamkashlari hayron bo‘lishgan, lekin biror joyda birortasi bir qultum ichmagan. O‘shanda shoir To‘ra Mirzo hayratlanib: «Mirzo, turk yozuvchilari umuman ichkilik ichmas ekan! «Ichkilikka berilish bu – millatni o‘ldirish-ku!» – der ekan», – degan edi.

«NISHONGA URISH EMAS, NISHONGA URMASLIK MAHORATDIR...»

Ulug‘ ustoz Erkin Vohidovning «Dil tubiga cho‘kkan lahzalar» kitobida «Merganlik maktabi» degan hikoya bor. Unda bayon qilinishicha, 1963-yil Xorazm uchun omadli keladi, paxta rejasini do‘ndirib bajarib, «Mash‘al Xorazm» nomini oladi. Dekabrning qorli, ayozli kunlarida viloyatning hosil bayramida qatnashish uchun Yozuvchilar uyushmasi topshirig‘iga ko‘ra, shoir Shuhrat, unga hamroh va yordamchi bo‘lib yosh Erkin Vohidov Urganch shahriga boradilar.

Tantanalar o'tgandan keyin ham muxlislar Shuhrat akani Toshkentga yuborishmaydi. Har kuni ziyofat, she'rxonlik, tongotar shirin suhbatlar...

Viloyat yozuvchilar uyushmasi rahbari, qirq yillik ovchi, shikor mavzusida ko'p hikoyalar yozgan Rahim Bekniyoz bir kun ertalab Shuhrat akaga qo'shog'iz miltiq olib keladi va ovga chiqishadi. Ov baroridan kelmaydi. So'ng mezbonlar ajabtovur merganlik musobaqasini o'ylab topadilar. Ovdan tejalgan o'qlar bilan ichkilikdan bo'shagan shishalarni otadigan bo'lishadi. O'yin sharti shuki, kim o'n qadamdan shishani ursa, to'la bir qadah mukofot oladi.

Birinchi bo'lib merganlik mahoratini Rahim Bekniyoz ko'rsatadigan bo'ladi. Uzoq vaqt mo'ljalga olib, go'yo nishonga tekkiza olmaydi... «Shinelli yillar» romanining muallifi bo'lgan jangchi Shuhrat aka esa, sovuqni aybdor qilib, qo'l siltab uyga kirib ketadi. Navbat Erkin Vohidovga kelganida umrida miltiq tutmagan yosh shoir bir necha marta nishonga urib, shishani chilparchin qiladi. Mezbonlarning «Ura!» sadolari va olqishlari ostida bir necha qadahni bo'shatadi.

Ertalab boshda og'riq, lekin ko'ngilda «g'oliblik» quvonchi bilan uyg'ongan shoirga ustoz Shuhrat aka bunday deydi:

– Sodda bo'lmay qol. O'n qadamdan sochma o'q bilan shishani urish emas, urmaslik uchun hunar kerak. Omad keldi, deb yiqilguncha ichasanmi?

Mulzam bo'lgan yosh shoirga ustoz Shuhrat aka yana tanbeh berishda davom etadi:

– Bular-ku, o'z do'stlarimiz. Hali seni maqtaydigan, «yuzta-yuzta» quyib beradigan, do'st bo'lib dushman-

ning ishini qiladigan oshnalaring ko‘payadi. O‘shanda hushyor bo‘l. Shuni bilib qo‘yki, shoirni adoyi tamom qiladigan narsa ichkilik, «balli-balli» bilan qarsak bo‘ladi.

Ustoz hikoya so‘ngida **«Bu achchiq saboq umrim yo‘llarida menga asqatdi»**, deb minnatdorlik va shukronasini bayon etgan.

Ustoz Erkin Vohidov yosh vaqtlaridan boshlab ichkilik balosidan o‘zini tiygani, shuning natijasida g‘oyat go‘zal, sermahsul va sermazmun ijod qilgani butun xalqimizga ma‘lum.

AQLNI VA NASLNI BUZADIGAN ILLAT

Aytilgan so‘zlardan chiqadigan xulosa shuki, ichkilik aqlni, naslni va millat tafakkurini buzadigan xatarli zahardir. Har bir qalam sohibi bu manfur illatning bizning hayotimizga xalqimiz, din-u diyonatimiz, bugunimiz va kelajagimizga dushman bo‘lgan bosqinchi toifalar tomonidan kirib kelganini eslash va yodda tutishi kifoyadir. Xususan, millatning peshqadam vakillari, ma‘naviy rahnamolari hisoblangan ziyolilar, ijod va san‘at ahllari bundan hazar qilmog‘i zarurdir.

XOTIRA YOZISH ODOBI

Aziz va sevimli yosh do'stlarim! O'ta muhim mavzu-da – o'tganlarni eslab xotira yozish odobi xususida siz-lar bilan dildan suhbatlashmoqchiman.

Sharq adabiyotida xotira yozish odobi qadimiy ildiz-larga ega. Sahobalar (roziyallohu anhum) haqidagi jild-jild kitoblar xotira va tazkira janrining oliy namu-nalaridir. Abdurahmon Sulamiyning «Tabaqot us-su-fiya» («Tasavvuf tabaqalari»), Fariduddin Attorning «Tazkirat ul-avliyo» («Valiylar yodnomasi»), Mavlono Jomiyning «Nafahot ul-uns» («Chin do'stlik islari»), haz-rat Navoiyning «Nasoyim ul-muhabbat» («Muhabbat shabodalari»), «Holoti Pahlavon Muhammad», «Holoti Sayyid Hasan Ardasher» kabi asarlari xotira va tazkira janrining eng go'zal nusxalaridir.

Hazrat Imom Buxoriy, hazrati Imom Muslim, hazrati Imom Termiziy, hazrati Imom Abu Dovud, hazrati Imom Nasoiy, hazrat Imom Ibn Moja (rahmatullohi alayhim ajma'iyin) kabi eng ulug' muhaddislarning sahih va su-nan kitoblarida kelgan «Payg'ambarlarning xislatlari», «Sahobalarning fazilatlarini» kabi boblar butun olam ahli uchun o'rnak bo'ladigan eng yuksak adabiyot namu-nalaridir. Mazkur asarlarda insoniyat odobi, xislati, fazi-latining kamoli bo'lgan vasflar bayon etilgan.

G'arb va Yevropa yozuvchilari xotira yozganda es-lanuvchining hamma qilmishlarini yozaverishadi. Ha-romxo'rliqi, aroqxo'rliqi, zinokorliqi, fohishabozligi, qal-loblik va tovlamachilik kabi manfur sifat-lari ham chetda qolmaydi.

Bizning Sharq adabiyotidagi xotirnavislik esa jirkanch mavzularni ko‘tarmaydi. Insonga yomonlikni eslatadigan, nopok ishlardan or qilmaslikni o‘rgatadigan, benomuslikni targ‘ib qiladigan, fahsh va buzuvchilikka undaydigan xotiralar bizning adabiyotimizga xos emas.

O‘zbek, tojik, qozoq, turkman, qirg‘iz, qoraqalpoq – islom ma‘rifatidan bahra topgan barcha xalqlar adabiyotining umumiy xislati – insonlarga ezgulik, poklik, yaxshilikni o‘rnak qilib ko‘rsatmoq, yuksak bashariy vasflardan ta‘lim bermoqdir.

NOLOYIQ ISHLARGA HURRIYAT YO‘Q

Aziz va sevimli yosh do‘stlarim! Xotira yozish odobi haqidagi suhbatimizni davom ettiramiz.

Hayot va adabiyotdagi hurriyat mezonini jamiyat hayotiga oid hurriyat o‘lchovlariga tayanadi.

Butun dunyoda erkinlik, hurriyat, demokratiya degan muammo bor. **Hurriyat degani insonga xohlagan ishini qilish, xohlagan hunarini ko‘rsatish yoki xohlagan so‘zini so‘zlash imkoni degani emas.** Bizning sharq madaniyatimizda, milliy udumimizda halollikka, poklikka, to‘g‘rilikka, hayotbaxsh va manfaatli narsalarga hurriyat bor. Nopoklikka, harom narsalarga, botil so‘z, befoyda amallarga aslo hurriyat yo‘q.

Ba‘zi xorijiy mamlakatlardagi ayrim «demokratiya» ko‘rinishlarida insonlik sharafiga zid, iymon, diyonat, vijdon tamoyillarini tahqirlovchi noto‘g‘ri ishlar

uchraydi. Bu aslo hurriyat emas, aksincha, asl hurriyatni oyoqosti qilishdir. Shuning uchun ba'zi g'arb va ovrupe o'lkalaridagi hurriyat tushunchalari bizning milliy odob-axloqimiz, vijdoniy tushunchalarimizga to'g'ri kelmaydi, deyilsa, bu so'zdan aslo ajablanmaslik va ranjimaslik kerak. Chunki ma'naviy o'lim va halokatga, avlod va naslni barbod etishga olib boradigan narsalar mohiyat e'tibori bilan aslo hurriyat sanalmaydi, balki hurriyat va inson huquqlariga zid harakatlar sanaladi.

Bu so'zlar xotira yozish odobiga ham tegishlidir.

XOTIRA YOZISH QALAMKASHNI TAHQIRLASH BO'LMASIN

2010-yilda «Shukur Xolmirzayev zamondoshlari xotirasida» degan kitob nashr etildi. Kitobda buyuk adibning shaxsi va ijodini ochiqqlagan xotira-maqolalar ko'p. Lekin unda yozuvchi shaxsini pastga uradigan, sha'niga dog' bo'ladigan esdaliklar ham anchagina. Bular ichkilik bilan bog'liq noxush xotiralardir.

Xotiranaivislardan biri Moskvadan bir noshir-yozuvchi kelgani, uni mehmon qilishib, Toshkentda bir kun, Farg'onaga ketishda – yo'lda bir kun, Vodiya bir yoki ikki kun, qaytishda – yo'lda yana bir kun, qaytgach, Toshkentda yana bir kun tinimsiz aroq ichganlari, mas-tu bexud bo'lganlarini «vasf etgan». Buni o'qigan kishi adibning hayoti aroqqa bo'kishdan iborat ekan-da, deb o'ylashi turgan gap.

Yana bir muallif viloyatda, dasht-u dalada ichkilik-bozlik qilishgani, shaharga qaytishda Davlat avtomobil

nazorati xizmatchilarini aldab, nayrang bilan tekshiruv nuqtasidan o‘tib olganlari va boshqa sharmandali hollarini zavq-shavq bilan bayon qiladi.

Yana bir xotirachi Boysunda – adib tug‘ilgan xonadondagi «oq choy, ko‘k choylar»ni ta’riflaydi. Tag’in birovi yozuvchiga taxlam-taxlam chekkiliklar (sigaretlar) keltirib berishganini eslaydi. Xullas, kitobdan bashar zoti uchun hech bir foydasi va o‘rnagi bo‘lmagan behuda so‘zlar ham o‘rin olgan.

Bu kitobni o‘zim o‘qigan maktab kutubxonasiga hadya qilishga niyatlangan edim. Sababi, Shukur Xolmirzayev Surxon vohasidan yetishib chiqqan buyuk adib, albatta, har bir qavm o‘zidan chiqqan ulug‘ zotlarga e’timod va hurmat ko‘rsatadi, yoshlar undan o‘rnak olib, ulug‘ shaxs bo‘lishga harakat qiladi, deb o‘ylaganman. Lekin yuqoridagi noxush xotiralar meni niyatimdan qaytardi. Axir, yoshlar, maktab o‘quvchilari, turli o‘quv yurtlarining talabalari bu sharmandali ifodalardan nima ibrat oladi?

O’sha yili Yozuvchilar uyushmasining Xalqlar do‘stligi saroyi yaqinidagi binosida kitob taqdimoti bo‘ldi. Shukur akaning oila ahli meni ham yig‘inga taklif etishgan, menga so‘z berilishi ma’lum qilingan edi. Chunki kitobga kaminaning ham kattagina xotira-maqolam kiritilgan.

So‘z navbati menga kelganda Yozuvchilar uyushmasi raisi ustoz Abdulla Oripov «bir ish bilan» tashqariga chiqdi. Shunda yig‘inni boshqarish va so‘z berish raisning birinchi o‘rinbosari Sirojiddin Sayyid zimmasiga tushdi. Kamina tanqidiy ruhdagi mazkur gaplarni dalillar asosida gapirdim.

Sirojiddin Sayyid esa jasorat bilan: «Bu gaplar ibrat jihatidan to'g'ri. Ibrat jihatidan maqbul» deb ta'kidlar edi.

O'sha mahalda yana qaysidir gazetada bir muallifning rahmatli Muhammad Yusuf haqidagi xotirasi chop etildi. U qachon sho'irni yo'qlab viloyatdan kelsa, uni ichib mast-sarxush bo'lib turgan holatda uchratganini, hech qachon to'g'ri va mo'tadil gaplashish nasib bo'lmaganini o'kinch bilan yozgan edi.

Tasodifni ko'ringki, ko'p o'tmay, davlat rahbarlari tomonidan xotira yozishga e'tibor qaratish zarurligi, har xil narsalarni yozmaslik, xususan, ichib, bijg'ib yurganlar haqidagi xotiralarni matbuotda chop etmaslik tavsiya etildi.

Sevimli yosh do'stlarim!

Darhaqiqat, Shukur Xolmirzayev hayoti ayrim mahdud, noxush holatlar ichida o'tdi, buni yashira olmaymiz. Lekin u, shubhasiz, buyuk adib edi. O'zbek adabiyotida uning naziri, tengi yo'q. Hikoyachilik bobida u jahon adabiyotining eng yuksak o'lchovlariga muvofiq o'lmas asarlar yozdi. Ichsa-da, cheksa-da, har qanday holatda uning o'zgarmas ijodiy intizomi bor edi. Uning butun hush-u xayoli, maqsadi, faoliyati, kechalari, kunduzlari faqat va faqat ijodga qaratilgan edi. Men bunday beomon mehnat qiladigan yozuvchini kam ko'rganman. Shukur Xolmirzayev, xalqiga bo'lgan shafqati tufayli, o'z-o'ziga shafqati bo'lmagan o'ta zahmatkash yozuvchi edi. Uning dardi – xalq dardi, g'oyasi – vatan ozodligi, istagi – millat buyukligi, kasbi – adabiyot uchun o'z jonini qurbon qilish, quvonchi – niyatidagi asarni

tugallash, boshpanasi – torgina, pastgina, g‘aribona kulbasi, yemagi – topgan nasibasi, faqirlarning eng faqiri yeydigan oddiy taomlar. Eng muhimi, uning ulug‘ g‘oya va maqsadlarida soxtakorlik yo‘q edi. Ana shunday zahmat-zaqqum ichida millati uchun o‘zini fido qilib o‘tgan buyuk adibni past gaplar bilan eslashga mening qalbim rozi bo‘lmaydi!

Xotira yozganda uning buyukligini ko‘rsatish, o‘rnak bo‘lgulik fazilatlarini topish, temir intizomini tan olish, g‘aribona hayotidagi ulug‘liklarini eslash – xotirana vis do‘stlarning vijdonida bo‘lishi lozim. Agar bularni topolmasa, xotira yozmay qo‘ya qolsin.

Vatanni sevishni, millat uchun fido bo‘lishni har kim Shukur Xolmirzayevdan o‘rgansin!

Shu o‘rinda fidoyi olim va junalist Olimjon Toshboevning Shukur Xolmirzayev haqida o‘xshashi yo‘q badiiy-hujjatli asar yozganini mamnuniyat bilan eslamoqchiman. Bu asar fidoyilikning ham, xotirana vislik va haqiqatgo‘ylikning ham eng yaxshi namunasi dir. Har kim asl millat farzandi bo‘lsa, asl millat farzandini tani shi kerak!

HAYOT HANGOMADAN IBORAT EMAS

Ustoz Abdulla Oripov hayot mahalida «Do'rmon hangomalari» kitobida naql qilingan ichkilik bilan bog'liq hodisalardan qattiq ranjigan va g'azablangan edi. Demak, o'ziga ham begona bo'lmagan bir fe'lni zotan o'zi yoqtirmas edi. Tasavvur qilingki, hayot mahalida shunchalik ranjigan bo'lsa, vafotidan keyin yomon eslamalardan ruhi qanchalik bezovta va noshod bo'ladi.

Ustozning bashariy qabildagi holatlaridan ko'z yuma olmaymiz. Ba'zi do'stlarimiz u kishining ko'p yillar yuqori mavqeda turib, o'z xalqi uchun ko'ngildagidek xizmat qila olmaganini goh o'kinch, goh malomat bilan gapiradilar. Vatan va millat u kishidan ko'p ulug' faoliyatlar kutgan bo'lishi tabiiy holdir. Tushunishga urinamiz, bu qoralash emas, bu – armon, bu – o'kinch...

Lekin vafotidan keyin shoirning ikkinchi – abadiy hayoti boshlandi. Endi hamma gaplarni yig'ishtirib qo'yib, uning asl hayotiga asl ijodi orqali baho berish vaqti keldi.

Abdulla Oripov o'zbek she'riyatida chin ma'noda inqilob yasagan shoirdir. U o'z inqilobiy she'riyati bilan faqat o'ziga avloddosh qalamkashlarni emas, balki o'zidan oldingi dovrug'i butun yurti tutgan katta avlod vakillarini ham haqqoniyat ruhida she'rlar yozishga unday olgan shaxsdir. Abdulla Oripov rostgo'y she'riyati bilan Abdulla Qahhordek talabi qattiq adibni rost gaplarni oshkor aytishga undagan shoirdir! Abdulla Oripov o'zidan keyingi qalam ahliga haqiqat yo'lini belgilab bergan zotdir. Abdulla Oripov o'zbek hayotiga o'z gul-

duraklari, o‘z chaqmoq va hayotbaxsh yomg‘irlari bilan kirib kelgan yangi bir bahordir!

*Yana bahor keldi. Yana olamda
Ajib bir go‘zallik, ajib bir bayot.
Men seni qutlayman shu ulug‘ damda,
Ulug‘ yelkadoshim, muzaffar hayot!*

UMRNING AVVALIDAN KO‘RA OXIRI MUHIMDIR

Inson hayotining avvali ham, oxiri ham muhim. Lekin imon ne‘mati jihatidan umrning avvalidan ko‘ra oxiri muhimdir. «Ilohiy komediya» tarjimasi haqida gapirdik. Aytish lozimki, «Komediya» tarjimasi Abdulla Oripovning ruhiy kengliklari cheklanishiga sabab bo‘ldi. «Komediya» mavzularining qaltisligi ham shoir hayotiga manfiy ta‘sir qilmay qolmaydi.

Ustoz o‘z suhbatlarida mamlakat rahbari Sharof Rashidov huzurida Gyotening «Faust» asari tarjimasi-ga Erkin Vohidov talabgor bo‘lgani va bu ish unga nasib etgani, «Ilohiy komediya» esa uning chekiga tushganini o‘kinch bilan eslar edi. Bu so‘zimdagi hech mubolag‘a va to‘qima yo‘q. O‘sha suhbatlarga men bilan birga boshqa olim va shoir do‘stlarimiz ham guvohdir.

Ustoz «Komediya» tarjimasi natijasida «Jannatga yo‘l» dramatik dostonini yozganini qayd etgan. Lekin bu ikki asar o‘rtasida yer bilan osmoncha farq bor. «Jannatga yo‘l» – imon tantanasi, «Ilohiy komediya» esa bo‘hton tantanasidir. Ustoz asari sof islomiy ta‘limot

asosidagi asardir. Bu doston «Kishi oxirat olamida sevgan kishisi bilan birga bo'ladi», degan hadisi sharifga tayanadi. Ikki do'st bir-biriga shafqat va muruvvat ko'rsatib, ikkisi ham mangu saodatga – abadiy jannatga erishadi. Islom manbalarida bu xulosaning shunday sobit dalil-hujjatlari borki, Yaratgan Zotning shoir diliga solgan ikromidan hayratga tushasiz.

«TAVBAMNING IZHORI – SHU SHE'RNI YOZDIM...»

Abdulla Oripov «Hikmat sadolari» va «Haj daftari» turkumlari bilan o'zbek she'riyatining yo'nalishini abadiy o'lmas mavzular tomon burdi, ma'rifiy yuksaklik tomon ko'tardi, poklik va oliylik tomon yuz o'girtirdi. Ustoz «Payg'ambar» she'rida yozadi:

*Haq deb nina bilan tog'larni qazdim,
Bandaman, rost yo'ldan gohida ozdim,
Tavbamning izhori – shu she'rni yozdim,
Assalomu alayka, yo Muhammad,
Assalomu alayka, yo Ahmad.*

O'zbekning qahramon shoiri hayotining oxirida (2015–2016) jamiyatdan chetlatib qo'yildi, bir vaqtlar: «Birzum o'z holimga qo'y sen ham, bolam... Birzum odam kabi yashayin men ham», deb insonlardan uzoqlikni istagan shoir endi eshigini qoqib keluvchi do'stlarga muntazir bo'lib qoldi. Ana shunday davrda qo'qonlik olim, sevimli do'stimiz Yorqinjon domla Fozilov sa'y-u harakatlari bilan biz ustozning yaqin suhbatdoshlariga aylandik.

Suhbatlardan birida ustozning 1992-yilda ado etgan haj ibodati haqida so'z bordi. Shunda u kishi o'kinib: «O'sha hajni endi qaytadan qilishim kerak!..» – deb qoldi. Ana shu pushaymonlik shoirning tavbasidir.

Bir gal quvvai hofiza haqida so'z ketdi. Ustoz bolalikda xotirasi o'ta kuchli bo'lgani, Qur'oni Karimni yodlashga moyil ekani, hofizi Qur'on bo'lishiga oz qolganini nadomat bilan esladi. Ana shu nadomat shoirning tavbasidir.

Shoir Turkiyada musulmon shifokorlar qo'lida jarrohlik amaliyotidan o'tganini shukr tariqasida eslar edi. Iymonli va ibodatli zotlarga bo'lgan hurmat va e'tibori shoirning tavbasidir.

Ustoz hayoti oxirida iymonining quvvatini namoyish etuvchi ko'rkam she'rlar yozdi. Shayx Usmonxon ibn Temurxon hazratlariga bag'ishlagan «Mufti» sarlavhali she'ri, taniqli olim marhum Anvar qori Tursunovga bag'ishlab yozgan «O'qing, Anvar qori» degan she'ri – shoirning tavbasi va iymonining dalillaridir.

Go'zal hadisi sharifda aytiladi: «Kimki g'arib holda vafot etsa, shubhasiz, shahid holda vafot etgan bo'lur!» Shoir Vatandan olisda, Yer kurrasining ters tomonida – yiroq Amerikada vafot topdi. Shoyad, Haq taolo shahidlik martabasini bergan bo'lsa!

Taniqli shoir Abdusaid Ko'chimov «Men shoirman, istasangiz shu» nomli kitobida ustozning ko'plarga ma'lum bo'lmagan nodir xislatlarini ochib berdi. Ustozning o'zi bu kitobdan mamnun ekanini izhor etgan va matnni o'n jildlik kulliyotining so'nggi jildiga kiritish fikrini muallifga bildirgan edi.

Adabiyot olamida mumtoz shoir ijodining inqilobiy mohiyati yetarli ochib berilgan emas. O'tganlarni malo-

mat qilgandan ko'ra, bu ulkan ishni bajarishimiz xayrliroqdir. Toki shoirning o'lmas bog'iga tosh otishga har kim ham jur'at etavermasin.

BIR TOMCHI QON, BIR QOZON TAOM

Qaynab turgan bir qozon taomga bir tomchi qon tomsa, uni harom qilganidek, bir-ikki noloyiq lavha butun boshli kitobni qadrsiz qilib qo'yadi.

Alhol, yosh do'stlarim bilan bir muhtaram ustozimning «Xotiralar» kitobi haqida so'zlashmoqchiman. Bu kitobda ko'plab adiblar vasfi qalamga olingan va ularning yaxshi, ibratli xislatlari zikr etilgan.

Lekin bir-ikki shaxs haqidagi noxush so'zlar o'quvchida e'tiroz uyg'otadi. Xususan, atoqli shoir Rauf Parfi haqidagi xotira kishida qandaydir noxush taassurot qoldiradi.

Milliy madaniyatimiz, milliy tuyg'ularimizga xilof bo'lgan bunday gaplarning nimasini xotira deyish mumkin?! Rauf Parfining tengsiz va abadiy o'lmas she'riyati turganda bu gaplarni kim qabul qiladi?

Yashirib bo'lmaydi, oiladorlik, ro'zg'or ta'minoti, ahli oila va shaxsiy hayotga e'tibor masalasida ustoz Rauf Parfining achinarli va oqlab bo'lmaydigan hollari bor edi.

Lekin o'rni kelganda aytish lozimki, Rauf Parfi – o'zbek adabiyotida misli bo'lmagan buyuk shoir. Uning har qanday bashariy kayfiyat va holat ichidagi butun hayoti, dardi, g'oyasi, maqsadi – vatan ozodligi, millat istiqloli, qadimiy Turkiston birligi edi. Hamid Olimjon dan boshlab hamma shoirlar Vatanni yangi nomi bi-

lan «O‘zbekiston» deb kuylagan, kamina ham asosan O‘zbekiston deb yozganman. Lekin Rauf Parfi butun umr Turkiston deb yozdi va buyuk Vatan muxtoriyatini orzu qilib yashadi. (Halima Xudoyberdiyeva ham «Turkistonim, Turonim» deb yozganini yuqorida eslab o‘tdik.) Bas, dardi buyuk shoir haqida noloyiq gaplarni yozib, uning shaxsiyatini maydalashtirishga haqqimiz yo‘q. Rauf Parfining qanday shaxs ekaniga eng muhim dalil-hujjat uning ijodidir.

Qolaversa, ularning oila ahlilari – o‘g‘il-qizlari, nevaralari bor, ular bu noxush gaplarni o‘qisa, qanday holatga tushadi?

Yana muhim bir gap. Rauf Parfi umri oxirida chiroyli hayot bilan, Haq taoloning yodi bilan yashadi. «Tavba» nomli she‘riy kitobini o‘zi tirik chog‘ida nashr ham ettirdi. Birovni tavsiflaganda hayotining avvali emas, oxiri – xotimasi e‘tiborga olinadi. Shoir yozgan edi:

*Oxirat ilmidan qil meni ogoh,
Murodim sham‘ini so‘ndirma, Alloh!..*

Mashrab Boboyev esa taqvimda ko‘rsatilgan vaqt kirdi deguncha yangi tahorat bilan joynamoz ustida turar edi. Men bunga shohidman. O‘zi ham zotan sayyidzoda edi. Umid qilamanki, u husnu xotima – go‘zal yakun bilan, ya‘ni iymon bilan olamdan o‘tdi. Bunday shaxs haqida bashar zoti xayolan eslashi mumkin bo‘lmagan gaplarni qog‘ozga tizish xotira odobiga to‘g‘ri kelmaydi.

Mashrab Boboyevning jufti haloli Rayhon yanga esa joynamoz ustida – sajda holida jon bergan. Islomiy ma‘rifatdan ozgina xabari bo‘lgan odam buning qanday cheksiz ulug‘ baxt ekanini anglaydi.

Mirzo KENJABEK _____

Qadrli yosh do'stlarim! Bu gaplarni kamina aziz ustozimni tanqid qilish uchun yozayotganim yo'q, balki yangi avlod qalamkashlaridan shunday manfur xotiralar yozish aslo sodir bo'lmasin, degan qayg'uda yozyapman.

RAUF PARFI YURAGIDAN SHE’RIY PARCHALAR

* * *

*Esdaliklar yog’adi osmon.
Tiriklikning shohidi Quyosh
Eslamakdan tinmaydi hamon.
Oh, Turkiston, Ona Turkiston.*

* * *

*Men olisga otlanar bo’lsam
Kuygan yurak bo’lib ko’rinding.
Oh, Turkiston, Ona Turkiston.*

* * *

*Shu parcha qog’ozni bosib
Kim qalbmni g’ijimlar otar?!
Xarita – Turkiston – nafasim,
Ko’zimning issig’i – xarita.*

* * *

Sendan ayamasman umrimni, asrim. Bu umrim nimadir?! O, ona Turkiston, bir varaq qog’oz kabi o’zimni yirtmasam... narsalar narsa emas men uchun. Narsalarda bor mening o’chim, kesilgan daraxtlar-to’ngakdir kesilguvchi boshlarga.

* * *

*Turkistonni bo’ldilar,
Parchalandi bemajol.
Ustimizdan kuldilar
Ulyovuzlar bemalol.
Chiqmasmi quyosh balqib...*

* * *

*Yig'la endi, ko'zim, sen-da yig'lab ol,
To'ysin ko'z yoshingga bu turkiy sitam.
To'ysin, Vatan yodi chidar bemalol.
O, sabr daraxti, qutlug' Turkiston.*

* * *

*Uyg'onar Turkiston, uyg'onar Dunyo,
Porloq umidlarga to'lib kun botar.
Baxt singari olis yulduzlar go'yo
Azal go'zallikning sha'mini yoqar.*

* * *

*Ko'ringiz tarixni, ey turkiy xalqim,
Ko'zimga ertaning sevinchi, xolos.
Ul Turondir, Turkistondir? U balkim
Ichimni kemirgan qadimiy qasos.*

* * *

*Oh, Ona Turkiston, kuylayin yonib,
Dunyo jur'atini berding qo'limga.
Men endi angladim turkiy dunyoni,
Mana men, tayyorman endi o'limga...*

* * *

*Parchin-parchin bo'ldi yodim simlari,
Simlar – ko'zlarimga mil tortgan chizgu.
O'tgan ulug'larni eslayman barin,
Xotirot mozori – Turkiston mangu.*

SHOHMOTDA YUTQIZGAN ULUG‘ ADIB

«Xotiralar» kitobida yana G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyotida bosh muharrir o‘rinbosari lavozimida xizmat qilgan atoqli adib Odil Yoqubovning shohmotda qo‘l ostidagi xodimlardan biriga yutqizib qo‘ysa, undan qasos olishi, uning muharrirlik qilgan kitoblarini o‘tkazmay, to‘sqinlik qilib turishi eslanadi. Muallif bu holatni «bolalarcha beg‘ubor»lik deb ta’riflaydi. Holbuki, bu bolalarcha beg‘uborlik emas, inson shaxsini maydalashtirib va tubanlashtirib ko‘rsatishdir. Odil Yoqubovdek ulug‘ adib sha’niga yarashmaydigan bunday xotiralarning kimga keragi bor? Bu gaplar kitob va muallifning qadrini tushiradi, xolos.

BIR GUNOH KECHIRILGAN BO‘LSA...

«Xotiralar» muallifi faqat Rauf Parfi yoki boshqalarni sharmanda qilish bilan kifoyalanmay, o‘z «jasorati»dan ham maqtanib qoladi: «Men o‘zi o‘sha paytlarda oz-oz, yuz-yuz ellik grammdan oshirmay ichardim, bundan oshsa kasal bo‘lib qolar, ikki-uch kun o‘zimga kelolmay yurardim. Ammo bu kecha butunlay boshqacha bo‘ldi... Men umrimda birinchi bora hamma bilan baravar, ya’ni har birimiz uch shishadan, ya’ni bir yarim litrdan aroq ichdik. Men ertaga o‘lib-netib qolishim mumkin deb o‘yladim. Ammo ertalabgacha yana uxlamasdan, soat to‘qqizda to‘ppa-to‘g‘ri ishga kirib bordim. Ajablanarli tomoni: menga balo ham urgani yo‘q, har kungiday uyquga to‘ygan odam kabi g‘ayrat bilan ishladim...» (291-sahifadan).

Bunday «xotirnavislik» dunyoda – sharmandalik, oxiratda rasvolikdir.

O'rni kelganda islomiy ilm hukmlarini eslatib o'tishimiz ham manfaatli bo'ladi. Ogoh bo'laylikki, o'tmishdagi biror gunohimizni Alloh taolo kechirgan bo'lsa, biz o'z tilimiz – o'z qalamimiz bilan uni maqtan-gannamo bo'lib eslasak, Haq taolo uni qaytadan nomai a'molga yozdirib qo'yadi. Bu – til ofati va qo'l ofatidir.

Mavlono Jaloliddin Rumiy «Masnaviyi ma'naviy» asarida «Tavbai nasuh» oyatining sharhida aytadilar: «Inson eski gunohlarini ko'nglida pushaymonlik, af-sus-nadomat va jirkanish bilan eslasa, bu uning tavba-si qabul bo'lgani alomatidir. Inson avvalgi gunohlarini sog'inib, tamshanib eslasa, bu tavbasi qabul bo'lma-ganining alomatidir. Tavbai nasuh esa boshqa gunohga qaytmaslik qasdi bilan qilingan so'nggi, samimiy, haqiqiy tavbadir».

HAMMA ROST GAP HAM DEGULIK EMAS

Xalqimizda «Fitna qo'zg'ovchi rost gapdan sulh va omonlikka keltiruvchi yolg'on yaxshi», degan gap bor. Ya'ni, hamma rost gap ham aytgulik bo'lavermaydi. Haz-rat Navoiy yozadilar:

Xiradmand chin so'zdin o'zga demas,

Vale bari chin ham degulik emas.

Ya'ni: «Dono va aqlli odam rost gapdan boshqani ga-pirmaydi, lekin hamma rost gap ham aytgulik bo'laver-maydi».

«Fitna angiz rost so‘zdan sulh angiz yolg‘on yaxshiroq», degan qavl bor. Ya‘ni, fitna-fasod qo‘zg‘ovchi rost gapdan ko‘ra sulh va omonlikka keltiruvchi yolg‘on yaxshidir.

Hazrati Shayx Sa‘diy «Guliston» kitobida bir qiziq voqeani bayon qiladilar. Bir podshoh bir kishini o‘limga hukm qiladi. Xalq to‘plangan, olomon – tomoshaga o‘ch, podshoh va vazirlar kuzatuv maqomida. O‘lim vaqtida mahkum kishi nohaq qatl qilinayotganini aytib, podshohni zolimlik va adolatsizlikda ayblab, baqirib so‘ka boshlaydi. «U nima deyapti?» – deydi podshoh. Bir dono vaziri: «Shohim, u sizning adolatingizni maqtab gapiryapti, «Men-ku, o‘lib ketyapman, lekin sizlar podshohning adolatiga itoat qilinglar!» deyapti», – deya hukmdorni yaxshilikka tortmoqchi bo‘ladi. Boshqa bir rostgo‘y vazir esa darhol: «Sen podshohi olamni aldayapsanmi? Axir, u podshohni zulm va adolatsizlikda ayblab so‘kyapti-ku!» – deydi. Shunda podshoh rostparast vazirga qarab: «Sening rost gapingdan ko‘ra buning yolg‘oni menga yaxshiroq!» deya mahkumni o‘limdan ozod etgan ekan.

Ba‘zi xotiranaivislarning rost so‘zi ma‘naviy o‘lim va halokatga sabab bo‘luvchi fitnadir. Bir insonning obro‘yini to‘kish uning qonini to‘kish bilan barobar.

Insonni sharmanda qiladigan va ma‘nan o‘ldiradigan rost gapning hech qachon, hech qayerda, hech kimga keragi yo‘q. Ijodkorning har bir ishi umumbashariy madaniyatga, xususan, xalqimizning milliy odobiga muvofiq kelishi durustdir. Sharmanda qiluvchi so‘z muallifning o‘ziga sharmandalik keltiradi, xolos.

«O'LGANLARNI SO'KMANGLAR...»

Shoir Sirojiddin Sayyid o'z «Arba'iyin»ida «O'lib ketganlarni yomonlab haqorat qilmanglar, chunki ular qilmishlariga yarasha jazo yoki mukofot oladigan joyga ketganlar», degan ma'nodagi muborak hadisni quyidagicha nazmga tizgan:

*O'lib ketganlarni yomonlamaslar,
Ularni malomat qilib bo'lmaydi.
Ular ranjurdirlar, ular ozurda,
Kek saqlab, haqorat qilib bo'lmaydi.*

*O'zlari bilandir qilmishlari ham,
Tinch qo'yinglar, axir, ular o'lganlar.
Ular mukofot yo jazo oluvchi
Joyga allaqachon yetib bo'lganlar.*

Mazkur satrlar hazrati Imom Buxoriyning «Al-Jomi' as-sahih» kitobida bayon etilgan 6516-hadisga asoslanadi. Hazrati Oysha onamiz roziyallohu anho rivoyat qiladilar: «Janob Rasululloh sollallohu alayhi va sallam: **«O'lganlarni so'kmanglar, chunki ular qilmishlariga (javob bergani) ketdilar!»** – dedilar».

UMRINGIZ DAVOMIDA IKKI HOLATGA DUCH KELASIZ...

Har bir inson, har bir qalamkash umri davomida ikki holatga duch keladi: yo yaxshilik tarozusiga tosh qo'yish, yo yomonlik tarozusiga tosh qo'yish holati. Juz'iy ixtiyor degani – bashar zotiga xos bo'lgan bir qism ixtiyordir.

Yaxshi va yomon; to‘g‘ri va egri; pok va nopok; haq va nohaq; halol va harom; imon va kufr – Yaratgan Zot har bir insonga bu ikkisidan birini tanlash ixtiyorini bergan. Ana shu juz‘iy ixtiyor deyiladi.

Har bir ijodkor hayotida biror insonga, biror qalamkashga, biror olim yoki shaxsga yaxshilik qilish yoki yomonlik qilish holatiga duch keladi. Toki vijdongingiz tirik ekan, toki shuuringiz uyg‘oq ekan, yaxshilik yetkazishga harakat qiling. Yaxshilik tarozusiga tosh qo‘ying. Aslo yomonlik tarozusiga tosh qo‘ymang. Agar yaxshilik qilishga qodir bo‘lmasangiz, hech yo‘qsa, yomonlik qilmang. Hech yo‘qsa, yomonlik qilishdan saqlaning.

Ijod kishisi uchun bu narsani dasturilamal qilish faqatgina fayz va baraka keltiradi. Negaki sizning qalamingizdan chiqqan ijod mahsullarini qanchadan-qancha kishilar o‘qiydilar. Ular har bir bitigingizdan yaxshilik topsalar, bu ijodkor uchun saodatdir.

YAXSHILIK QILISH QOIDASINI SUIISTE‘MOL ETMAYLIK

Yaxshilik qilish qoidasini suiiste‘mol qilmaslik kerak. Masalan, bir yozuvchining yaroqsiz, yaramas, badiiy yoki ma‘naviy jihatdan past asari muhokama qilindi. «Yaxshilik tarozusiga tosh qo‘yishim kerak» deb, o‘sha yaramas asarni qo‘llab-quvvatlasak, so‘z san‘atiga, adabiyotga, iste‘dod ahliga xiyonat qilgan bo‘lamiz. Iste‘dodsiz qalamkashga qilingan yaxshilik iste‘dodli odamga qilingan yomonlikdir. Bu o‘rinda haqiqiy adabiyot tamoyilini muhofaza qilish shart bo‘ladi. Yaxshilik qi-

lish va yomonlik qilmaslik qoidasi bu – bir ijodkorning boshiga falokat, musibat va jazo bo'ladigan masalalar-dadir. Asl ijodkor hech qachon boshqa bir ijodkorning falokatga yo'liqib ketishiga sabab bo'lmaydi, rozi ham bo'lmaydi, yo'l ham qo'ymaydi.

Bir-birimizga mehribon bo'laylik, pokiza yashaylik.

SIYOSIY AYB TAQASHDAN SAQLANMOQ

Mazkur qoida, ya'ni yaxshilik tarozusiga tosh qo'yish – ijodkorning taqdiriga oid bo'lgan masalalarga oiddir. Bu so'z asosan – ijod va ilm ahliga siyosiy ayb taqash-dan saqlanish haqidadir. Adabiyotimiz yuz yil davomi-da siyosiy aybnomalardan ulkan zarar va talofatlar ko'rdi. Millatimiz siyosiy aybnomalar tufayli Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Fitrat, Usmon Nosir kabi buyuklaridan judo bo'ldi. Tirik qolgan shoir va yozuvchilarimiz esa ma'naviy majruh holda yashadilar.

Kamina adabiy muhit girdobida o'tgan umrimda shunday insonlarni ko'rdimki, ular shaxsiy manfaati, mansabi va havoyi nafs uchun Tangri taolodan ham, insondan ham qo'rqmasdan qalam ahliga siyosiy ayblar taqab, mamlakat rahbariga xat va tezxabarlar bilan murojaatlar qildilar. O'zi asrasin, agar eski davrlarning shamoli essa edi, yangi davrning ma'naviy jallodlari ana shular bo'lar edi!

TANQID DUSHMAN IZLAGANDA

Oldingi mavzularda marhum olim Sherali Turdiyevning «Tanqid dushman izlaganda» ruknidagi iqtiboslarini eslab o‘tdik. Bu turkum iqtiboslar sobiq Sho‘ro davri – istibdod va qirg‘in-qatag‘on davri fojialarini aks ettiruvchi tarixiy dalil-hujjatlardir. Olim ularni o‘sha davr maqolalaridan tanlab jamlagan va 1989–1991-yillarda «O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati» gazetasining ko‘plab sonlarida chop ettirgan. Ana shu iqtiboslar xalqimizning ayrim ziyolilari bir-birlariga qanday beshafqat munosabatda bo‘lgani, qanday sotqinlik va xiyonat yo‘lini tutganligiga dalildir.

Mudhish siyosiy ayb taqashlar XX asrning 50-yillari, hatto 60-yillarida ham davom etganini adabiy tanqid olamida kuzatish mumkin. Adabiyotshunos olim va adib Olimjon Toshboyevning buyuk adib Shukur Xolmirzayev haqidagi tarixiy-hujjatli asaridan ma‘lum bo‘ladiki, ba‘zi adabiyotshunos olim va tanqidchilar 60-yillarda endigina adabiyot olamiga kirib kelayotgan yosh yozuvchi Shukur Xolmirzayevni ham siyosiy ayblar bilan juvonmarg qilib yuborishlariga oz qolgan ekan.

Afsuski, qalamning kuchini xiyonatga sarflaydigan bunday «yozg‘uvchi» va tanqidchilar hozir ham uchraydi.

Aziz va sevimli yosh do‘stlarim! «Bo‘ladigan xalqning farzandlari bir-birini botirim deydi, bo‘lmaydigan xalqning farzandlari bir-birini yeydi», degan gap bor. Qalam ahlining juz‘iy bir ehtiyotsizligi bir insonning yostig‘i qurishiga sabab bo‘lishi mumkin. Xalqimiz xalq

bo'lsin, millatimiz millat bo'lsin desak, birovga tuhmat qilishdan, ayniqsa, siyosiy ayblar taqashdan saqlanmog'imiz kerak.

TAXALLUS TANLASH MASALASI

Adabiy jarayonni kuzatib, shunga shohid bo'ldimki, taxallus tanlash masalasi ko'plab yosh ijodkorlarni qiziqtiradi. Shoir Shahriddin Umirov ijtimoiy tarmoqda bizga ajib savol bilan murojaat etibdi.

SAVOL: – Meni bir narsa ko'p o'ylantiradi... Ustoz shoir Muhammad Yusuf: «Shoirlikni da'vo qilgan odamdan qo'rqing», degan ekanlar... Ba'zi hollarda, biror kitobi u yoqda tursin, hali na biror she'ri, na biror maqolasi matbuot yuzini ko'rmay turib ham, o'ziga taxallus qo'yib olgan yosh ijodkorlarni eshitib qolamiz. Bu holat shoir yoki yozuvchilikni da'vo qilish emasmikin, deb o'ylab qolaman. Siz bunga nima deysiz?

JAVOB: – Taxallus tanlash har bir qalamkashning o'z ixtiyoridadir. Yoshlikdan taxallus tanlagan qalamkash, ehtimol, ulkan ijodkor bo'lib yetishar. Agar u yo'lda qolib ketsa, bunda taxallusning aybi yo'q. Lekin biz nekin va yaxshi niyatli bo'laveraylik va himmati baland taxallus sohiblariga barkamollik tilab qolaveraylik. Muhammad Yusufning so'zi esa – nisbiy bir so'z. Pahlavonning da'vosi bo'lmasa, yelka tashlab, maydonga chiqadimi? Lekin bu so'z kamtarlik, xokisorlik xislatlariga oiddir. Katta ketish, o'zida yo'q xislatni da'vo qilish, manmanlik hech bir ijodkorga izzat keltirmasligini aytmoqchi shoir.

Lekin taxallus tanlaganda ham, farzandlariga ism qo‘yganda ham o‘sha nom nekbinlik va yaxshilikni ifoda etsin. «Otash», «Noriy», «Olov» kabi taxalluslarni tanlash e‘tiqod ilmida durust emas. Chunki bular do‘zaxning sifatlaridir. «Najot», «Umid», «Falah», «Madad» singari nomlarni tanlash ham durust hisoblanmaydi. Chunki birov uni yo‘qlab kelib: «Umid bormi?», «Najot bormi?», «Falah bormi?», «Madad bormi?» deb so‘rsa-yu, uyg‘ilari: «Umid yo‘q», «Najot yo‘q», «Falah yo‘q», «Madad yo‘q» deb javob bersa, unda umidsizlik, najotsizlik, falahsizlik yoki madadsizlik holi ifoda etilgan bo‘lib qoladi. Bu esa e‘tiqod ilmida durust sanalmaydi.

Shuningdek, Quyun, Bo‘ron kabi taxalluslardan ham saqlangan yaxshi. Chunki bular zarar va talofat keltiruvchi narsalardir.

Hazrati Alixonto‘ra Sog‘uniyning «Tarixi Muhammadiy» asarida sevikli Payg‘ambarimiz alayhissalom yaxshi nomdan yaxshilik xushxabarini olganlari hikoya qilingan. Darhaqiqat, bu so‘zning isboti hazrati Imom Buxoriyning «Al-Jomi’ as-sahih» kitoblaridagi hadisi shariflarda kelgan.

Hazrati Shayxzoda Atoiy yozadilar:

*Atoyini qulum debtur o‘shal oy,
Bale, «Ko‘ktin inar alqob» derlar.*

Ya‘ni, g‘oyat go‘zal tavsif bilan «Laqablar – ismlar osmondan tushadi, demakki, taqdirotni ifoda qiladi», degan ma‘noni izhor etmoqdalar.

XOTIMA

Aziz va sevimli yosh do'stlarim, o'g'il-qizlarim! Mana, «Dil so'zlarim»ni o'qib bo'lguningizcha, bir qancha mud-dat hamnafas, hamfikir yashadik.

Insonning uch dushmani bor: 1) nafs; 2) shayton; 3) jaholat, ya'ni ilmsizlik, nodonlik. Shaytonning inson-ga ochiq dushman ekani Ilohiy Kalomda ko'p bor ta'kid-langan. Lekin tasavvuf arboblari nafsni birinchi dush-man sanaganlar. Chunki u doim yomonlikka buyurishi, shayton bilan hamkorlik qilishga doim tayyor ekani, unda munofiqlik alomati borligi valiy zotlarning so'zlari-da bildirilgan. Yaratgan Egamiz O'z Kalomida «nafsi-ni (shirk, ibodatsizlik, yomon tuyg'u va fe'llar hamda gunohlardan) poklagan kishining, muhaqqaq, najot topib murodiga yetishi, nafsini (gunohlar bilan) bulg'ab ko'mgan kishi esa, albatta, ziyonga uchrashi»ni ma'lum qiladi (Shams surasi, 7–10-oyatlari).

Bas, odamzodning qiladigan barcha yomonliklari ana shu uch dushman, jumladan, nafs ta'siridan xoli emas. Kamina ushbu risolada yosh ijodkor do'stlarimni bu uch dushmandan ogohlantirishga va ulardan qutu-lish yo'llarini ko'rsatishga harakat qildim.

Iste'dod – ulug' ehson, ijod – ulug' baxt, qalam – ulug' ne'matdir. Biz ziyolilar – munavvar shaxslar bir-birimizga mehribon va muhofiz bo'lsak, birlashsak, iste'dodni ezgu-likka, ijodni haqiqatga, qalamning kuchini nurli hayotga fido qilsak, xalqimiz ulug' xalq bo'ladi, millatimiz ulug' mil-lat bo'ladi, Vatanimiz ulug' Vatan bo'ladi.

Hali oldimizda yo'qotganlarimizni tiklash mua-mmosi turibdi! Ochiq aytish kerak, ma'naviyat, ilm-u

ma’rifat, tafakkur, adolat va haqiqat borasida mustamlakachilar ko’p yillik zulm va istibdod davrida yo’qota olmagan ma’naviy boyliklarimizni biz o’z qo’limiz bilan osongina yo’qotdik. Yo’qotganda ham asosan qamoqlar, tahdidlar, tazyiqlar, nohaq targ’ibotlar bilan yo’qotdik. Ana shunday boyliklarimizdan ba’zilari – milliy axloq va ma’naviyat, so’z va vijdon erkinligi, qalb hurriyati, sog’lom ruh, inson huquqlari, asrlar bo’yi davom etib kelgan ustoz-shogirdlik maktablari va tasavvuf dar-gohlaridir.

Bu ma’naviy omillar to’liq tiklanmay turib, yuksak maqomlarga erishib bo’lmaydi.

Umid qilamizki, xalqimizning ma’naviy rahnamolari, adabiyotning, ya’ni muhabbat va sadoqat maktabining muallim va mudarris-lari bo’lgan shoir-yozuvchilar – haqiqat, adolat, ilm-u ma’rifat, ijod va ma’naviyat yo’li-da birlashadilar, O’zbekiston ulug’ mamlakat bo’ladi, o’zbek xalqi va bizga qo’shni bo’lgan barcha xalqlar qadimiy buyuk salohiyatini qayta tiklaydi. Adabiyot ham xalq qalbiga hayot olib kiradigan asl adabiyot bo’ladi! Buning uchun ziyolilar, xususan, millat peshqadamlari bo’lgan ijodkorlar yuksak axloqli, ulug’ maqsadli, pok qalbli, teran tafakkurli, keng ilmli va ma’rifatli shaxslar bo’lishi lozim.

Ana shu sharaflı yo’lda barcha ijodkorlarga muvaf-faqiyat va ravnaq, barokotli umr va ijod tilab qolaman.

*Asliy do’st-u yorlar kelsin biz tomon,
G’amginlar, bemorlar kelsin biz tomon.
Davlati borlarni to’rga o’tqazing,
Faqat qalbi borlar kelsin biz tomon!..*

2016–2020

MUHARRIRDAN

Adabiyot muxlislariga ma'lum, Mirzo Kenjabekning «Yoshlarga dil so'zlarim» asari «Adabiyot ziyosi» gazetasining 2019-yilgi 15–19-sonlari va 2020-yilgi 1–12-sonlarida to'liq chop etildi. O'zbekiston xalq shoiri Mahmud Toir boshchilik qilayotgan mazkur gazetadan bahramand bo'lgan ba'zi muxlislar asar haqida o'z fikr-mulohazalarini bildirib xatlar yo'llaganlar. Quyida yosh qalamkash Otabek Bakirov maqolasi va asarni o'qib o'z fikrini bildirgan ba'zi iste'dodli qalam ahllarining so'zlarini ilova etishni maqbul sanadik.

BIR NAFASDA O'QILADIGAN SUHBATLAR

Ustoz ijodkor, taniqli shoir va mohir tarjimon, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi, Xalqaro Bobur mukofoti sohibi Mirzo Kenjabekning «Adabiyot ziyosi» gazetasida davomli ravishda chop etilgan «Yoshlarga dil so'zlarim» turkum suhbatlarini miriqib, katta hayajon bilan o'qib bordik. Afsuski, har narsaning poyoni bo'lganidek, samimiy gurung ham nihoyasiga yetdi. Biroq bu suhbatlar men kabi yuzlab yoshlarning qalbida aks sado berayotganiga shubham yo'q.

Ulug' ulamo-yu shoirlar orasida shogirdlariga, umuman, yoshlarga pandnomalar yozish an'anasi tarixdan mavjud bo'lib, Imom G'azzoliyning «Ey farzand», Fariduddin Attorning «Asrornoma»si bunga yaqqol misol bo'la oladi. Abdulla Qahhorning o'tgan asrda yaratilgan «Yoshlar bilan suhbat»i hanuzgacha yosh ijodkorlar

uchun muhim qo'llanma bo'lib kelmoqda. Ammo yangi asrda ustozlarning hafsalasi bo'lmadimi yoki shogirdlarning tinglashga vaqti yetmadimi, bunday asarlar yozilmay qoldi. Oradagi katta bo'shliqni Mirzo Kenjabekning «Yoshlarga dil so'zlarim» risolasi muvaffaqiyatli to'ldira olganiga aminmiz.

Har qanday dori oz-ozdan, muntazam ravishda qabul qilinsa, shifo bo'ladi. Gazetaning har sonida parchalarni o'qib borib, butun boshli asarni tugatib qo'yganimizni sezmay qolibmiz. Ustoz ijodkorning dil so'zlari shirali ohangi, hayotiy kuzatuvlari hamda diniy-ma'rifiy qiy-mati bilan dillarga to'siqsiz kirib boradi. Mutolaa jarayonida gazeta oradan ko'tarilib, go'yo jonli suhbatda o'tirganday zavq oldim. Mavzu «Ma'joz va haqiqat» bo'ladimi, «Jahon siyosatini bilish zarurligi» bo'ladimi yoxud «Xotira yozish odobi» bo'ladimi, birday qabul qilinadi. Dil so'zlar qatida shunday nozik va daqiq masalalar yechimi bayon qilinadiki, o'quvchining hayratlanishdan o'zga chorasi qolmaydi. Suhbatlarni o'qib tugatarkanman, butun boshli maktabni tamomlaganday his qildim o'zimni.

So'zi va amali bir bo'lgan insonlar barcha adolatli zamonlarda qadrlangan. Kamina nazdida «Yoshlarga dil so'zlarim»ning qadri yana shuning uchun ham balandki, muallifning yoshlarga ilm berishga bo'lgan ishtiyoqiga bevosita guvoh bo'lganman. Xayrli sabab bilan yozuvchilarning Do'rmondagi bog'ida Mirzo Kenjabek va bir guruh yoshlar suhbatida bo'lganman. Ustozning har bir aytayotgan so'zini dona-dona qilib, shoshmasdan so'zlashi, har gapi oldidan nafas rostlab, aytajak fikrini obdon tekshirib, keyin tilga chiqarishiga qoyil qolganman. Mabodo, biron jumla yoki ma'lumotda yanglishsa,

shu zahoti tinglovchilardan uzr so'rab, xatosini to'g'irlagan holat ham bo'lgan. Bu katta shoirning kamtarligi, kibrdan yiroqligiga dalolat. Boisi, bunday mavqe va yoshdagi ijodkorlar biz kabi yoshlar oldida xatosini tan olib o'tirmaydi...

O'shanda ustoz suhbatiga to'ymay qolganim bor gap. Shukrki, uning kamini «Adabiyot ziyosi»da berilgan o'sha asar bilan to'ldirgandek bo'ldim. «Yoshlarga dil so'zlarim» kitob holida nashr etilsa, kitob javonlarida turmasligiga, aksincha, qo'lma-qo'l bo'lib, qayta-qayta o'qilaverib, sahifalari xatcho'plarga to'lishiga, yosh muhiblarning kamida yostiqlari tagida turishiga ishonaman.

Odatda, o'qiyotgan asarimizdagi kerakli so'zlar va jumalarni yondaftarchamizga ko'chirib qo'yamiz. Lekin bu asar to'lig'icha kerakli gaplardan iborat. Demak, «Yoshlarga dil so'zlarim» har bir yosh ijodkorning yondaftarchasi yoki yo'l xaritasiday doim yonida hamrohi, hammaslagiga aylanadi.

Garchi bu maqolalar salkam besh yil (2016–2020 yillar) mobaynida qog'ozga tushirilgan bo'lsa-da, aslida, yurak tubida, tafakkur mehrobida bular juda ko'p yillar davomida yetilgani bilinib turibdi.

Asar xotimasida shoirimiz shunday yozgan:

«Adabiyot ham xalq qalbiga hayot olib kiradigan asl adabiyot bo'ladi! Buning uchun ziyolilar, xususan, millat peshqadamlari bo'lgan ijodkorlar yuksak axloqli, ulug' maqsadli, pok qalbli, teran tafakkurli, keng ilmi va ma'rifatli shaxslar bo'lishi lozim. Ana shu sharaflilarda barcha ijodkorlarga muvaffaqiyat va ravnaq, barakatli umr va ijod tilab qolaman.

Ijodkor do‘stlarimga ustoz dilso‘zlarini, albat- ta, o‘qishni tavsiya qilaman. Ehtimol, bu gaplarni bir o‘qishdayoq to‘liq anglamasmiz. Lekin har safar o‘qi- ganimizda yangi ma’no kashf qilishimiz muqarrar. Agar siz hali o‘qib ko‘rmagan bo‘lsangiz, darhol «Adabiyot ziyosi»ning ikki yillik taxlamini qo‘lga oling. Ishoning, bu asar gazeta sahifalarini izlab, davomini qidirib, topib o‘qishga arziydi. Axir, matbuotda shuncha payt oldi- qochdi asarlar davomini intiq kutganimiz, bu bilan al- damchi hirs-u ehtiroslarimizni semirtirganimiz yetar! Endi ma’naviy-ma’rifiy olamimizni boyitish haqida ham o‘ylaylik.

Otabek BAKIROV,

Angren shahri.

«Adabiyot ziyosi» gazetasining

2020-yil 21-may. 13 (32)-soni

GO‘ZAL ADABIY RISOLA

Assalomu alaykum! Domla, kitobni o‘qidim. Juda ajoyib. Ma’rifiy, tarbiyaviy, ayni damda, go‘zal adabiy risola bo‘libdi. Muborak bo‘lsin!

...Albatta sizning maqomingizdagi qalam sohibi har bir bitigida islomiy, irfoniy manbalarga tayanishi, ular- dan muayyan istifoda etishi tabiiy. Ammo, muhimi, ki- tob juda mag‘zi to‘q, fayzi mo‘lligi bilan kitob javonimiz- ga munosib tuhfadir.

Shodmonqul SALOM,

shoir, O‘zbekiston Yozuvchilar

uyushmasi a‘zosi.

2020-yil, aprel.

JUDA DILBAR VA KERAKLI KITOB

Assalomu alaykum, ustoz. Kitobni o'qib chiqdim. ...Kitob haqida barcha fikrlarimni biryo'la aytolmayman. Savob ish bo'libdi. Rahmat! Bugungi yoshlar uchun ayni kerak masalalar ko'tarilgan. Yo nasib, kitob holida tezroq chiqishidan umidvormiz.

Ustoz, shunday kerakli asar, zarur kitob bilan sizni ham, ko'proq ilk o'quvchilardan o'laroq o'zimni va yosh tengqur avlodni ham qutlayman. Juda dilbar va kerakli kitob. E'tirofingizdan boshim ko'kka yetdi. Rahmat. Alloh umringizni ziyoda qilsin, ustoz!

Mansur JUMAEV,
shoir, O'zbekiston Yozuvchilar
uyushmasi a'zosi.
2020-yil, aprel.

MUALLIF HAQIDA

Shoir, tarjimon, jurnalist, islomiy kitoblar musannifi Mirzo Kenjabek (Kenjaboev Mirza To‘ychiyevich) 1956-yilda O‘zbekiston janubida – Surxondaryo viloyati, Sariosiyo (hozirgi Uzun) tumani, Mehnat qishlog‘ida tug‘ilgan. O‘rta maktabdan so‘ng 1974–1979-yillarda Toshkent Davlat universiteti (hozirgi Milliy universitet) ning jurnalistika fakultetida, 1999–2001-yillarda Imom Buxoriy nomidagi Islom institutida ta‘lim oldi. 1982-yildan O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a‘zosi.

«Yosh gvardiya» nashriyoti, «Mushtum» jurnali, G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, «O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati» gazetasi, Abdulla Qahhor uy-muzeyi, Prezident devoni idoralarida xizmat qilgan. Hozir O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazida Islom merosini saqlash bo‘limi boshlig‘i.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 27-sentyabr farmoni asosida «O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi» unvoni bilan taqdirlandi.

2019-yilning 14-fevralida Xalqaro Bobur mukofotiga sazovor bo‘ldi.

2019-yil 2-mart, hijriy 1440-yil rajab oyining 11-kuni, yakshanbada Shayx Mirzo Ahmad Xushnazar Termiziy (Mirzo ibn To‘ychiboy ibn Kenjaboy ibn Xushnazar) unvoni ila Xojagon-naqshbandiya shayxi irshod maqomi berilgan.

SHE'RIY KITOBLARI

«**Maktublarim**». «Yosh gvardiya» nashriyoti, 1982.

«**Quyoshga qaragan uy**». G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1983.

«**Munojot**». G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1986.

«**Sharq tili**». «Kamalak» nashriyoti, 1988.

«**Bahorim yellari**». Lirik. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1999.

«**Xushxabar**». Yangi she'rlar va ruboiylar. «Navro'z» nashriyoti, 2018.

TARIXIY-MA'RIFIY VA TASAVVUFIIY VA TAZKIRA KITOBLARI

«**Termiz tazkirasi**». «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2001.

«**Buyuk Termiziylar**». «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2017.

«**Hazrati Qusam ibn Abbos – Shohi Zinda**». «O'zbekiston» nashriyoti, 2017.

«**Bobur Mirzo asarlarida arabiy matnlar**». Risola. «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2018.

«**Murshidi komil hikmatlari**». Tasavvufiy-fiqhiy asar. «Yangi asr avlodi» nashriyoti, 2004.

ADABIY-IRFONiy KITOBLARI

«**Dunyoning murshidi**». Hazrati Xoja Ubaydulloh Ahrorning «Risolai Volidiyya» asari Zahiriddin Muhammad Bobur qalamiga mansub nazmiy tarjimasining qisqa sharhi; «Fan» nashriyoti, 2004.

«**Risolai volidiyya nazmiy tarjimasi va sharhi**». «Navroz» nashriyoti, 2019.

«**Oshiq Mashrab va tasavvuf olami**». «Navro‘z» nashriyoti, 2019.

«**Yoshlarga dil so‘zlarim**». (Yosh ijodkorlarga samimiy tavsiyalar). Asar «Adabiyot ziyosi» gazetasining 2019–2020-yildagi ko‘plab sonlarida to‘liq chop etildi. «Adabiyot nashriyoti»da nashrga tayyorlangan, 2021.

FIQHIY-MA’RIFIY KITOBLARI

«**E’tiqod**». «Movarounnahr», 2005.

«**Qabrston ziyorati odobi**». «Movarounnahr», 2005.

«**Mubayyan va nasriy bayoni**» (Zahiriddin Muhammad Bobur xazinalari). «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2014.

«**Anvorul-manosik**». Haj fatvolari majmuasi. Yorqinjon Qori Fozilov tarjimasida musanniflar jamoasi bilan birga nashrga tayyorlangan. «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2014.

«**Eng go‘zal salavotlar**». «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, birinchi nashri – 2015; ikkinchi nashri – 2017.

(Muallif fiqhiy asarlarini asosan Mirzo Ahmad Xushnazar taxallusi bilan nashr etadi. Xushnazar bobo – muallifning bobokaloni, Kenjaboy boboning otalaridir.)

JAHON ADABIYOTIDAN QILGAN TARJIMALARI

A.S.Pushkin. «Yevgeniy Onegin». She'riy roman, G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1988; qayta ishlangan ikkinchi nashri ko'p jildlik «Rus adabiyoti durdonalari» turkumining 1-jildida A.S.Pushkinning she'riy asarlari tarkibida chop etildi. «O'zbekiston» nashr-matbaa uyi, 2019.

Farididdin Attor. «Tazkirat ul-avliyo». «O'zbekiston milliy entsiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 1997.

Maxtumquli. Saylanma. She'rlar. Turkman tilidan tarjima. «Adolat» nashriyoti, 2004.

Maxtumquli. «Oshiqlar Haq ishqinda». Saylanma she'rlar. Turkman tilidan o'zbek tiliga muvofiq lashtirilgan. «Zilol buloq» nashriyoti, 2019.

Jeyms Oldrij. «G'aroyib mo'g'ul oti». Qissa. Rus tilidan Rizoqul Usanov bilan birga tarjima qilingan, «Tafakkur» nashriyoti, 2012.

Sirojiddin Usmon O'shiy. «Omoliy». Manzuma. Arab tilidan tarjima, «Movarounnahr» nashriyoti, 1999.

Zayniddin Vosifiy. «Toshkent ta'rifida masnaviy». Doston. Fors tilidan tarjima. «Jahon adabiyoti» jurnali, 2002.

Yunus Emro. «O’lmas ko’ngul». She’rlar. Usmoniy turk tilidan tarjima. Prezident ma’muriyati, 2020.

Boshqa she’riy tarjimalari: *Fors tilidan:* Hofiz Sheroziy, Sa’diy Sheroziy, Nosir Xusrav Dehlaviy, Mavlaviy Jununiy g’azallari. *Turk tilidan:* Yunus Emro she’rlari. *Rus tilidan:* I.V.Gyote (Olmoniya); Nikolas Gilen (Kuba); Gevorg Emin (Armaniston); O’ljas Sulaymon (Qozog’iston) she’rlari. Bu asarlar turli kitoblarda va Respublika jurnallarida nashr etilgan.

TARJIMA QILGAN ILMIY-MA’RIFIY VA HADIS KITOBLARI

Abu Iyso Muhammad at-Termiziy. «Sunani Termiziy» («Al-jomi’ as-sahih»). Hadislar to’plami tarjimasi. Arab tilidan, 1-jild, «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 1999, 2012, 2013, 2017; 2-jild – 2017.

Abu Iyso Muhammad at-Termiziy. «Sunani Termiziy». 2-jild. «O’zbekiston milliy entsiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2017.

Abu Iyso Muhammad at-Termiziy. «Shamoili Muhammadiyya», birinchi nashri – «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2015, ikkinchi nashri – 2017.

Muhammad Zohid Qo’tqu ibn Ibrohim al-Bursaviy. «Ahli sunnat val-jamoat aqoidi» (Sog’lom islomiy aqida), birinchi kitob, «Movarounnahr» nashriyoti, 1998, 2001, 2004. Bu kitob yurtimizdagi ko’plab musul-

monlarning, ayniqsa, yoshlarning turli egri oqimlardan hazar qilib, to'g'ri yo'lda yurishida o'ta muhim ahamiyat kasb etgan asarlardandir. Bu kitob haqida ko'plab maqolalar va «Tafakkur shu'lalari» nomli kitob ham yozilgan.

Muhammad Zohid Qo'tqu ibn Ibrohim al-Bursaviy. «Ahli sunnat val-jamoat aqoidi». Ikkinchi kitob (Sharhi Omoliy), «Movarounnahr» nashriyoti, 1998.

Shayx Mavlono Ahmad Ziyouddin Kumushxonaviy. «Jomi' ul-mutun». Moturidiya e'tiqod ta'limi haqida matn va sharhdan iborat kitob, 2000.

Abul-Futuh Shayx Ahmad G'azzoliy. «Bahrul mahabba» («Muhabbat dengizi»). Yusuf qissasi asosida tafsir kitobi. Majoziy va Ilohiy muhabbat kitobi. «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2019.

Mahmud As'ad Jo'shon. «Haqiqiy sevgi». Ma'rifiy-tasavvufiy kitob, «Movarounnahr» nashriyoti, 1999.

Qutbiddin Iznikiy. «Murshidi mutaahhiliyn». (Yosh kelin-kuyovlarga maslahatnoma), «Movarounnahr» nashriyoti, 2002.

Mahmud As'ad Jo'shon. «Tasavvuf va go'zallik». Ma'rifiy-tasavvufiy kitob, «Adolat» nashriyoti, 2004.

Hoji Ahmadjon Maxdum Hanafiy-Naqshbandiy. «Risolai sujudi sahv». «Adolat» nashriyoti, 2004.

Avrodi sharif. Oyati karimalar va hadisi shariflarda kelgan duolar. Birinchi nashri – 2013, ikkinchi nashri – 2015, uchinchi nashri – 2017.

NASHRGA TAYYORLANGAN ASARLARI

«She’riyat va ruhiyat». Maqolalar, sharhlar, suhbatlar. 2020.

«Ma’naviyat va hayot». O‘zbekistondagi ma’naviy-ma’rifiy o‘zgarishlar, ilm va ma’rifat sohasidagi xayrli ishlar haqida kitob, nashrga tayyorlanmoqda.

MUHIM PUBLITSISTIK ASARLARI

«Dildoshlik». O‘zbek tilining mustamlaka davridagi xarob ahvoli va uni davlat tiliga aylantirish zaruriyati haqida («O‘zbekiston adabiyoti va san’ati» gazetasi, 1988).

«Til erki – el erki». O‘zbek tili davlat maqomini berish zaruriyati haqida («O‘zbekiston adabiyoti va san’ati» gazetasi, 1989).

«Har kunning bo‘lsin navro‘z» – O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi plenumida Navro‘z bayramining taqiqlanishiga qarshi va Kompartiya ideologiya kotibiga qarshi so‘zlangan nutq asosida yozilgan maqola. Unda navro‘z bayramining diniy emas, milliy bayram ekanligi va uni qayta tiklash zaruriyati bayon qilingan (Sobiq «Yosh leninchi», hozirgi «Turkiston» gazetasi).

«Inson qalbi bilan hazillashmang...» – Abdulla Oripov bilan suhbat. Adabiy va ijtimoiy muammolar haqida («O‘zbekiston adabiyoti va san’ati» gazetasi).

«Shoir va she’r dunyosi» – Erkin Vohidov bilan suhbat. Adabiy, ijtimoiy-axloqiy masalalar haqida («O‘zbekiston adabiyoti va san’ati» gazetasi).

«Yuragimda oyoq izi bor» – Mustamlaka davrida O'zbekistondagi ijtimoiy tengsizliklarni tugatish, ekologik fojialarni bartaraf etish, sog'lom ijtimoiy hayotni joriy etish masalalari haqida (Sobiq «Yosh leninchi», hozirgi «Yoshlar ovozi» gazetasi).

«Xalq nomidan yolg'on so'zlamang» – Bo'stonliqda qurilmoqchi bo'lgan ekologik va hayotiy jihatdan zararli zavod va uni to'xtatish zaruriyati haqida (Sobiq «Yosh leninchi», hozirgi «Yoshlar ovozi» gazetasi).

«Ikki daryo oralig'ida» – iqtisod fanlari doktori, professor Nurislom To'xliiev bilan suhbat, O'zbekistondagi iqtisodiy tengsizliklarni bartaraf etish zaruriyati haqida («O'zbekiston adabiyoti va san'ati» gazetasi).

«Xilma-xillik tengsizlik emas» – Maktab darsliklarida Qur'oni Karim haqida aytilgan bo'htonlar va ularni bartaraf etish zaruriyati haqida («O'zbekiston adabiyoti va san'ati» gazetasi).

«Tijorat tarixi» – yangi davrda qadimiy-tarixiy tajriba va an'analardan foydalanish zaruriyati haqida («O'zbekiston adabiyoti va san'ati» gazetasi).

«Fitna san'ati» – qonli Farg'ona voqealari, mesxeti turklari bilan o'zbeklar orasidagi ixtiloflar sho'ro davlati tomonidan maxsus uyushtirilgani, Rossiyaning qishloq xo'jaligini tiklash va rivojlantirish uchun mehnatkash mesxeti turklarini O'zbekistondan ko'chirib ketish jarayonlari haqida rad qilib bo'lmas dalillar. Bu asar o'ta mashhur bo'lganidan ba'zi chet tillariga «Fitna san'ati yoki parda orqasi» nashr etilgan. Jumladan, Turkiya, «TOS yayinlari» nashriyotida chop etilgan. «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» kutubxonasi ruknida chop etilgan ikki jildlik asar ham «Fitna san'ati» deb nomlangan («O'zbekiston adabiyoti va san'ati» gazetasi).

«Faqat tejalmasa edi haqiqat» – Mustaqillikning ilk davrida O‘zbekistondagi iqtisodiy nohaqliklar, xalqning og‘ir ijtimoiy ahvoli, inson huquqlarining poymol etilishi va bu muammolarni bartaraf etish zaruriyati haqida («Hayot va iqtisod» jurnali).

«Bosh qonun muammolari» – Mustaqil O‘zbekiston Konstitutsiyasi qanday bo‘lishi kerak? U O‘zbekiston xalqlarining, jumladan, yurtning egasi bo‘lgan o‘zbek xalqining barcha ijtimoiy huquq va tengliklarini ta‘minlashi zarurligi va jahon Bosh qonunlari bilan teng maqomda bo‘lishi muhimligi haqida («O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati», «Turkiston» gazetolari).

«Shukrona tuyg‘usi omonmi?» – Mustaqillik davridagi axloqiy va ijtimoiy muammolar, ularni bartaraf etish choralari haqida («Hurriyat» gazetasi).

«She‘riyat – haqiqat jarchisi». Jurnalist Umid Ali bilan suhbat. «Ko‘ngilga sayr» adabiy-ijodiy suhbatlar kitobi (74–82-betlar). «Yangi asr avlodi» nashriyoti», 2009.

«Xalqqa qaytarilgan xazina». Istiqlool davrida ijodlari va adabiy meroslari xalqqa qaytarilgan Yo‘ldoshxo‘ja Dog‘iy, Faqiriy-Shahrisabziy, Nazrullohxon G‘aribiy, Dadaxon Suhayliy, Qul Aziz Turkistoniy faoliyatlari haqida. «Imom al-Buxoriy saboqlari» jurnali, 2011, 4-son (271–274-betlar).

«Adabiyot kelajagi – vatan kelajagi». O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi huzurida «Ijod» fondini tashkil etish to‘g‘risida»gi qaroriga (2010-yil, 26-fevral) oid samimiy mulohazalar. «O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati» gazetasini, 2010-yil, mart.

«Ruhning ozuqasi ma‘naviyat bozorlaridadir». Publistsistika. «Yoshlik» jurnali, 2012, 5-son (7–11-betlar).

«**Hayot haqiqatlari**». «XXI asr» gazetasi, 2017-yil, 21-dekabr, 51 (737)-son, payshanba.

«**Vatanning ravnaqi ilmdadir**». O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Islom Akademiyasini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori haqida samimiy mulohazalar. «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» gazetasi, 2017-yil, 22-dekabr, № 52 (4450).

«**Kitobga qaytish – vijdonga qaytishdir**». «XXI asr» gazetasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Kitob nashrlari chora-tadbirlari to'g'risidagi qaroriga munosabat.

«**Muhabbat va sadoqat maktabi**». «Hurriyat» gazetasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Ma'naviyat borasidagi farmon va qarorlari sharhi.

«**Parchalanmas bir diyor – o'zbek tili**». «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» gazetasi, 2019-yil, 8-fevral. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Davlat tili to'g'risidagi qaror va farmonlari sharhi.

«**Vijdon va diyonat bayonnomasi**». O'zbekiston Respublikasi Prezidentining xalq vakillari va senat a'zolariga murojaatiga munosabat.

ADABIY-IJTIMOY MAQOLALARI

«**Asl vatan qayg'usi**» (Xoja Ahmad Yassaviy hikmatlari). «Tafakkur» jurnali, 1993.

«**Navoiy devonining fazilatlar**». «Imom al-Buxoriy saboqlari» jurnali, 2013, 1-son (18–20-betlar).

«**Navoiy nazmida hadis va hikmat**». «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» gazetasi.

«**Qudrat va san'at sohibiga iltijo**». «Sino» jurnali, 2011, bahor-yoz, 41–42-sonlar. Navoiy g'azalining sharhi (77–82-betlar).

«**Poklik va muhabbat tarannumi**». Buyuk muta-fakkir shoir Alisher Navoiy g‘azali sharhi. «Jahon adabi-yoti» jurnali, 2009-yil, fevral, 2-son (148–149-betlar).

«**Jon va jonon sirlari**». Navoiy ijodida jon va jonon istilohlarining bayoni. «Tafakkur» jurnali, 2013-yil, 2-son.

«**Haq aylasa adolat**». Navoiy ijodida Qur‘on oyatla-rining ma‘nolari («Ibratli hikoyatlar va xislatli hikmat-lar» kitobidan, 2016).

«**Ma‘no olamidan olingan g‘azal**». Navoiy ijodida irfoniy mavzular, oyat va hadislarining ma‘nolari («Ibrat-li hikoyatlar va xislatli hikmatlar» kitobidan), 2016.

«**Oshiqi sodiq Fuzuliy**». Buyuk Ozarbayjon shoiri Muhammad Fuzuliy ijodi haqida. «Jahon adabiyoti» jur-nali, 2009, iyun, 6-son (65–67-betlar).

«**So‘fi Alloh-yor – oshiqi diydor**». «So‘fi Alloh-yor», Xalqaro ilmiy anjuman materiallari. 86–93-betlar. «Al-Hudo» xalqaro nashriyoti, «Movarounnahr» nashri-yoti, Tehron – Toshkent, 2005.

«**Alloma she‘riyati**». Alixonto‘ra Sog‘uniy she‘riyati haqida. «Bizdan emasdirlar Vatanni sevmaganlar» kito-biga so‘zboshi. «Movarounnahr» nashriyoti, 2005.

«**Xitoblardan tuzilgan kitob**». Shoir Abdug‘afur So-bir Mirzoning «Insonnoma dostoni haqida so‘z. «Inson-noma» kitobiga so‘zboshi, 2007.

«**Maxtumquli – valiy shoir**». «Jahon adabiyoti» jur-nali, 2008-yil, dekabr, 12-son (96–97-betlar).

«**Dars boshqa, ibrat boshqa**». Atoqli olim Vohid Abdullaevni eslab. «Ilmu ma‘rifatga baxshida umr» kito-bi. «Toshkent Islom universiteti» nashriyoti, 2009.

«**Vatanga fidolik mas‘uliyati**». O‘zbekiston xalq yo-zuvchisi Shukur Xolmirzayevni eslab. «Shukur Xolmir-

zayev zamondoshlari xotirasida» kitobi (154–170-betlar), Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010.

«**Muhabbatga sazovor manzil**». Kitob shahri teran tarixi, buyuk shaxslar, meʼmoriy obidalar. Salohiddin Isomiddinovning «Togʻ ichinda bir kishvar» kitobiga soʻzboshi, «Muharrir» nashriyoti, 2012.

«**Orifona qalb sirlari**». Adabiyotshunos olim va shoir Botirxon Akramning «Hayratlar olami» kitobiga soʻzboshi. «Turon Zamin Ziyo» nashriyoti, 2014.

«**Ahli dil inson edilar**». Mutafakkir olim, noziktaʼb shoir, muhabbatli inson Botirxon Akramni yod etib. «Botirxon Akram. Maʼrifat fidoyisi» kitobi, «Mumtoz soʻz», 2012 (150–153-betlar).

«**Oʻqituvchi tuygʻulari**». Abdurahim Abdusamad (Abdusamatov)ning «Onamni eslab» sheʼriy toʻplamiga soʻzboshi. «TURON IQBOL» nashriyoti, 2012.

«**Turkistonda (bugungi Oʻzbekistonda) Ahmad Ziyouddin Kumushxonaviy hazratlari**», 2013-yil 1–2-iyun kunlari Istanbul shahrining Bogʻchilar baladiyasida oʻtgan «Kumushxonaviy xalqaro simpoziumi»da soʻzlangan nutq va simpozium materiallari kitobidan oʻrin olgan maqola. 466–473-betlar. 2013-yil, Istanbul.

«**Attor doʻkonining xushboʻyliklari**». Akmal Saidovning «Attorshunoslik» asari haqida mulohazalar. «Oʻzbekiston adabiyoti va sanʼati» gazetasi, 2013-yil, aprel.

«**Sabr va sabot ziyolari**». Qashqadaryolik nogiron adiba Dilrabo Toshtemir qizining «Ismsiz tuygʻular» kitobiga soʻzboshi. «Muharrir» nashriyoti, 2013 yil.

«**Orifona qalb sirlari**». Adabiyotshunos olim va shoir Botirxon Akramning «Hayratlar olami» kitobiga soʻzboshi. «Turon Zamin Ziyo» nashriyoti, 2014.

«Kitob olami – shaxslar olami». A.S.Pushkinning «Yevgeniy Onegin» she’riy romani, Sergey Yesenin saylanmalari, Gabriel Garsia Markesning «Oshkora qotillik qissasi», «Zahiriddin Muhammad Boburning «Mubayyin» asari, Erkin Vohidovning «So‘z latofati» kitobi haqida mulohazalar («Tafakkur» jurnali, 2015, 1-son).

«Muborak dargoh nasimlari». «Ijtimoiy fikr – inson huquqlari» jurnali, ilmiy-axborot nashri; 2016, 1 (73)-son. Akmal Saidovning «Hazrat Zangi Ota» (T.: «Sharq», 2015, 504 bet) kitobiga taqriz. 152–154-betlar.

«Дуновение благословенной земли», рецензия (rus tilida). «Демократизация и права человека» jurnali; № 2 (70), 2016; o‘zbek, ingliz, rus tillaridagi ilmiy-ma’rifiy jurnal; научно-просветительский журнал. – S. 151–153.

«Oshiq Mashrab va tasavvuf olami». Mashrab «Kulliyot»iga so‘zboshi sifatida yozilgan tadqiqiy maqola. «Muharrir» nashriyoti, 2017.

«Bobur Mirzoning fiqhiy va tasavvufiy qarashlari». 2017-yil, 27–28 oktyabr kunlari Andijon shahrida o‘tgan «Zahiriddin Muhammad Bobur asarlarining jahon madaniyati tarixida tutgan o‘rni» xalqaro konferentsiyada so‘zlangan ilmiy ma’ruza hamda «Bobur va dunyo» jurnali, 2017-yil, 3-sonida chop etilgan maqola.

«Mumtoz she’riyat fidoyisi». «Xalq akademigi» deb nomlangan Jaloliddin Yusufiy vafoti sababi bilan yozilgan maqola. «O‘zbekiston adabiyoti va san’ati» gazetasi, 2017-yil, 15-dekabr, № 51 (4449).

MUNDARIJA

<i>Tahrir hay'ati.</i> So'zboshi o'rnida	3
Qisqa muqaddima.....	5
Dil so'zlarimni aytishga sabab nima?	6
Adabiyot adab demakdir	7
Ijod ahlining o'z axloqiy mezonini bo'lishi kerak.....	8
Muhitning ijodga ta'siri	10
Adabiyot o'tkinchi tashviqot vositasi emas.....	13
Har bir qalamkashning qat'iy ijodiy intizomi bo'lishi zarur.....	15
Buyuk yozuvchi Lev Tolstoyning hayotiy tartib-qoidalari	17
«Mendek mehnat qilsa edi...»	18
Hasad-xusumatdan pok bo'lish.....	19
Buyuk shoirlar hasaddan ozor chekkanlar	21
Hasadchining nasibasi	23
Guruhbozlik va mahalliylikdan uzoq bo'lish.....	24
Shon-shuhrat va tamaga berilmaslik	25
Umrini ig'vogarlik va tuhmatchilik bilan o'tkazayotganlar	26
Vatan tarixini o'rganish	27
Ijodkorning so'z boyligi.....	29
«Yig'lamoq»ning yetti xil shakli.....	30
Navoiyning so'z xazinasini	31
Insoniyat tarixini o'rganish zarur	32
Jahon siyosatini bilish zarur.....	33
Mumtoz adabiyotni ko'p o'qish va anglash zarur	34
Jahon adabiyotini ko'p o'qish va o'rganish zarur	36
«Xalqni o'z o'lchovining bilan o'lchama...»	37
«Lahval-hadis»ning zamonaviy ta'vili.....	38
Nomus va iffat fojiasi.....	39
Dengizlar ortida yashagan adib.....	40

Tarjima san’atining go’zal sirlari.....	42
Uch ulug’ zotning tarjima maktabi	42
Tillarni biluvchi ko’paydi, ammo... ..	44
Tasavvuf adabiyotini, Naqshbandiya ta’limotini o’rganish zarur	45
Go’zal manbalar	46
«Ma’rifatnoma» manzumasidan baytlar	47
Majoz va haqiqat	48
Majozdan maqsad – ishq haqiqiydir	50
Ishq hayotbaxsh o’limdir	51
Majoz adabiyotining hikmati	51
Insonning yangi bir hayoti.....	52
Noqisdan komil ish chiqmaydi.....	53
Ijodda nur bo’lmog’i lozim	54
Ijodkor yaxshi niyat qilishi kerak	55
O’limni istagan qalamkashlar	56
«O’limni orzu qilmanglar»	59
Tongi otmagan shoir.....	59
Yangi asrning o’n olti yili.....	60
O’limni chaqirmang, shoir do’stlarim!.....	62
Charli Chaplinning so’zsiz san’ati.....	63
Taqlid	64
Ijod bu hikmatdir, hikmat esa poklik mahsulidir.....	65
Buloqlar yerda bo’ladi.....	67
Jahon adabiyotida islomiy ma’rifat bahralari.....	67
Gyote ijodi – ma’rifat bo’stoni	68
Egri qovurg’a tavsifi.....	71
«Sadoqatli to’rt ayol bor...»	72
Abadiyat bulog’i.....	72
Bir nafasda ikki ne’mat bor	73
Gyote e’tirofi.....	74
Pushkin va Qur’on	74
Pushkin vasf etgan odob namunalari.....	76
«Qani, chiqar quyoshni g’arbdan!..».....	77

Mirzo KENJABEK

Ivan Bunin hukmlari.....	78
Turkiy-o'zbek adabiyotida arba'iy turkumlari.....	79
Kurashda yiqitgan pahlavon emas, nafsini yenggan pahlavondir.....	81
Pahlavon Mahmudning pahlavonlik siri.....	82
Ma'naviy-e'tiqodiy tamoyillarga hurmat saqlashning zarurligi.....	85
Hayvonni aldashdan qaytargan ta'limot.....	87
Lev Tolstoyning birlik va do'stlik talablari	88
Dantening dunyoga fosh bo'lgan sirlari	88
«Ilohiy komediya»ga oid xolis ma'lumotlar	89
28-bob bandlarining mazmuni va muqaddimasi	93
«Ilohiy komediya»ning turkcha tarjimasiga ruxsat berilmagani sababi.....	94
«Ilohiy komediya»ning urush tahdidiga sabab bo'lgani	95
Bashariyat adiblari uchun xulosa	95
Dantening bo'htonini Gyotening haqiqati bilan inkor etish	97
Butparastning butini so'kmang... ..	98
Ma'naviy omillarni hajv qiluvchilar... ..	99
Ijod ahlida sog'lom qalb va subut bo'lmog'i kerak	101
Buyuk adibning obro' va sharafi.....	104
Ilohiy mavzularni o'yin qilib bo'lmaydi	106
«Masxarabozlikni sahnada qil...».....	106
Basharning chilimparvar xayoli	107
Shoirning beo'xshov «rassom»ligi.....	109
Eng yaxshi irfon	110
Jaholatning chegarasi bormi?	113
Tavba eshiklari doim ochiqdir	114
Mushrik degani nima degani va kimlar mushrik sanaladi?.....	115
Dunyoning sharaflari ayollari	118
She'riyat malikalari va faqr maqomining xodimalari	119
Temuriy naslidan Zebunniso bu.....	120
Haqiqat yorining vafodori – Jahon Otin Uvaysiy bu	121
Mehr-u muhabbat mulkingning sultoni – Nodira Begim (Mohlar Oyim) bu	123

YOSHLARGA DIL SO‘ZLARIM

Fazli ilohiyga erishgan mehribon – Mahzuna bu	128
Fazliyshe’riyhikoyasining nasriy bayoni.....	129
Musho’ara va nasriy bayoni.....	129
Yangi davr o‘zbek shoirlari.....	132
Hayo pardasi.....	138
She’riyat shifokori	138
Ayol va askiya.....	139
Din ahllarini haqorat qilmaylik.....	140
«Tog’am rozi bo’lsin desang...».....	142
Muhammad ismi bor joyda tahqir so‘zlari bo’lmasligi lozim.....	143
«Muhabbatidin otingni habib atab mahbub...»	145
«Oting janobig’a kirgan...»	146
Xayrli va muborak manzillar	147
Sohibqiron Amir Temur e’tiroflari	147
«Sayyidlar, shayxlar, ulamo va fuzalo zotlarni o‘zimga yaqin tutdim»	149
Aziz zotlarga nisbatan ehtirom namunasi	150
Tarix bo’hton vositasi emas	150
Abjad hisobida bitilgan tarix.....	152
«Tarixi Muhammadiy» asari o‘zbek romanchiligining oliy namuna-sidir	153
Beruniy haqiqatlari.....	154
Tarixan noloyiq shaxslar qahramon bo’la olmaydi.....	157
Bosqinchilikni qo’llab-quvvatlash – insoniyat erkiga ziddir.....	158
Shohga noxolis maslahat bergan yozuvchi.....	159
Nikoh va taloqning hazili ham, chini ham haqiqatdir	160
Xalq hayotini bilmaslik oqibati.....	161
Biz kimlarning avlodimiz?	162
Dunyoning jannati qayerda?	163
«Bu qirlar – dunyoning jannati».....	164
Oshiqlik bo’y-bast tanlamaydi.....	165
Ichkilik balosining adabiyotga yetkazgan talofatlari	166
Yaxshidir achchiq haqiqat.....	167

Mirzo KENJABEK

«Turkiston viloyatining gazet».....	170
Motamdagi quvnoq ashula.....	170
«Bu – millatni o'ldirish-ku!..»	171
«Nishonga urish emas, nishonga urmaslik mahoratdir...».....	171
Aqlni va naslni buzadigan illat.....	173
Xotira yozish odobi	174
Noloyiq ishlarga hurriyat yo'q	175
Xotira yozish qalamkashni tahqirlash bo'lmasin	176
Hayot hangomadan iborat emas	180
Umrning avvalidan ko'ra oxiri muhimdir.....	181
«Tavbanning izhori – shu she'rni yozdim...».....	182
Bir tomchi qon, bir qozon taom.....	184
Rauf Parfi yuragidan she'riy parchalar	187
Shohmotda yutqizgan ulug' adib.....	189
Bir gunoh kechirilgan bo'lsa... ..	189
Hamma rost gap ham degulik emas.....	190
«O'lganlarni so'kmanglar...»	192
Umringiz davomida ikki holatga duch kelasiz... ..	192
Yaxshilik qilish qoidasini suiiste'mol etmaylik.....	193
Siyosiy ayb taqashdan saqlanmoq	194
Tanqid dushman izlaganda	195
Taxallus tanlash masalasi.....	196
Xotima.....	198
Muharrirdan.....	200
Otabek Bakirov. Bir nafasda o'qiladigan suhbatlar.....	200
Shodmonqul Salom. Go'zal adabiy risola.....	203
Mansur Jumayev. Juda dilbar va kerakli kitob	204
Muallif haqida	205

Adabiy-badiiy nashr

Mirzo KENJABEK

YOSHLARGA DIL SO‘ZLARIM

Yosh ijodkorlarga samimiy tavsiyalar

Muharrirlar *Jo‘rabek Jahon*

Mavjuda Jo‘rayeva

Badiiy muharrir *Shuhrat Odilov*

Musahhih *Azamat Qayumov*

Sahifalovchi *Ixtiyor Saidov*

O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi

«ADABIYOT NASHRIYOTI» MCHJ

Nashriyot litsenziyasi: № AA 0043. 27.01.2020

100129, Toshkent, Markaz 15. 1/90.

Tr: (+98) 127-30-04.

Bosishga 2022-yil 18-dekabrda ruxsat etildi.

Bichimi 84x108 1/32. Ofset bosma. «Cambria» garniturası.

Shartli bosma tabog‘i 13,44. Nashriyot bosma tabog‘i 16.

Adadi 5000 nusxa. Buyurtma №

«AZMIR NASHR PRINT» MCHJ bosmaxonasida chop etildi. 100200,
Toshkent shahri, Adham Rahmat ko'chasi, 10-uy.